

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

IKKI JILDLIK

I

QShe'riyat

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
CHO'LPOH NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2006

Tahrir hay'ati:

Abdulla ORIPOV

Bobur ALIMOV

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Nosir FOZILOV

Miraziz A'ZAM

Anvar OBIDJON

Tursunboy ADASHBOYEV

Safo OCHIL

Shoyim BO'TAYEV

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:

Tursunboy ADASHBOYEV

Abdurahmon AKBAR

O'zbek bolalar she'riyatining bosh vazifasi bolajonlarni Ona-Vatanga mehr-muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Shu ma'noda „O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi“ning mazkur I jildi bundan chorak asr muqaddam nashr etilgan antologiyadan shaklan va mazmunan farq qiladi.

Tuzib, nashrga tayyorlovchilar bolalar she'riyatining bugungi ahvoli, yutuqlari, rivojlanish yo'llari haqida qayg'urib, mazkur ishga qo'l urganlar. Ular antologiyaga taniqli bolalar shoirlari bilan bir qatorda she'riyat olamiga kirib kelgan yosh avlod vakillarining eng yaxshi asarlarini saralab kiritishga harakat qilganlar.

A **4301000000—139** **Buyurtma var.—2006**
353(04)—2006

ISBN 978-9943-02-007-8

© „O'qituvchi“ NMIU, 2006



„Bolalar adabiyoti“ deganda, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan, tabiat va jamiyatdagi voqeа-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma'lumot beradigan sho'x va o'ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni tushunish qon-qonimizga singib ketgan. Shu sababli ham shoir-u nosirlarimiz hazilkash, sho'x, o'yinqaroq, topqir bolakaylar haqida hazilhuzulga boy yumoristik she'r-u hikoyalar, doston-u qissalar bitadilar; nabotot va hayvonot dunyosini bolalarning hayratomuz nigohi bilan qayta-qayta kashf qiladilar; parranda, darrandalarni misol qilib, ibratomuz ertag-u masallar yozadilar; Vatan — kindik qoni to'kilgan muqaddas Ona tuproqqa sadoqat, ustozlar va ottonalar hurmatini sharaflash ruhidagi she'r-u dostonlar yaratadilar; bolalarni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishga chorlovchi — mакtab, kitob va boshqa turli o'quv qurollarini madh etuvchi asarlar bitadilar va hokazo. Albatta, bu mavzularning har biri ham umrboqiyligi va bolalar adabiyotida doimo sezilarli mavqe kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Biroq „Ana shu haqiqatlarni har bir avlod qanday qayta kashf qilyapti va bu kashfiyotlarning badiiyat darajasi qanday?“ degan savol doimo oldimizda ko'ndalang turishi ham, shu boisdan, tabiiydir.

Bolalar adabiyoti, nazarimizda, hayotning o'zi qadar qadimiy bo'lib, onaning birinchi bolasiga aytgan ilk allasidan boshlanib, xalq og'zaki ijodida bolalarning tili burro bo'lishiga yo'naltirilgan tez aytishlar, fikrini, zehnini charxlashga yo'naltirilgan topishmoqlar, o'yin qo'shiqlaridan masallar-u ertaklargacha bo'lgan qanchadan qancha aynan bolalarga mo'ljallangan janrlar tarzida namoyon bo'ladi. Aslida esa ularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamoloti manfaatlariga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotimizda ham, garchand, bizning bugungi „bolalar adabiyoti“ tushunchamizga u qadar mos kelmasa-da, farzand ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan „pandnoma“ janrining ko'plab namunalari azal-azaldan'mavjud. Zero, bola bor ekan, uning komil inson bo'lib yetishuviga xizmat qiladigan adabiyot ham bo'lmoq'i aniq.

Ma'lumki, bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turadigan bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ular, dastavval, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti,

avvalo, ta'lif va tarbiya beradi. Ana shu ta'lif-tarbiyani go'zal badiiyat qobig'iga jo qila olish esa ijodkordan ulkan mahoratni talab qiladi va, shu boisdan ham, barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuvchisi bo'la olmaydilar.

Ikkinchidan esa, bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham keyingi yuz yillikda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Ungacha deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida, jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdagi tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiyl-ma'rifiy asarlar tavsija qilingan.

O'zbek bolalar she'riyati tarixi xususida fikr yuritilar ekan, ushbu adabiyotning ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alisbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlanishini alohida qayd etish joiz. Zero, bolalar adabiyoti, aslini olganda, ma'rifat-parvarlikning farzandidir. Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning „Birinchi muallim“, „Ikkinci muallim“, „Maktab guliston“i, „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarlaridagi o'nlab she'rlar, she'riy hikoya va masallar o'zbek bolalar she'riyatining ilk sahifalarini tashkil qiladi. Birgina misol:

„Ikkinci muallim“dagi „Maktaba da'vat“ she'rida muallif yosh kitobxonga murojaat qilib, tong otganidan, uyqudan ko'z ochish vaqtiga yetganidan xabar beradi, hamma o'z ishini boshladi, siz ham o'z ishingiz — o'qishingizga yuguring deydi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara,
Yotma deyur barcha o'g'il-qizlara.

Nolayi faryod qilib barcha qush:
Maktabingiz vaqtiga, — deyur sizlara.

Boshladi har kim o'z ishin ishlara,
Siz-da turing, maktabingiz izlara.

Uchdi ari bog'chalara bol uchun,
Buzov turur uyda cho'kub tilzlara.

Siz-da kitoblarni(ng) oling shavq ila,
Tez yuguring ilm yo'lin gezlara.

Nazarimizda, bu kichik she'r XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotining go'zal namunasi sifatida tilga olishga arzigelikdir. Zero, she'rda muallif yosh kitobxonga murojaat

qilishning eng maqbul yo'lini topa olgan: saharda chiqqan quyosh panjaradan mo'ralab, uqlab yotgan bolakayni o'z nurlari bilan erkalab uyg'otishi, tong otishi bilan kundalik ashulasini boshlagan qushlarning chirqillashi ham bolakayni uyg'otish uchun qilinayotgan nola-yu faryod sifatida tasvirlanishi; hamma o'z ishini boshlagani: arilar bol yig'ish uchun bog'larga uchib ketgani, buzoqcha onasini tiz cho'kib emayotgani va bolaning ham kitobdaftarini olib, ilm yo'lini izlashga yugurishi kerakligi samimiyl, o'ynoqi satrlarda tasvirlangandir.

O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandalardan biri bo'lmish Hamza Hakimzoda Niyoziyining „Yengil adabiyot“, „O'qish kitobi“, „Qiroat kitobi“ asarlaridagi bir qator she'rlerida ham ilmning xosiyati va jaholatning kasofati haqida fikr yuritiladi hamda qiyoslash yo'li bilan birining yaxshi va ikkinchisining yomon jihatlari ko'rsatiladi.

Shoir dastlab ilmni jannatning eshigini ochuvchi, xazinaning yo'lini ko'rsatuvchi porloq nur sifatida, mактабни esa insонning ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lib, olim bo'lishidagi dastlabki bosqich — beshik sifatida tasvirlar ekan, keyingi misralarda bu qiyoslar yanada reallashadi; hayotda nimaiki baxt-saodatga erishar ekansan, hammasi ilm sharofatidan, nimaiki jabr-u zalolatga duchor bo'lar ekansan, hammasi jahl kasofatidan deb tasvirlanadi. Va nihoyat:

Olim bo'lsak dunyoda,
Kelur har ish bunyoda,
Biz ham suv ostin kezub,
Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda,
Xo'rlik kelur ziyoda,
Hayvon kibi yuk tashub,
Cho'l kezarmiz piyoda

satrlarida Hamza Hakimzoda bir kun kelib biz ham olim bo'lsak, qo'limizdan hamma ish keladigan, suv ostida kezib, havoda uchadigan bo'lamiz, deb orzu qiladi. Shunisi xarakterlik, ijodkor yosh avlodga murojaat qilar ekan, uning murojaati kelajakka ishonch ruhi bilan to'liq, yangilikka, yaratuvchilikka tashna yosh qalblarni o'z ortidan ergashtira oladi.

Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziyining bolalarga mo'ljallangan asarlarida ilm-ma'rifatga chanqoq, ilm cho'qqilarini

egallab, o'zgalar singari osmonlarda uchib, suv ostida suzishni orzu qiladigan bolakaylarga ko'proq ijodkorlar pand-nasihat qilsalar, ya'ni bu she'rlarda ochiq didaktika yetakchilik qilsa, XX asrning 30-yillarda o'zbek bolalar she'riyatida ushbu an'analar davom ettirildi va yuqori pog'onalarga ko'tarildi.

30- yillarda o'zbek bolalar she'riyatida ilk bora tom ma'nodagi bolalar obrazlari maydonga kela boshladi. Bolalar adabiyotida tasvir usullaridan biri ota-onan yoxud muallim-murabbiyning yosh avlodga bevosita murojaati, pand-nasihat tarzida namoyon bo'lsa, tasvirning ikkinchi usulida lirik qahramon sifatida maydonga bolaning o'zi chiqadi, asarda bola timsoli paydo bo'ladi. Binobarin, XX asrdan boshlangan o'zbek bolalar she'riyati kunma-kun badiiyat pillapoyalaridan tepaga ko'tarila boshladi, mahorat qirralarini egallay boshladi. 30- yillar bolalar she'riyati namunalari ayni shu jihat bilan e'tiborga sazovordir. Bu o'rinda shuni ham alohida qayd etish joizki, ushbu davrda ilk bora, asosan, bolalar uchun ijod qiladigan Sulton Jo'ra, Zafar Diyor, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy, G'ayratiy, Ilyos Muslim singari professional bolalar shoirlari avlodni maydonga keldi. Ular bilan birgalikda esa ushbu davr she'riyati taraqqiyotiga bolalar she'riyatining yetakchi namoyandalari sifatida G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon singari kattalar adabiyoti namoyandalari ham munosib hissa qo'shdilar.

Bu yillarda ijodkorlarimiz o'z asarlari bilan yosh avlodni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishi sari yetaklashga xizmat qildilar. Shuningdek, o'zbek alifbosining lotin grafikasidan kirill yozuviga o'tkazilishi munosabati bilan ham bir qator she'rlar yaratildi. Zafar Diyorning „Kitob, mening do'stimsan!“, „Birinchi qadam“, „Bog'chamiz“, „Zarar emasmi?“, „Sentabr qo'shig'i“, Sulton Jo'raning „A'lo“ va „yaxshi“ning maqtovi“, „Harflar paradi“, „Tinish belgilarining majlisi“, „Kimning xati chiroyli“, „Ikki baho“, „Mamatning kechirmishlari“, G'afur G'ulomning „Navqiron avlodimiz sinov oldida“, „O'rdak va Turg'un“, „Ko'klam shamoli“, „Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi“, Adham Rahmatning „Ta'til kunlari“, „Birinchi sentabr“ she'rlari shular jumlasidandir.

„Bog'chamiz“, „Birinchi sentabr“, „Sentabr qo'shig'i“, „Birinchi qadam“ she'rlari bog'chadan ilk bora maktab sari yo'l olayotgan bolalar tilidan yozilgan. Ularda maktab va o'quv qurollariga muhabbat, savod o'rganish quvonchi va bir yosh

ulg'ayish mas'uliyati o'z aksini topgan. „Ta'til kunlari“ she'rida esa yozgi ta'tilda oromgoh quchog'ida o'ynab-kulib dam olgan, kuch-g'ayratga to'lib, qadrdon maktabi sari oshiqayotgan o'quvchilar quvonchi, ularning baxtli bolalikdan minnatdorlik tuyg'ulari aks etgan.

Bu yillarda, shuningdek, kitob haqida ham juda ko'plab she'rlar yaratildi. Bu she'rlarda kitobning turli fazilatlari shoirlar tilidan ta'riflanadi. Ular orasida „Kitob, mening do'stimsan!“ she'ri alohida o'rinni tutadi. She'r bola tilidan hikoya qilinishi, chuqr samimiyati va o'ynoqiligi, ravonligi va musiqiyiligi, bolalarbopligi bilan ham ajralib turadi:

Gulshan aro men ila
Suhbatlaring chiroyli,
Katta-kichik el aro
Ulfatlarining chiroyli!

deyish kitobga o'rtoq bo'la olgan bolagagina xosdir. Har bir to'rtlikdan so'ng takrorlanuvchi:

Shuning uchun deymanki,
Kitob, mening do'stimsan!

naqaroti esa she'r ohangini yanada musiqiylashtirgan, kitobda yaxshi sifatlar jamuljamligini namoyon etgan. Ushbu she'rdagi jonlantirish san'ati (kitob bilan suhbat) she'r badiiyatiga ko'rk bo'lib tushganki, bu badiiyat unsurlari birlashib, shoир ijodiyotini go'zal gullardan saralangan sarkil guldastaga o'xshatishga asos bo'ladi.

Sulton Jo'raning „Harflar paradi“ she'ri kirill yozuviga o'tilishiga bag'ishlangan. „Tinish belgilarining majlisi“ she'rida esa o'quvchiga tinish belgilarining ahamiyati uqtiriladi. Bu she'r o'ttizinchi yillar o'zbek bolalar she'riyatidagi ilm-ma'rifat mavzusiga bag'ishlangan asarlar orasida alohida ajralib turadi. Unda shoир tinish belgilarini „jonlantirgan“. Tinish belgilari yig'ilishib, majlis o'tkazishadi va har biri o'z o'rnini, vazifasini tushuntiradi. Shoир har bir tinish belgisining hayotdagи o'xshashini, aksini to'g'ri topgan va mahorat bilan ishlatgan. Zero, Nuqta boshga, koptokka, fikrlar bekatiga o'xshatilar ekan, bular uning asriy tashqi belgilaridan keltirib chiqariladi. Ma'lumki, bolalar ham predmetlarning tashqi belgilarini topishga usta bo'lishadi va ko'pincha ularni shu bilan belgilashadi. Shu xususiyat bolalar adabiyotining

o'ziga xosliklaridan va bolalar ijodkorining mahorat qirralaridan birini ham ko'rsatadi. She'rdagi „Nuqta“ ta'rifini ko'raylik:

Fikrlarning bekatiman – Nuqtadirman,
 Har darak gap oxirida to'xtaydirman...
 Parovozlar suv olgandek bektlardan,
 Menga yetgach, olmoq kerak bir to'liq dam.
 O'zimdan so'ng qo'ymoq zarur zo'r bosh harf,
 Biroq ba'zan unutadi bizni Zarif.
 Har bir bosh harf yonimdag'i bir soqchidir,
 Qaysi bola buni qo'ysa, zap yaxshidir.

Shoir fikrini o'quvchiga yetkazish uchun bayondan emas, tasvirdan, topib va o'rinda ishlatilgan o'xshatishlar („so'roq“ — o'roq, „undov“ — novcha, mix, „vergul“ — kichik to'qmoq, fikrlar razyezdi va b.) dan ustalik bilan foydalana olgan. Shuningdek, voqeabandlik ham unutilmagan, she'r o'yin tarzida davom etadi. Zero, fikr poyezdga, so'zlar vagonlarga o'xshatilganligi she'r mazmunida ham aks etib turibdi. Aslida esa asarda o'yin usulidan foydalanish bolalar adabiyotida katta o'rin tutadi. Tinish belgilari qoidasini o'quvchi darsligidan o'qib olish ham mumkin edi, biroq maktab darsligidagi rasmiy qoida bilan she'riy til vositasida o'yin tarzida berilgan tushuncha o'rtasidagi farq katta va bunda ustunlik she'r tomonidaligi shubhasizdir. Buni to'g'ri anglay olgan Sulton Jo'ra o'zbek bolalar adabiyotida birinchilardan bo'lib, ta'lim-tarbiya masalasiga muallim-shoir sifatida yondashdi. Bu tajriba esa keyingi avlod namoyandalari, ayniqsa, Quddus Muhammadiy tomonidan muvaffaqiyatli ravishda davom ettirildi va yangi pog'onalarga ko'tarildi.

Maktab-maorif va ilm-ma'rifat mavzularida yaratilgan asarlar orasida qoloq, dangasa o'quvchilar tanqid qilingan, ularni ilg'orlar safiga yetib olishga undovchi she'rlar ham oz emas. G'afur G'ulomning „O'rdak va Turg'un“ she'rida ozgina uyaltirish va ishonch bildirish bilan bolaning qayta tarbiyalanishi va ilg'orlarga yetib olishi tasvirlanadi. Sulton Jo'raning „Mamatning kechirmishlari“ she'ri ham shu mavzuda. Amмо bu she'r qoloq o'quvchining o'z-o'zini tanqid qilishi, qoloqligi, baholari yomonligi sababini o'zidan qidirishi tasviri asosida qurilgan. Shoir mas'uliyat hissini sezish, yalqovlik, dangasalikka qarshi kurash uchun bor irodasini ishga solish tuyg'ularini charxlash vositasida bolaga ishonchini ham

ifodalaydi. Zero, ishonch – katta kuch. Uning insonni, ayniqsa, xarakteri endigina shakllanib kelayotgan o'smirni qayta tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir. Shoir o'quvchilarda o'z kuchiga ishonch uyg'otish bilan ularni ilg'orlar safidan o'rin olishga chorlaydi.

30- yillarda yil fasllari, tabiat va hayvonot dunyosi haqida ham anchagina she'rlar yaratildi. Zafar Diyorning „Yanvarda“, „Archa“, „Archa qo'shig'i“, „Bahor yaqin“, „Navbahor“, „Bahor keldi“, „Bahor keldi, o'rtoqlar“, „Gunafsha“, „Qushlar qo'shig'i“, „Qanotli do'stlar“, Adham Rahmatning „Gunafsha“, „Yoz oylari“, „Kuz oyi“, „Qishda“, „Keling qushlar“, „Qurbaqa“, „Hayvonot bog'ida“ turkumidagi „Tuyaqush“, „Laylak“, „Tovus“, „Turna“, „To'ti“, „Kaptar“, Sulton Jo'raning „Bahorimiz“, „Yozgi yomg'irdan so'ng“, „Qish tuni“, M. Oqilovaning „Bahor“, „O'rdaklar“, „Ayiqcha“, „Quyonim“ singari she'r va qo'shiqlari shular jumlasidandir .

Zafar Diyorning „Archa qo'shig'i“ she'rda yangi yil archasi atrofida quvnab o'ynayotgan bolalar shodligi tarannum etiladi. Shuni ham aytish joizki, bu she'r o'zbek bolalar adabiyotidagi archa bayrami, yangi yil archasi tasviriga bag'ishlangan ilk asarlardandir. Chunki yangi yilni bezatilgan archa atrofida o'yinkulgi bilan kutib olish ham aslida o'sha yillarda joriy etilgan, O'zbekiston hayoti uchun esa bu umuman yangilik edi. Demak, bu ham she'riyatning hozirjavobligini, she'r qimmatini ko'rsatadigan dalillardan. She'r bolalar tilidan yozilgan bo'lib, ularning baxt, quvonch qo'shig'i kabi yangraydi:

Chaman-chaman bog'larning,
Bizlar jambil, rayhoni.
Bizning quvnoq qo'shiqlar,
Jaranglatar har yonni.

Haqiqatan ham, bolalar „chaman bog“ ning — obod Vatan-ning eng go'zal va so'lmas gullari — „jambil, rayhon“ laridirlar. Faqat ulargina „quvnoq qo'shiqlar“ aytib, „har yonni jaranglatib“, baxtli hayotni madh etishlari mumkin. Mana shu faxriyaning bolalar tilidan aytishi esa she'r samimiyyati va g'oyaviy-estetik ahamiyatini yanadi oshirgan, yosh kitobxonga to'la yetib borishini ta'minlagan. Bu fikr „Bahor“ she'rda yanada yorqinlashtirilgan. She'rning boshidan oxirigacha gul Vatan, gulzor Vatan bahorda yanada ko'rk ochishi, uning farzandlari — gul-u bulbullari erkinlikni, baxt-saodatni kuylashi o'z ifodasini topadi:

Yana gulga
 To'lgay Vatan,
 Biz qo'ynda yayraymiz.
 Gul novdaga
 Qo'nib turgan
 Bulbul kabi sayraymiz...
 Biz shu ko'rkan
 Gulbahorning
 Go'zal asl gullari...

Shu ruh — tabiat go'zalliklarini Vatan go'zalligi bilan bog'lab tasvirlash bu mavzudagi deyarli barcha she'rlarga xos bo'lgan xususiyatlardandir. Šuningdek, hayvon va parrandalarga bag'ishlangan she'rlarda ham shunga o'xshash ikki maqsad ko'zga tashlanadi. Ularning birinchisi — bolalarga hayvon yoxud parrandalarning o'ziga xosligi haqida ma'lumot berish bo'lsa, ikkinchisi — bolalarni tabiat va hayvonot dunyosiga mehribon bo'lish, ularni avaylab-asrash va ko'paytirish hamda do'st bo'lishga undashdir. Har ikkala maqsad ham aslida tarbiyaga borib taqaladi. Tarbiyaning esa quruqdan quruq pand-nasihat tarzida emas, balki go'zal badiiy shaklga solingan she'r tarzida berilishi maqsadga tezroq yetkazishi va yosh kitobxonning badiiy didini charxlashini ijodkorlarimiz to'g'ri anglay olishgan va asarlarida aks ettirishgan ham.

30-yillar va, umuman, sho'ro davri adabiyoti haqida fikr yuritganda, avvalo, badiiy adabiyot to'laligicha sho'ro siyosati manfaatlariga bo'ysundirilganini ta'kidlash joiz. Ijodkorlar xohish-istiklaridan qat'i nazar, xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi yutuqlar, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat sohalaridagi ijobiy natijalarни sho'rolar tuzumining afzallikkari sifatida madh yetishga majbur bo'ldilar. Biroq har bir ijodkor asarlari orasida tom ma'nodagi badiiyati, samimiyati, badiiy adabiyotning estetik-ma'rifiy mohiyati birinchi o'ringa qo'yilganligi bilan ajralib turadigan asarlar bo'ladiki, ular davrlar buhronidan omon-eson o'tib, bir umr kitobxonlarni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga, umrboqiy qadriyatlarni kuylashga, sharaflashga xizmat qilaveradi. Ularda ota-bobolarimizning yaratuvchilik mehnatini madh etish, yosh avlodni otalar ishiga sadoqat ruhida tarbiyalash manfaatlari yetakchi mavqe kasb etdi.

Yashna, Vatan,
 Jon Vatan,
 Senga sharaf-shon, Vatan.
 Sensan
 Bizning onamiz,
 Hadya senga jon va tan.

Ushbu misralarda shoir qalbidan jo'shib chiqayotgan ezgu tuyg'ularini yosh kitobxonga yetkazish uchun mazmunga mos shunday o'ynoqi shakl topganki, ohangdorlik, vaznlardagi hissiy ko'tarinkilik yosh qalb urishining zarblariga hamohang tushayot-ganday bo'ladi. She'rning ohangdorligini ta'minlaydigan badiiyat unsurlaridan takror san'ati „vatan“ va „sen“ so'zlarini 4 martadan takrorlash orqali yaratilgan bo'lsa; tajnis san'ati „jon“ (birinchi o'rinda ko'chma ma'nodagi, erkalashni ifodalaydigan „jonim“, ikkinchi o'rinda esa o'z ma'nosida) va „vatan“ (birinchi o'rinda o'z ma'nosida, ikkinchi o'rinda „va tan“ so'zlarini yordamida so'z o'yini ham yaratilgan) so'zlarini vositasida yaratilgan. Binobarin, ana shunday badiiyat unsurlari, bir jihatdan, ijodkor mahoratini belgilovchi qirra bo'lsa, ikkinchidan, she'rning ham shakl, ham mazmun jihatidan baquvvat, puxtaligini ta'minlagan.

Zafar Diyorning „Vatan“ deb nomlangan ushbu she'ri ikkinchi jahon urushi yillarda yozilgan. Ma'lumki, har bir davrning o'z yetakchi mavzulari bo'ladi. Bu mavzularda yaratilgan asarlar qimmati esa, avvalo, konkret davr voqeligini qay darajada jonlantira olganligi bilan o'lchanadi. Shu ma'noda ikkinchi jahon urushi davrining asosiy mavzusi — ona-Vatan madhidir. Inchunin, shu davrda yaratilgan ona-Vatan mavzusidagi asarlarda o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni tug'ilib-o'sgan, kindik qoni to'kilgan ona tuproqqa sadoqat ruhida tarbiyalash, uning har bir qarichini avaylab-asrashga o'rgatish ruhi ustuvorlik qiladi.

50 — 60- yillarda bolalar adabiyoti namoyandalari safi yanada kengaydi, ustoz shoirlar qatoriga Po'lat Mo'min, Aziz Abdurazzoq, Miraziz A'zam, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboev, Safo Ochil singari ko'plab umidli yosh ijodkorlar kelib qo'shildi. Ular bolalar she'riyatining turli janrlarida yoshlarimiz hayotini aks ettiruvchi yangi-yangi badiiy asarlar yarata boshladilar. Tinchlik, mehnat, do'stlik mavzulari bu davr bolalar she'riyatining asosiy mavzulariga aylandi. Tinchlik va do'stlik mavzusida G'. G'ulomning „Kaptar uchar, g'oz uchar“, „Ulug' kun bayrami“,

„Tinchlik bayrami“, Sh. Sa'dullaning „Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r“, I. Muslimning „Jahon bolalarining talabi“, P. Mo'minning „Yurtimizning yuragi“, Q. Hikmatning „Tinchlik haqida qo'shiq“ kabi she'rlari yuzaga keldi.

Bu davrda bolalar she'riyatiga Qudrat Hikmat o'zining „Mening Vatanim“, „Do'stlik“ she'riy to'plamlari bilan munosib hissa qo'shdi, kichik yoshdag'i bolalar saviyasiga moslab, qisqa bo'g'inli, sodda, ravon, jo'shqin misralar yaratdi. Jumladan, shoirning

Ko'kdek bepoyon
Boyliklarga kon.
Keng paxta maydon,
Mening Vatanim, —

deb boshlanadigan ona-Vatan haqidagi she'rida yosh avlodning Vatan shon-shuhratidan, mehridan g'ururlanish, faxrlanish hislari barq uradi.

Bu davrda o'zbek bolalar she'riyatida yaratuvchilik mehnati mavzusi katta o'rin egalladi. Q. Muhammadiy, I. Muslim, Q. Hikmat, P. Mo'minlar qator she'rlarida insonga shon-sharaf keltiradigan mehnatni astoydil sevishga, ardoqlashga chaqiruvchi mehnatning turli qirralari haqida asarlar yaratishga kirishdilar. Shu ma'noda Q. Muhammadiy she'rlari o'ziga xosligi bilan ajralib turdi. „Gulbahorning ko'ylagi“ she'rida lirik qahramon Gulbahor obrazini chizish orqali katta mehnat jarayonini tasvirlashga erishdi. Gulbahor havorang olma gulli ko'ylagining matosiga qancha mehnat sarf bo'lganini o'zi bilarmikan? Shoir ana shu ko'ylyak bunyod bo'lguncha sarflangan mehnatni tasvirlash orqali yosh kitobxonlarda mehnatga hurmatni shakllantirish, mehnatsevar bo'lib voyaga yetish maqsadlarini ilgari suradi. Uning „Usta Solijon“ she'rida taxtayog'ochga jon kiritgan yosh usta Solijonning jonli obrazi yaratiladi. „Turna qator“ tizilib turgan shkaf-stollarning hammasi Solijonni

Zehn-u havasing namoyishi bu,
Mehnat san'ating oroyishi bu, —

degan xulosaga olib keladi. Shoir Solijondagi mehnatga, hunarga bo'lgan mehrni olqishlaydi, yoshlarni o'z halol mehnatlari bilan mo'jizalar yaratajaklariga rag'batlantiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, barcha davrlar bolalar she'riyatida kattalar she'riyati yetakchi namoyandalarining ham o'z o'rni

bo'lib, 50 — 60- yillar o'zbek bolalar she'riyati taraqqiyotini ham G'afur G'ulom, Asqad Muxtor, Shuhrat, Mirtemir, Uyg'un singari ustoz shoirlar asarlarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Jumladan, G'afur G'ulom bolalar uchun yaratgan asarlarining o'ziga xos bir jihatni ulardagi hayotga endigina kirib kelayotgan yosh bola timsolining mohir musavvir qalamiga mansub shakl va yo'sinlarda tasvirlanishida namoyon bo'ladi. Shoir „Qushchalar she'ri“, „Dadam va men“, „O'y lashni o'rganamiz“, „Kekkaymachaq Sobirjon“, „Ahmadjon — fotograf“, „Chaqchaqlashaylik“ she'rлarida yosh bolaning o'ziga xos ma'sum, beg'ubor, samimiy dunyosini mahorat bilan yaratishga erishgan.

Har bir davr adabiyoti ma'lum ma'noda shu davr ijtimoiy-siyosiy hayotining o'ziga xos badiiy in'ikosi bo'lar ekan, 70 — 80- yillar o'zbek bolalar she'riyatini shu ma'noda dolg'ali, qasirg'ali davr she'riyati deb baholash mumkin. Zero, 70 — 80-yillarning birinchi yarmida hurfikrlilikning keskin bo'g'ilishi dastlab badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda majoziy fikr kuchayishi, ijodkorlar dardlari imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga ko'chishi bilan xarakterlansa, 80- yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi badiiy adabiyotda tom ma'nodagi erksevarlik tuyg'ularining ochiq-oydin namoyon bo'lishiga olib keldi.

Binobarin, 70 — 80- yillar o'zbek bolalar adabiyoti, xususan, she'riyati zimmasiga istiqlolimizning ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yaratishi kerak bo'lgan yosh avlod ma'naviyati poydevoriga ilk g'ishtlarni qo'yish mas'uliyati tushdi. Bundan tashqari, 70 — 80-yillarga kelib, o'zbek bolalar adabiyoti she'riyatida ijodiy kamolot pillapoyalaridan tobora yuqorilab borayotgan navqiron avlod safiga bir qator umidli yosh qalamkashlar ham qo'shildilarki, bu omillar birgalashib, bolalar adabiyoti she'riyatini badiiyatning yanada yuqoriroq pog'onalariga olib chiqdi.

T. Adashboyev, S. Barnoyev, Miraziz A'zam, Anvar Obidjon, Rauf Tolipov, Q. O'tayev, A. Ko'chimov, Rustam Nazar, H. Imonberdiyev, K. Turdiyeva, S. Inoyatov, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Z. Isomiddinov, O. To'xtashev singari o'rta va yosh avlod namoyandalari 80- yillar o'zbek bolalar she'riyatiga yangi nafas, toza ruh olib kirdilar. Bu avlod o'zbek bolalar she'riyatini badiiyatning yangi pog'onasiga ko'tardi, mavzu doirasini kengaytirdi, obrazlar silsilasini boyitdi. Ularining sa'y-harakatlari tufayli badiiyat masalasi asosiy o'rinni egalladi.

Binobarin, nomlari sanaigan va ular qatoridagi boshqa o'nlab ijodkorlar qalamiga mansuo eng sara asarlar 70 — 80- yillar o'zbek bolalar adabiyotining haqiqiy qiyofasini belgilaydi.

A. Obidjonning nimkulgi bilan yo'g'rilgan she'rлaridagi kulgi, aslida, asarning birinchi qatlami, xolos. Zukko kitobxon bu she'rлardagi ko'chma ma'nolarni darrov ilg'aydi, shirin kulgi qatlaridan ko'z yoshining sho'r ta'mini sezadi.

T. Adashboyevning o'lkamizning tarixiy joylari va betakror tabiatи tasviriga bag'ishlangan she'rлarida ona-Vatan, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproqqa mehr-muhabbat tuyg'ulari ming yillik qadriyatlarimizga shu qadar samimiyat bilan yo'g'rilganki, bu dilnavoz satrlar yosh kitobxon qalbiga bir o'qishda jo bo'ladi.

H. Imonberdiyev she'rлaridagi hazilkash, ozgina shirinlikka o'chroq, ozgina o'yinqaroqroq, ozgina yalqovroq bolakaylor ham yosh kitobxonlarga begona emas, bu „qahramon“lar qiyofasida ular darrov o'zlarini tanib oladilar.

A. Akbar she'rлarida esa biz yanada o'zgacha qahramonga duch kelamiz. Bu og'ir-bosiq, o'ychan, vaqtidan ilgariroq ulg'ayib qolgan bolakaylor qalbidagi dardlar ayni 70 — 80- yillar bolalarining o'y-fikrlariga eshligi bilan ham shoir qalamidan to'kilgan samimiy tuyg'ular in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

70 — 80- yillarda chop etilgan bolalar she'riyati namunalarini bir yerga jamlasak, son jihatidan salmoqli manzara ko'zga tashlanadi. Bu davrda nashr qilingan she'riy kitoblarning umumiy miqdori ikki yuzdan ortadi. Ular orasida oqsoqol ijodkorlarning asarları ham, o'rta avlod vakillarining she'riy to'plamlari ham, adabiyot maydoniga endigina qadam qo'yayotgan yosh qalamkashlarning dastlabki mashqlari ham, turli ijodkorlar asarlaridan tarkib topgan to'plamlar ham bor.

Miqdor jihatidan bu manzara, ehtimol, qanoatlanarlidir, O'zbekistondagi bolalar soni bilan taqqoslasak, ehtimol, kamdir. Biroq gap sonda emas, sifatda, ushbu asarlarning badiiyat darajasida. Qiyos uchun bir misol: „Majolis un-nafois“ tazkirasida ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy o'zigacha yashab, ijod etgan va zamondosh ijodkorlardan saltak besh yuztasini tilga oladi. Biroq ana shu besh yuzga yaqin qalamkashlardan qanchasining asarları davrlar suroniga bardosh berib, bizgacha yetib keldi, badiiy qimmati nuqtayi nazaridan bir nechalab avlod o'zbek kitobxonlarining badiiy idrok tuyg'usini o'stirishga, ma'naviyatini shakllantirishga

xizmat qila oldi?! Ushbu ritorik savol, ayni paytda, barcha davrlarda yashab, ijod qilgan shoir-u nosirlar asarlariga ham bab-baravar tegishlidir. Binobarin, har bir davrda o'nlab, yuzlab ijodkorlar yashaydi, baqadrihol qalam tebratadi. Biroq hech qachon ular yaratgan barcha asarlar badiiyatning ulkan talablari posangisini birday ko'tarolmaydi. Balki bitilgan o'nlab, yuzlab asarlar orasidan barmoq bilan sanarlilari tom ma'nodagi badiiyat mahsuli o'laroq, haqiqiy kashfiyat sifatida adabiyotimiz xazinasida o'zining munosib o'rmini topadi, adabiyotimiz tarixining va inchunin, xalqimizning mangu barhayot ma'naviy mulkiga aylanadi.

Bu o'rinda shuni ham qayd etish kerakki, 70 — 80- yillar o'ziga xos bir davr — ijtimoiy-ma'naviy qarashlarning o'zgarishi, yangilanishi davri hamdir. Binobarin, ana shu — ma'naviyatimizdagi tub o'zgarishlar ijodkorlar oldiga ham ulkan talablarni qo'ydi. Bir paytlarda madh etilgan, ko'kka ko'tarilgan ko'plab mavzularni hayotning o'zi siqib chiqardi, ortiqcha narsa sifatida bahridan o'tdi. Inchunin, 70 — 80- yillar shu ma'noda uyg'onish, tozarish fasli hamdir. Shu davrda xalqimiz tom ma'noda uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaytdi. Ana shu jarayonda o'zbek bolalar she'riyatining ham kamtarona o'rni, o'ziga xos xizmati bor. Bu davr bolalar she'riyatining eng sara namunalari shu ma'noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg'ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma'nodagi ona-Vatan — kindik qoni to'kilgan muqaddas Zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiatи — qir-adirlarini, tog'-u o'rmonlarini, bog'-rog'larini, daryo-yu ko'llarini avaylab-asrashga, kun sayin ko'z o'ngimizda qurib, yo'qolib borayotgan yakka-yu yagona dengizi — Orolni saqlab qolish uchun kurashish tuyg'ularini shakllantirishga; „O'zbekiston“ deb atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari — mutafakkir olim-u shoirlari, ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdlorlari sha'niga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda H. Imonberdiyevning „Alla“ she'ridagi quyidagi misralar beixtiyor yodga tushadi:

— Ana, Bo'ri kelyapti!
Uxlay qol, ovunchog'im.
Qo'y shunday deb qo'rqtib,
Uxlatar qo'zichog'in.

— Vuy. anovi ilonni!
 Uxla tez, bolajonim, —
 Chumchuq shunday qo'rqtib,
 Uxlatar palaponin.

— Uxla, Olabo'ji-yov
 Ko'rsatgan qorasini. —
 Odam shunday qo'rqtib,
 Uxlatar belasini.

Ona Burgut allalar:
 — Uxla, kuchga to'lib o's.
 Ushbu tog'-tosh, osmonning
 Hukmdori bo'lib o's!

Pisand etmay xatarni
 Shundanmi palaponi,
 Tushlarida charx urar
 To'ldirib keng samoni.

Nazarimizda, ushbu kichik she'r katta tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek bolalar adabiyoti mustaqil O'zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod tarbiyasiga mas'ul ekan, farzandlarimizning erksevar, mard, komil insonlar bo'lib yetishivi yo'lida doimo baland pardalarda yangramog'i kerak. Toki ijodkorlarimizning har bir asari yosh kitobxon qalbida ezzulikning, insoniylikning bir niholi ildiz otishiga xizmat qilsin. Ana shundagina bolalar adabiyoti o'z missiyasini muvaffaqiyat bilan ado etgan bo'ladi.

H. Imonberdiyevning ushbu she'ri, dastavval, shu jihat bilan e'tiborga molik. Zero, Ona Burgut palaponining qalbiga „ushbu tog'-tosh, osmonning hukmdori bo'lib o'sish“ ni go'dakligidan alla bilan singdirayotganligi sababli burgutchcha hatto tushida ham keng samoni to'ldirib charx uradi. Inchunin, mustaqil yurtimizning kelajagi bo'lmish farzandlarimiz ham bolalikdan o'zlarining shu aziz Vatan egalari, uning baxt-saodatini, porloq kelajagini yaratuvchilar ekanliklariga komil ishonch ruhida tarbiyalanmoqlari lozim.

Bular — masalaning ijtimoiy, ilmiy va amaliy jihatlari. Biroq uning estetik jihatni ham mavjud. Zero, She'riyat — Ona qadar

pokiza xilqat, Ona qadar beg'ubor go'zallik, Ona qadar mehribon va talabchan murabbiyidir. Sevimli shoirimiz A. Ori povning dil qa'ridan otilib chiqqan „Onajonim, she'riyat“ degan nidosi shu bois ham she'riyatga oshno qalblarga aziz-u mo'tabar. Darhaqiqat, she'riyatga oshno qalblar go'zallikni his qiladi, go'zallikdan zavq oladi, bunday qalbning o'zi ham go'zal bo'ladi. Ana shu ma'noda 70 — 80-yillar o'zbek bolalar she'riyatining eng yaxshi namunalarini hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yosh avlodning pok qalbini go'zallik nuri bilan munavvar qiladi, bu beg'ubor qalblarga ezgulik urug'ini sochadi, ularni go'zal ona-Vatanimizning porloq kelajagini yaratuvchi tom ma'nodagi komil Insonlar qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli ishga o'zining xolis hissasini qo'shadi.

O'zbek bolalar she'riyatida Vatan mavzusi, yuqorida qayd etilganidek, bolalar adabiyotining ilk qadamlaridan boshlanadi. Shoirlarimiz dil tug'yonlarining eng baland pardalarini doimo aziz-u mukarram ona-Vatan vasfiga bag'ishlaydilar, uning go'zalliklarini to'lib-toshib madh etadilar. Zero, Vatan Ona qadar muqaddas, Ona qadar mukarram, Ona qadar musaffodir. Vatanning noz-nc'matlari, boyliklari qanchalik qadrli, bog'-u bo'stonlari, gulzor-u chamanzorlari qanchalik go'zal bo'lsa, tog'-u toshlari, cho'l-u biyobonlari ham shunchalar go'zal va qadrlidir. Binobarin, vatanparvar shoir Vatanning qahraton qishidan ham, gullarga burkangan bahoridan ham, jazirama yozidan ham, to'kinsochin kuzidan ham birday go'zallik izlaydi va kashf qiladi:

Eman bargi tovusning
Quyrug'iday serhasham.
Kiyik yurgan so'qmoqlar –
Qirda yo'l-yo'l beqasam.

Ayiq qorga yo'l oldi,
Piymasini ivitgan.
Quyon po'stin tikibdi
O'ziga oq tivitdan.

Yashil taroq archalar
Keng yozib qulochini,
Erinmasdan shamolning
Tasar paxmoq sochini.

Ona-Vatan tabiat oshuftasi T. Adashboyevning „Chilla chiqib“ sarlavhali ushbu she'rida Vatan qishining mukammal manzarasi chizilgan.

She'riyatning go'zalligi shundaki, shoir biz har kun ko'rib yurgan, biz uchun odatdagi narsaga aylanib qolgan tabiat manzaralarini o'zgacha ko'z bilan ko'radi: biz uchun shunchaki daraxt bo'lib tuyiladigan eman bargining tovus dumiday go'zal, hashamdorligini kashf qiladi, kiyik yurgan so'qmoqlarning oppoq qorga burkanib yotgan qirlarda beqasamning yo'l-yo'l chiziqlariday tovlanishini idrok etadi; uning nazdida archa daraxtlari qulochini keng yoyib, betizgin shamolning paxmoq sochlarni erinmasdan yashil taroqlari bilan tarayotgan odamga aylanadi. Nazarimizda, xuddi ana shu betakror, kutilmagan o'xshatishlar she'rga jon baxsh etadi, yosh kitobxon ko'z o'ngida Ona tabiatning jonli, mukammal manzarasini yaratadi, tabiatning har bir sahifasi, jumladan, dov-daraxt uyquga cho'mgan, hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan, issiq uuda o'tirib o'qiyotgan kitobingdagi tasviriyoy etingni junjiktirib yuboradigan qahraton qish ham yosh kitobxon ko'z o'ngida o'zgacha qiyofada aks etadi, yashirin go'zalligini namoyon qiladi, G'afur G'ulom aytmochi, „Biz uchun qadron qish“ga aylanadi.

Shoirlarimiz ona-Vatan tabiatining oshifta kuychisi sifatida o'z she'rlarida bu aziz Vatan tabiatining rango-rang manzaralarini yaratish ekanlar, shu bilan bir qatorda, ulkan ma'naviy-ma'rifiy vazifani ham bajaradilar. Zero, bolalar adabiyoti mustaqil O'zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga ham mas'uldir. Erta-indin ulg'ayib, jazirama issig'-u qahraton qishni pisand qilmay, kechani kecha, kunduzni kunduz demay, Vatan sarhadlariga posbonlik qiladigan bo'lg'usi vatanparvar askar yigitlar ham, Vatan tuprog'ini gullab-yashnagan bog'-u bo'stonga aylantiruvchi fidokor dehqon ham, xullas, o'z halol mehnatini ona-Vatan baxt-saodatiga baxshida etadigan barcha kasb egalari bo'lmish insonlar ushbu ijodkorlar asarlarini o'qib, tom ma'nodagi vatanparvarlar bo'lib yetishadilar. Ona-Vatan go'zalligini madh etuvchi xuddi ana shunday she'rlar yosh kitobxon qalbini go'zallikka oshno qiladi. Go'zallik tuyg'usi bilan to'liq qalblar esa vayron qiluvchi emas, balki yaratuvchi bo'ladilar.

Bolalar uchun yaratilgan she'riy asarlarda tabiat manzaralari, hayvonot-u nabotot tasvirlari sezilarli o'rin egallashi beziz emas.

Bu tasvirlarda yosh kitobxonni, avvalo, Ona tabiat bilan tanishtirish, oshno qilishdek ezgu niyat bor. Zero, tabiatning barcha go'zalliklari, barcha ne'matlari, dastavval, Inson uchun ekanligi ham shubhasizdir. Inson o'z nomi bilan tabiatning farzandi; yer usti-yu ostidagi, suv-u havodagi barcha ne'matlar bani Odamning rizq-nasibasi. Bolalar she'riyatida Inson tasvirining yetakchi mavqe kasb etishi ham aslida shundan. Dilshod Rajabning „O'zbek“ she'ri ana shu Inson, xalq tasviriga urg'u berilgani bilan ham e'tiborga loyiqidir. She'rning dastlabki satrlaridanoq bag'ri keng o'zbek qiyofasiga chizgilar chizila boshlaydi:

Sig'masa ham o'zi, do'stga
Jogi bor uning,
Yo'lovchiga „Bir piyola –
Choy“i bor uning.

Darhaqiqat, o'zbek qiyofasini belgilovchi qirralar, avvalo, uning bag'ri kengligi bilan bog'liqdir. Serfarzand, bolajon o'zbek bola-baqralari bilan o'zi uyiga zo'rg'a sig'ib turgan bo'lsa-da, mehmonni „atoyi xudo“ deb biladi, uyining to'rini mehmonga bo'shatib beradi, qozoniga har kun bir parcha go'sht tashlashga qiyntalsa-da, mehmonning oyog'i ostiga qo'y so'yadi. Hatto ko'chadan o'tib ketayotgan yo'lovchiga ham albatta bir piyola choy taklif qiladi.

Egatlardan topgan qaddi —
Yoyi bor uning,
Har yil yozda imorati,
Loyi bor uning.

O'zbek qiyofasini belgilovchi yana bir xarakterli qirra uning mehnatsevarligidir. O'zbek erta bahordan kech kuzgacha tinim bilmay, dalada halol mehnat qiladi, bola-chaqasini peshana teri bilan topgan halol daromadi hisobidan boqadi. Binobarin, o'zbek uchun „halol mehnat“ tushunchasi qanchalik xarakterli bo'lsa, „halol daromad“ tushunchasi ham u bilan bab-baravardir. Shu sababli ham o'zbekning qaddi og'ir mehnatdan egik bo'lsa-da, qalbi pok, ko'ngli ochiq. Mehnatsevar o'zbek faqat dalada mehnat qilibgina qolmaydi. U o'zining huzur-halovatini emas, bola-chaqasining kelajagini o'ylaydi. O'g'il uylantirish, qiz chiqarish, xalq oldiga dasturxon yozib, oq fotihasini, duosini olish o'zbek

uchun eng katta boylik. Shu boisdan ham u har yil yozda loy qilib, imorat quradi — bola-chaqasining baxtli kelajagini ta'minlaydi. Chunki:

O'g'il-qizi — yorug' yulduz,
Oyi bor uning,
O'chmas izi, bosadigan
Toyi bor uning.

Binobarin, „Ot izini bosadigan toylar“i, „oy-u yulduz“lari uchun mehnat qilishdan o'zbek hech qachon charchamaydi va ana shu tuyg'u — bolajonlik ham ajdoddan avlodga ming yillar davomida aziz-u mukarram meros bo'lib o'taveradi. Shu bois ham o'zbekning doimo chehrasi ochiq, bag'ri ochiq, dasturxonи ochiq. Shu bois ham yaratganning o'zi bu jannatmakon diyorni o'zbekning makoni qilib yaratgan. She'rning oxirgi misralari:

Do'ppisini ko'kka otib
Shodlansa arzir,
O'zbekiston degan jannat
Joyi bor uning

satrlari bilan yakunlanar ekan, bunda shoirning ana shunday ulug' el farzandi ekanligidan faxr va g'urur tuyg'ulari yangraydi. Ulug' xalqimiz sha'niga bitilgan qanchadan qancha faxriya-yu madhiyalar safida kichkintoy kitobxonlarga mo'ljallangan ushbu mo'jaz she'ming ham o'z o'rni bor. U yosh kitobxon qalbida g'urur-u iftixon tuyg'ularini uyg'otadi, o'zligini belgilashga xizmat qiladi.

Yuqorida 70 — 80- yillar bolalar she'riyatida ramzlar, timsollar kuchaygani va uning ba'zi sabablari haqida fikr yuritgan edik. Anvar Obidjon she'rlari, ayniqsa, bu borada alohida ahamiyatga molikdir. Uning she'rlarida istibdod tig'i ostida bo'yni egilgan bo'lsa-da, erk his-tuyg'ulari qalbini tark etmagan xalqimiz timsoli ramzlarga o'ralgan holda tasvirlanadi. „Kumush uy“ turkumidagi „Yaylovni sog'ingan qo'y“ she'ri ana shunday asarlardandir. Avvalo, turkum nomiga e'tibor beraylik. Aslida „Kumush uy“ning o'zi ham Vatan ramzi. Zero, Ipak qurti qurgan eshigi-derazasi yo'q kumush uy aslida xalqimizni yetmis yil tentiratgan kelajagi qorong'u, xayoliy sotsialistik tuzum, „Yaylovni sog'ingan qo'y“ esa istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni to'q bo'lsa-da, qadri yo'q, boshi egiklar timsoli:

— Ishlar qalay, —
 Desam, qo'y
 Javob berdi
 Surib o'y:

— Kamchilik yo'q
 Oziqdan...
 Bezar bo'ldim
 Qoziqdan.

„Yantoqlar haqida qo'shiq“ ozodlik, erk uchun kurash tuyg'ulari yetakchilik qilishi bilan e'tiborga molikdir. „Suvsizlikdan so'imasdan, garmseldan jon saqlab, yovuz sahroni yengib“ yashayotgan „yantoqlar“ ham aslida xalq ramzi. Garchi u „yovuz sahro“da „suvsizlikdan so'lish“ga, „garmesel“ning o'tli shamollari ta'sirida asta-sekin o'limga mahkum qilingan bo'lsa-da, biroq „yantoqlar“ning chuqur o'mashgan, mustahkam ildizi har qanday sharoitda ham yashash uchun kurashga chorlaydi, shu bois ham yantoqlar doimo gullaydi, meva tugadi, kelajak avlodni yaratadi. Binobarin, zukko kitobxonning sinchkov nigohi bu she'rda xalqimizning istibdod tig'i ostida o'tgan keyingi yuz yildan ortiqroq davr mobaynidagi tarixi ramziy yo'sinda aks ettirilganini darrov payqab oladi. Shoir:

Ezib o'tdi yilqilar,
 Ezib o'tdi nortuya,
 Tiklandingiz qaytadan
 Olamda biz bor, deya,
 Balli sizga, yantoqlar!

Yancholmadi bo'ronlar,
 Kuymadingiz otashdan.
 G'animlar ham hayrondir
 Bunday chidam, bardoshdan,
 Balli sizga, yantoqlar!

der ekan, bu misralardagi „yilqilar“ va „nortuya“ ham yurtimizga bostirib kelgan turli g'animlar timsoli yanglig' namoyon bo'ladi. Chingizzon suvoriyalarining yilqilari va arablarning tuyalari oyog'i ostida ezilgan, toptalgan xalqimiz o'zini baribir tiklab olgani,

uni turli taloto‘plarning bo‘ronlari-yu otashlari ham yo‘q qilolma-ganidan hatto g‘animlarning o‘zлari ham hayronliklari ishonarli tasvirlangan. Ehtimol, yosh kitobxon bu imo-ishoralar, ramzlarni to‘la tushunmas, biroq masal ko‘rinishidagi (ramzlar, timsollarga asoslangan) asarlar shunisi bilan ham xarakterlik, ulardan har bir kitobxon o‘ziga kerakli narsani uqib oladi. Barcha yoshdagi kitobxonlarga mo‘ljallangan bunday asarlar shu boisdan ham mazmunan ko‘p qatlamlili bo‘ladi.

Bugungi istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyati namunalariga ko‘z tashlar ekanmiz, ular orasida navqiron avlod namoyandalari asarlari alohida o‘rin tutishidan ko‘z quvonadi. Zero, bu ulush, dastavval, soni bilan emas, sifati bilan salmoqlidir. Bolalar adabiyoti kelajagiga umid baxsh etadigan navqiron avlod vakillari, yaratganga shukrki, madhiyabozlik, shiorbozlik ruhida qalam tebratish majburiyatidan xolidirlar. Ularning asarlari kitobxoni o‘ylashga, mustaqil fikrlashga majbur qiladi, qadriyatlar deb kelingan narsalarini qayta baholab, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishga o‘rgatadi. Abdurahmon Akbar she’rlarini o‘qir ekansiz, uning ham ana shu safda sobit ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

Bolalar adabiyoti, ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan asarlarning o‘ziga xosliklari xususida gap ketganda, avvalo, hayrat tilga olinadi. Zero, bu ko‘hna olamdagи barcha narsalar — hayvonot-u nabotot, bashariyat va insoniy munosabatlar silsilasining har bir zarrasi har bir bolakay uchun qayta yaraladi. Shu sababli ham bolakay qishda so‘ppayib turgan daraxtlarning bahorda birdan yam-yashil barg chiqarib, oppoq qorday gulga burkanishidan cheksiz hayratga tushadi. Shu sababli ham u hamma narsaning mohiyatiga tushunmoqni istaydi. Shu sababli ham uning savollari hadhududsiz, bitmas-tuganmas. Ana shu bijir-bijir savollari bilan Sizni gangitib qo‘yadigan bolakay, ayni zamonda, eng buyuk tilshunos hamdir. U har bir narsaning nomini o‘rganar ekan, uni shunchaki qabul qilib qo‘ya qolmaydi, balki har bir ism jismga mos bo‘lishini ham talab qiladi.

Abdurahmonning she’rlarini o‘qir ekansiz, ana shu bijildoq bolakay har qadamda oldingizdan chiqaveradi. Ulardan biri

Shuhratjon degan yigitcha. U „Bir daftar savol“ tuzib, ularni o‘zicha „Bekatda tug‘ilgan savollar“, „Yo‘lda tug‘ilgan savollar“, „Maktabda tug‘ilgan savollar“, „Uyda tug‘ilgan savollar“ singari turli guruhlarga ham ajratib olgan. O‘sha savollardan ba’zilariga quloq tuting:

„Gulzor“ deb atalgan bu keng bekatning
Atrofida nega gul o’smas? —

deb o‘z-o‘ziga savol beradi bolakay bekatda turganida. Chunki uning nazdida (va aslida ham) ism jismga mos bo‘lishi kerak edi-da!

Bobongizdan so‘raganmisiz
Bobosining kim bo‘lganini? —

deb o‘ylaydi bola maktabda.

Dada, dada, o‘zbek degani
O‘ziga bek deganlarimi? —

deb so‘raydi bola uyda dadasidan.

Bu savollar shunchaki savol emas, aslida ularning har biri katta ma’naviy-ma’rifiy mohiyat kasb etadi. Chunki aslida ham bobosining bobosi kim ekanligini biladigan bolalar yurtimizda necha dona ekan?

„O‘zbek o‘ziga bek deganlarimi?“ savoli esa ommaviy axborot vositalari — gazeta-jurnal va teleradioeshittirish mahsuli. Bugungi — ma’naviy uyg‘onishimiz tongi bolakaylar ongini ham uyg‘otyapti. Zero, bobomizning bobosi kim bo‘lganini bilish millat sifatida kamol topishimizga yordam bersa, o‘zbekning kimligini aniqlash shajar daraxtining o‘qildizi qurib qolmasligi kafolatidir.

Binobarin, yuqorida tilga olingan she’rlar ham kelajagimiz yaratuvchisi bo‘lmish yosh avlodni xalqimizning mangu barhayot an’analariga sodiq ruhda tarbiyalashga, ma’naviy-ruhiy kamolot sari yetaklashga xizmat qilishi bilan qadrli va bugungi istiqlol ma’naviyati manfaatlariga xizmat qilishi bilan zamonaviy bolalar adabiyotida o‘z o‘rniga egadir.

O‘zbek bolalar she’riyatiga mustaqillik yillari davomida kirib kelgan Xudoyberdi Komilov, Ma’mur Qahhor, Ne’mat Dushayev, Yusuf Miryusufzoda, Ravshan Isoqov, Vali Ahmadjon, Qo‘zi Ismoil, Dilmurod Jabbor kabi ijodkorlardan umidimiz katta.

O'zbek bolalar she'riyati tom ma'noda XX asr boshlarida tug'ildi, bir asr davomida unib-o'sdi, jahon bolalar adabiyotining eng sara namunalaridan o'rgandi, mumtoz adabiyotimizning barhayot an'analarini davom ettirdi, ya'ni o'z milliy zaminida rivojlandi, ma'lum bir taraqqiyot bosqichlariga erishdi, professional ijodkorlariga ega bo'ldi. Bu she'riyatning eng sara namunalari bugungi kunda jahon bolalar adabiyotining oltin fondiga kiradigan asarlar bilan bemalol bo'ylisha oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Eng asosiysi, u o'z zimmasiga yuklatilgan muqaddas va mas'uliyatli vazifa — kelajakni yaratishi kerak bo'lgan tom ma'nodagi komil insonni shakllantirish manfaatlariga doimo sadoqat bilan xizmat qildi va qilyapti. Demak, bu adabiyotning kelajagi yanada porloq bo'ladi, deyish uchun ham to'la asos bor.

Rahmatilla BARAKAYEV,
filologiya fanlari nomzodi



Abdulla **AVLONIY**

(1878—1934)



Abdulla Avloniy 1878- yilning 12- iyulida Toshkent shahrida tug'ildi. U yoshlikdan mustaqil mutolaa bilan shug'ullanib, o'z bilimini oshirib bordi. 1907- yildan matbuot ishlarida faol ishtirok eta boshladi. 1909—1917- yillar Avloniy ijodiy faoliyatida katta burilish yasadi. U „Shuhrat“ gazetasini va „Tong“ jurnalini tashkil etishda, „Jamiyati xayriya“ni ochishda yetakchilik qildi.

A. Avloniy „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ nomli to'rt qismidan iborat to'plamning birinchi kitobini, „Birinchi muallim“ va „Ikkinchi muallim“ deb nomlangan o'quv kitoblarini chop ettirdi.

Abdulla Avloniy o'ttiz yildan ortiqroq badiiy ijod bilan shug'ullandi. Uning madaniyatimiz tarixiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya borasidagi ishlari ibratlidir. U Davlat ilmiy kengashida, Terminologiya qo'mitasida, bir necha nashriyotlarda xizmat qildi. 1931- yilda O'rta Osiyo davlat universitetining „Til bilimi“ kafedrasida professorlikka tasdiqlandi. 1933- yilda A. Avloniy o'rta maktablarning 7-sinfi uchun adabiyot majmuasini tuzdi. Uning ta'limiy-axloqiy asarlari orasida „Turkiy guliston yoxud axloq“ kitobi alohida ahamiyatga egadir.

VATAN

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
 Har kim sening qadring bilmas — aqli pas(t)dur.
 Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,
 Sening darding boshqa dardni tortib olur.
 Yering, suving bizni boqub to'ydiradur,
 Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.
 Olma-anor, anjir, uzum — mevalaring,
 Ot-u ho'kuz, echki, taka, tevalaring.
 Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
 Har birlari noz-u ne'mat parchalari,
 Sendan tug'ib, katta bo'lub, qaytib borub,
 Yana senga kiradurmiz bag'ring yorub.
 Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
 Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!
 Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,
 Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla!
 Bizlar sotmas burun qilur erdin faryod,
 Biz sotgan so'ng nega dersan bizlardan dod.
 Ayb bizlarda, seni sog'ub emolmaduk,
 Yemush berib yem o'rniga yem olmaduk.
 Bilolmaduk ko'ksingdag'i xazinani,
 Biz bilmasmiz tosh-tarozu, mazinani.
 Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botib,
 Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.
 Seni sotub pul qilurmiz — ketur-qolur,
 Bir yildan so'ng bahong ikki bo'lub olur.

BAHOR

Avval bahor bo'lsa, kulur chamanlar,
 Bargak yozur gullar, g'uncha dahanlar.
 Barcha qushlar uchar, o'qur chamanda,
 Bog'-u bo'ston, tog'-u sahro, o'rmonda.
 Yaylovlarda qo'zichoqlar mag'rashur.
 Ovozlari yuraklarni dog'lashur.

Har tarafdan suvlar shildirab oqar,
 Shildiragan tov (u)shi odamga yoqar.
 G‘ir-g‘ir shamol yelpillatur gullarni,
 Gul tebranub sayratur bulbullarni.
 Har narsada shodlig‘ asar ko‘rilur,
 Ko‘kmak bo‘lub beda-pichan o‘rilur,
 Ekinchilar har xil oshliq ekarlar,
 Tuxumlarin yerni haydab tikarlar.
 Dangasalar bo‘lar-ketar, deb yotur,
 Qish kunida ot-u to‘nini sotur.
 Ko‘b ishlagan ko‘b olur, oz ishlagan — oz,
 Qish kuni rohatdadur, kim ishlasa yoz.
 Har kim nima eksa, albatta, shuni o‘radur,
 Ekmaganlar o‘zgalarg‘a muhtoj bo‘ladur.
 Keling, biz ham ekinimiz boshlab ekamiz,
 Imtihonda ekg‘animiz o‘rib-yig‘amiz.
 Har kim avval bahorini o‘tkarsa bekor,
 Yoz kelganda Hijron bo‘lur, ul—tangri bezor.

YOZ

Yozda pishar barcha ekin, mevalar,
 Shod bo‘lur zor yetim-bevalar.
 Har yerga borsang, hama ma‘murchilik:
 Handalag-u tarbuz-u qovun-tilik.
 Yer gunasha yaqin o‘lub nur olur,
 Yerga muhabbatli ziyyosin solur.
 Har kishi o‘z nafsi uchun ishlagay,
 Ishlamagan qishda nima tishlagay?
 Bog‘lari, bo‘stonlari rang-barang,
 Mevasi-yu gullariga bir qarang.
 Gullari, bulbullari bor, bog‘lari,
 Qo‘ylari, qo‘zichoqlari bor, tog‘lari,
 Sutlar-u qaymog‘-qimizlar serob,
 Suvlar oqur soylar aro sharqirab.
 Bir taraf(d)a ekinchi — xirmonchilar,

Bir taraf(d)a o'roqchi, ketmonchilar,
 G'ayratlilari g'amini yer vaqtinda,
 Tirishub ishlaydur g'animat kunda.
 Ishyoqmaslar yozda yurur guldurab,
 Qish kelganda qolgay ko'zi mo'ldurab.

KUZ

Kuz kuni ko'zlara yamon ko'rur,
 Yafrog'i misli za'faron ko'rur.
 Meva o'rniga bog'-u bo'stonda
 Shaldirab qaqhagan xazon ko'rur.
 Gullar o'mnida xor ila xashak,
 Bulbul o'mnida zag'izg'on ko'rur.
 Ketgay Odam Atoni jannatidek,
 Jo'ylari bir sovuq yilon ko'rur.
 Yozni ko'rding, kuzni ham ko'rasan,
 Shodlig' ortidan fig'on ko'rur.
 Har kishi foyda ko'rmagay doim,
 Sud orqasidan ziyon ko'rur.
 Yig'lagan shod o'lur, kulgan yig'lar,
 Har daqiqa bo'lak zamon ko'rur.
 Aylanub-jaylanub o'ta(r) bu zamon,
 Keti avvalgidan yamon ko'rur.
 Qish kelur boshinga qilich ko'tarub,
 Qalqoning paxtalik chapon ko'rur.
 Yoz ishlamading, sen ishyoqmas,
 Yig'mading don — poxol-u somon ko'rur.
 Ko'zlarining joydirar yeganga boqib,
 Ishchi oldinda osh-u non ko'rur.
 Yoz ko'zim, yoz xating(n)i, tez-tez yoz,
 Yoz — omon, kuz — omon, omon ko'rur.





Hamza Hakimzoda

NIYOZIY

(1889—1929)



O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889- yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan.

Hamzaning „Oq gul“, „Qizil gul“ singari turli gullar nomi bilan ataluvchi to'plamlaridagi ko'plab she'rlar o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining nodir namunalari sifatida e'tirof etilgan. Uning ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlaridan tashqari, an'anaviy g'azallari va dramatik asarlari ham kitobxonlar orasida keng tarqalgan.

Hamza o'zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishiga katta hissa qo'shdi. Uning o'zi tashkil qilgan yangi usul maktablari talabalari uchun yaratgan „Yengil adabiyot“, „O'qish kitobi“, „Qiroat kitobi“ nomli o'qish kitoblariga kiritgan ko'plab she'r, hikoya va masallari ilm-ma'rifatga chorlovchi, ta'limiy-ma'rifiy ahamiyatga ega asarlar hamda o'zbek bolalar adabiyotining dastlabki namunalari sifatida bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Ayniqsa, o'quv qurollari madhiga bag'ishlangan bir qator asarlari hamda „Bolaning yomon bo'lmoshiga sabab bo'lgan onaning jazosi“ hikoyati, an'anaviy mavzu asosida yaratilgan „Toshbaqa birla chayon“ masali bolalarbopligi bilan e'tiborlidir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy birinchilardan bo'lib „O'zbekiston xalq shoiri“ unvoniga sazovor bo'lgan.

QALAM

Man qachon mактабга keldim oshno qildi qalam,
Bora-bora aql-u hushimni raso qildi qalam.

O'rgatub ilm-u adab, axloq-u ham fazl-u ratab,
Ore, g'ayrat, sharm ila bir porso qildi qalam.

Ota-onam qilmagan har yaxshilik bo'lsa agar,
Ko'rsatub manga o'zini rahnamo qildi qalam.

O'qudum, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo'lub,
G'ayratimga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so'zidan aslo chiqmadim,
Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Bor edi ko'nglumda bo'lmoq podshohlik orzu,
O'tmadi fursat bu hojatim ravo qildi qalam.

Xalqaro kam-kam mani obro'-yu shuhrat topdirub,
Bir gadoni o'g'li erdim podsho qildi qalam.

Hissa: bo'lda podshoh, boqg'il qalamni hurmati,
Har kishini o'zidan shundoq rizo qildi qalam.

**BIR KISHINING BOR EDI
TO'RT BOLASI...**

Bir kishining bor edi to'rt bolasi,
Yotgan edi uyg'a kelib xolasi.

Tursa xola erta bila o'rnidan,
Bir so'mi yo'q bo'l mish oni qo'ynidan.

So'rdi, choqirdi bolalardan ani,
„Ko'p xafa qilmang, beringiz, — deb, — mani“.

Har biri ham „Olgonimiz yo‘q“, dedi,
Ichdi qasam, „Ko‘rgonimiz yo‘q“, dedi.

Bildi ota foydasizdir qiynamoq,
Lozim ani olmoq uchun aldamoq.

Borchasini qo‘ydi qamab bir uya,
Oldiga har qaysini qozon kuya.

Dedi: „Kimki rost esa gar so‘zi,
Qora bo‘lur o‘zicha ikki yuzi.

Kimni agar yolg‘on erursa so‘zi,
Bor-u yo‘g‘-u qora bo‘lur o‘ng yuzi“.

Kattasi olgan edi ul oqchani,
Bilmadi ul o‘zi uchun hiylani.

Dedi: „Qaro bo‘lsa o‘zi o‘ng yuzum,
Qora qilay chap yuzimni o‘z-o‘zim“.

Qildi qaro chap yuzini vahm etub,
Ikki ko‘zin turdi eshikka tikub.

Boshqalari olmagani to‘g‘ridan,
Tik turishub kutdi ani o‘g‘ridan.

Chiqdi olib barchasini otasi,
Boqdiki chap yuz qarodur kattasi.

Boqdi o‘zi boshqalaring oq yuzi,
Bo‘ldi xijolat, chiqub egri so‘zi.

Berdi u ham xolasining so‘mini,
Tashladi so‘ng shuyla fe’li shumini.

Hissa: kimi bo‘yla xiyonat qilur,
Bir kun o‘zini shuyla xijolat qilur.

MEVALAR MOJAROSI**O'RUK**

O'ruk o'rnidan turub,
 Rangini sarg'ayturub,
 Keldi tutni boshiga,
 Shovqun solub tik turub.

Dedi: „Ey Tut, taltayib,
 Dema har so'z yalpayib,
 Boshginangga bir uray,
 Yerda qolgin shalpayib.

Seni ko'p yegan kishi
 Badan qashimoq ishi,
 Ortuqchadur ustiga
 Yurakburuq tashvishi.

Ore man sandan keyin,
 Sandan yuz hissa shirin,
 Aytub ado qilayin,
 Qaysi husnimni birin.

O'zum ming dardga davo,
 Qurutsa andan bajo,
 Hatto mag'zimni olub,
 Solgay qandolat aro.

Muxtasar aylay so'zum,
 Meva ichra bir o'zum,
 Bog' ichini yorutar,
 Oppoq, oydindak yuzum“.

GILOS

Gilos haddan oshiqub,
 Xafalikdan toshiqub,
 Keldi o'ruk boshiga,
 Musht ko'tarub shosiqub:

„Ey O'ruk, san so'zlama,
 Maxtanmoqni ko'zlama!
 Yonboshingga bir tepay,
 Bog'ga hargiz yuzlama.

G'o'rang qursun, kech bitar,
 Yegan kishi ich ketar.
 Pishganing shalpaytirub,
 Qurug'ingdan bod yetar.

Bilursan, otim Gilos,
 Suyar mani om-u xos.
 Mani ko'rgan kishilar
 O'zga meva xohlamas.

Shirindurman asaldan,
 Dorudurman azaldan.
 Bismillo deb yeganni
 Qutqazam ming kasaldan.

Kaltaroq qilay so'zum,
 Maxtasam arzir o'zum.
 Bog'ga kirgan ko'ziga
 Yoqtdek yonar yuzum“.





G'AYRATIY

(1902—1973)



G'ayratiy (Abdurahim Abdullayev) yoshlarning sevimli yozuvchisi va shoiri edi. 30- yillarda shoir sifatida tanilgan adib to umrining oxirigacha baxtli zamonani, Vatanini o'z asarlarida kuyladi. Yosh yozuvchilarga rahnamolik, ustozlik qildi.

O'zbekiston xalq shoiri G'ayratiydan katta adabiy meros qoldi. Uning kattalarga atab yaratgan asarlari ikki jildlik „Tanlangan asarlar“ida jamlangan.

G'ayratiyning bolalarga bag'ishlangan asarlari ham talaygina. Adibning „Siz mening yoshligimsiz“, „Bizning Hamza“, „Oltin yoshlik“, „Yo'qolgan bola“, „Hikoyalar“, „Rustamjonning sarguzashti“, „Bobomning sovg'asi“, „Qulochchin“ kabi kitoblari kichkintoylarning sevimli asarlariga aylangan.

G'ayratiyning asarlari rus va qardosh xalqlar tillariga ham tarjima qilingan.

QULOQCHIN

Yetib keldi oltin kuz,
 Dalalarda ish qaynoq.
 Chol ishlar bog'da yolg'iz,
 Charchash bilmaydi biroq.

Kesib yopdi toklarni,
 Gullarni qo'ydi o'rab.
 Butab olma-noklarni,
 Shoxlarin chilpib, tarab.

Sovuq boshlandi birdan,
 Bo'ldi har yoq saranjom.
 Ayoz esdi tog'-qirdan,
 Ishlarni qilib tamom.

Shaharga qaytadi chol,
 Boshlanganda izg'irin.
 Qo'yan edi kallak tol
 Tepasiga quloqchin.

Chiqib qoldi esidan
 Xabar olmay qishda ham.
 Olaman yangisidan,
 Deya bo'ldi xotirjam.

Qilichini olib qish,
 Keldi, yugurdi bo'ron.
 Shox-shabbalarda sinish
 Boshlandi, har yon xazon.

Olmaxonning uyasi
 Chidamasdan shamolga
 Yiqildi bir yo'lsasi,
 Qoldi yomon ahvolga.

Uysiz qoldi olmaxon,
 Keldi yig'lab, tentirab,
 Qulqchinga nogahon
 Ko'zi tushdi qaltirab.

Sakrab chiqdi kallakka,
 Yumshoqqina qulqchin.
 Yetar edim tilakka,
 Agar shuni qilsam in.

Deb qulqchin ichini
 Asta qildi sayohat.
 Shunda kunduz-kechini
 O'tkazdi, qilib rohat.

Ertasi ko'rsa izg'ib,
 Boshpana istab quyon,
 Sovuqda qoldi junjib,
 Qani bir issiq makon.

Olmaxon do'stlik qilib,
 Oldi uni yoniga.
 Kel, yashaymiz bir bo'lib,
 Rahmi kelib joniga.

Qulqchinda yonboshlab,
 Yashadilar do'st-inoq.
 Topsalar birga oshab,
 Bemalol ikki o'rtoq.

Uchinchi kun uzoqdan
 Ko'rindi sho'rlik baqa.
 Sakrab, horib oyoqdan,
 Hammayoq yara-chaqa.

— Yoz-kuz o'tib ketibdi,
 Qo'shiq aytib bemalol.
 Qarasam qish yetibdi,
 Hoy, do'stim, bag'ringga ol.

Joy beringlar menga ham,
 Ey, qadrdon o'rtoqlar.
 Qish solmasin chinakam
 Boshginamga qyinoqlar.

Yoz kelsa uy quraman,
 Kelasizlar mehmonga,
 Mayli, birga turaman,
 Jon fido qadrdonga.

Ikki o'rtoq baqani
 Tortib oldilar inga.
 Ko'zi munchoq soqqani
 Issiq keng quloqchinga.

Zeriktirmay do'stlarni,
 Baqa aytadi qo'shiq.
 Qalin qilib ustlarin
 Yotdilar, ovqat quyuq.

Kunlar o'tdi bir kuni,
 O'rmonda to's-to'polon.
 Mushuk-sichqon shovqini,
 Xabar olsa olmaxon.

Mushuk solmoqchi changal,
 Sichqon qochar chiyillab.
 Yemoqchi uni dangal,
 Quvmoqda har yon sakrab.

Yordam so'rab sichqonboy,
 Yuguradi har taraf.
 Qanday shovqin, kimdir, hoy,
 Olmaxon har yon qarab.

Ko'rsa, sichqon holi tang,
 Hujum boshlab uch o'rtoq,
 Mushukni quvlab, arang
 Qutqazishdilar shu choq.

Ko'pchilikdan arslon ham
 Aslo qochib qultulmas.
 Kuch birlashsa chinakam,
 Dushman qarshi kelolmas.

Qulqichindan joy oldi,
 Sichqon yotdi qish-qirov.
 Inoq bo'lishib qoldi,
 Xalaqit bermay birov.

Kunlar o'tdi, qulqichin
 Sovib qoldi to'satdan.
 Qarasalar, izg'irin
 Yelpib o'tmoqda pastdan.

Insofsiz sichqon uni
 Chaynab-yamlab teshibdi.
 Ermak qilib har kuni,
 O'z haddidan oshibdi.

— Mushukning panjasidan
 Olgan edik qutqarib.
 Qonli iskanjasidan
 Bo'shading ozib-yozib.

Yaxshilikni bilmasdan,
Qulinqchinni teshibsan.
Bizni ko'zga ilmasdan,
Maydalab, ip eshibsan.

Joy berdik, non bemalol,
Haddingdan oshib ketding.
Birga turma, ket, yo'qol,
Yomon niyatga yetding.

Deya sichqonni haydab,
Uyadan chiqardilar.
Kichik yovdan amallab,
O'zlarin qutqazdilar.

Qilmish — qidirmish ekan,
Sichqon ketdi darbadar.
O'rmon sovuq, biror joy
Topmay bo'ldi dardisar.





Quddus **MUHAMMADIY**

(1907—1997)



Quddus Muhammadiy o‘zbek bolalar she’riyatining ko‘zga ko‘ringan atoqli vakillaridan biri. U 1907- yilda Toshkentda dehqon oilasida tug‘ilgan. Quddus Muhammadiy yoshlikda bolalar uyida tarbiyalandi. U yetti yillik maktabni bitirgach, Toshkent qishloq xo‘jalik texnikumida o‘qidi.

Quddus Muhammadiyning kasbi — o‘qituvchilik. U bolalar hayotini puxta o‘rgandi, bolalar psixologiyasining nafis bilimdoniga aylandi. Quddus Muhammadiy ijodi hayot materiallarini qamrab olish jihatidan nihoyatda kengdir. Hayotning ko‘p tomonlari Quddus Muhammadiy ijodida o‘z aksini topgan. U asar yaratara ekan, bolalar psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutadi. Sinchkov, oddiy narsalardan tortib murakkab hodisalargacha alohida qiziqish bilan qaraydigan bolaning talabini nazarda tutib qo‘lga galam oladi.

Uning „O‘quvchiga esdalik“ nomli birinchi she’rlar to‘plami 1946- yilda bosilib chiqdi. „Qirq o‘g‘il, qirq qiz“, „Sinov“, „Dunyoda eng kuchli nima?“, „Mehribon do‘sstar“, „Bola boshidan, o‘g‘lon yoshidan“, „Qanday bo‘lmog‘im kerak“, „Ochילדasturxon“, „Ona-bola mehri“, „Tabiat alifbesi“, „Qanotli do‘sstar“, „Cho‘pon bobo qo‘srig‘i“, „Bog‘larda bolalar“, „Odam-olam qo‘srig‘i“ kabi 40 dan ortiq kitoblari bolalarning sevimli asarlariga aylandi va shoirga shuhrat keltirdi.

Quddus Muhammadiy ijodining cho'qqisi — besh kitobdan iborat „Tabiat alifbesi“dir. Bu kitoblar bolalarni ona tabiat bilan keng tanishtiradi. Birinchi kitob quyosh, havo, yer va suv haqida. Shoir ularning go'zal ifodasini she'rlarida madh etadi, o'quvchi ko'z oldida jonlantiradi. She'rlar bir-birini to'ldirib boradi. Ikkinci kitob jonivorlar haqida bo'lib, „Cho'pon bobo qo'shig'i“ deb ataladi. Uchinchi kitob — „Qanotli do'stlar“da 100 dan oshiq qushlarning hayoti aks ettiriladi. To'rtinchi kitob „Bog'larda bolalar“ deb nomlanadi. Unda shoir har bir o'simlik, har bir gul, har bir daraxt hayotidan ma'no axtaradi va bu ma'no bilan yosh kitobxonlar ongiga ta'sir ko'rsatadi. Beshinchi kitob — „Odam-olam qo'shig'i“ olamning gultoji odam haqidadir.

Xullas, „Tabiat alifbesi“da o'quvchi tabiat haqida to'liq tasavvurga ega bo'ldi.

Quddus Muhammadiy butun hayotini bolalarga, bolalar adabiyotiga bag'ishlagan san'atkor edi. U o'quvchilar saroyida uzoq yillar adabiyot to'garagini boshqarib, yoshlarga adabiyot sirlaridan dars berdi. Yoshlarni adabiyotga boshlab kirdi.

O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy o'z asarlari bilan katta-yu kichikning qalbini egallagan.

SHE'RIM, OCHIL DASTURXON

She'rim, ochil dasturxon,
 She'rim ochiq dasturxon.
 El o'g'lin qilay mehmon,
 Bo'layin ulkan mezbon.
 Shoiringman mehribon,
 Qilgim kelar ulkan ish,
 Dunyoda eng ko'rakam ish.
 She'r bulog'im, qayna, jo'sh,
 She'rjonim, bo'l oqqush,
 She'rim hayot bog'bonim,
 She'r askarim — posbonim.
 Pahlavon beozorim,
 Ko'ngillarni yozarim,
 Yuragim osmonisan,
 El-yurtim posbonisan,
 Tinchligim kaptarisan,
 O'quvchim daftarisan.
 Qadrdon maktabimsan,
 Yuragim, rubobimsan.
 Sensan qo'shiq, ulkan kuy,
 Sen kirmagan biron uy,
 Sen bo'l magan bayram, to'y,
 Qolmasin hech bir elda.
 Yangra, she'rim, ming tilda.
 Xalq yuragin makon et,
 Xalqim ko'nglin osmon et.
 Yoqimli bo'l havodek,
 Jon ozig'im navodek,
 Jon bag'ishla o'likka,
 Zavq bag'ishla tirikka,
 She'r desam jonim erir,
 Jon-u jahonim erir.

Onamning allasi she'r,
 Hofizlar yallasi she'r.
 Xalqimga madadkorim,
 „Hayt“ tuyaga madorim.
 She'rim, ochil dasturxon,
 She'rim ochiq dasturxon.

BAHOR KELDI

Qo'llarida soz bilan,
 Gul g'uncha pardoz bilan,
 Silkinib parvoz bilan,
 Uchib turna, g'oz bilan,
 Qadrdon bahor keldi.

Bahorni kuting bog'da,
 Bog' emas dala, tog'da,
 Maysa yashnagan chog'da
 Qushlar sayrar butog'da,
 Sevikli bahor keldi.

Har narsada o'zgarish,
 Erib, oqib jo'nar qish.
 Har yog'da yashnar turmush,
 O'rik gulladi kumush,
 Mehnat bahori keldi.

Bezanar maktab bog'i,
 Gulga to'lib quchog'i,
 Toshar hayot irmog'i,
 Maktab dam olar chog'i,
 O'quvchi, bahor keldi.

O'tmasin go'zal fursat,
 Qani, g'ayrating ko'rsat,
 Imtihon, sinovga vaqt
 Hozirmi, darslaring taxt,
 Hushyor bo'l, bahor keldi.

QISH HAM CHIROYLI

Hay-hay ko'r kam qish,
 Qorlari kumush.
 Guppa-guppa qor
 Bo'ralab yog'ar.
 Sovuq chirsillar,
 Suv muz, qirsillar,
 G'uborsiz havo
 Jonlarga davo.
 Tanda ham qaynoq,
 Hamma yoq oppoq.
 Daraxtlar go'zal,
 Shoxlarni bezar.
 Qor doka yo'rgak,
 Novdalar go'dak.
 Uyquda mizg'ib
 Yel esar izg'ib.
 Tarnov, bo'g'otda
 Sumalak katta.
 Osilib qator
 Shag'amdek qotar.
 Bir gala chumchuq
 Hovlida chirq-chirq.
 Pir-pir uchishar,
 Tomga qo'nishar.
 Anhor suvi muz,
 Qora tikon tuz —
 Singari rangi.
 O'ynashib yangi
 Besh-o'nta bola,
 O'quvchi sara,
 Yaxmalak otib,

Qor-muzga botib
Ketdi tarqashib,
Tepadan oshib.
Gaz yonar boz-boz,
Uyning ichi yoz,
O'yin bo'ldi bas,
Tayyorlaymiz dars.
O'tirib asta
Havas payvasta,
Ochishar kitob,
Yechishar hisob.
Hay-hay ko'r kam qish,
Qorlari kumush.
Guppa-guppa qor,
Bo'ralab yog'ar.





Hamid OLIMJON

(1909—1944)



Atoqli o'zbek shoiri Hamid Olimjon 1909- yili 12- dekabrda Jizzaxda tug'ilgan. U Narimonov nomli mакtabni bitirib, Samarqand bilim yurtida o'qidi. O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasida ta'lim oldi. Nashriyot va tahririylatlarda mas'ul vazifalarda xizmat qildi.

Hamid Olimjon 1939- yildan umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuchilar uyushmasining raisi bo'lib ishlab kelgan.

U 20 yillik ijodiy faoliyati mobaynida „Ko'klam“, „Olov sochlar“, „O'lim yovga“, „Daryo kechasi“, „O'lka“, „Baxt“, „Qo'lingga qurol ol“, „Ishonch“ kabi talay she'riy to'plamlar, „Zaynab va Omon“ singari ajoyib doston, „Muqanna“ kabi dramalar yaratdi.

Shoirning „Vatan“, „Samolyot“, „Hulkarning she'ri“ va „Bolalik“ she'rlari, „Oygul va Baxtiyor“, „Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod“ she'riy ertaklari bolalar adabiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan.

Hamid Olimjonning kitoblari rus va qardosh xalqlar tillariga ham tarjima qilinib, sevib o'qilmoqda. O'z navbatida, Hamid Olimjon jahon va rus adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga o'girgan. Chunonchi, Konstantin Simonovning asarlarini o'ziga xos tarzda tarjima qilgan.

VATAN

Shodligim ko'kka sig'mas,
Bitmas baxtim bor manim.
Meni baxtiyor qilgan,
Shu yengilmas Vatanim.

Yovning o'qi hech qachon
Askaridan o'tmaydi.
Nishon olsa osmonni
Samolyotga yetmaydi.

Shuning uchun qishloqlar
Kun kechirar erkin, tinch.
Shaharlarning qalbida
Kecha va kunduz sevinch.

LOLA

Lola bog'chaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi.

Sochiga gul bog'ladi,
Chekkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab,
Gulga ko'mildi butkul.

So'ngra uyga keldi-yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumildi-da,
Gul kabi uxlab qoldi.

O'RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar
 Tongda aytdi hayot otini
 Va shabboda qurg'ur ilk sahar
 Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,
 Har bahor ham shunday o'tadi.
 Qancha tirishsam ham u beor
 Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g'ash,
 Xayolimni gulga o'rayman.
 Har bahorga chiqqanda yakkash,
 Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
 Baxting bor, deb esadi yellar.
 Etgan kabi go'yo bir talab,
 Baxting bor, deb qushlar chiyillar...

Hamma narsa meni qarshilar,
 Har bir kurtak menga so'ylar roz.
 Men yurganda bog'larga to'lar
 Faqat baxtni maqtagan ovoz:

„Mana senga olam-olam gul,
 Etagingga siqqanicha ol.
 Bunda tole har narsadan mo'l,
 To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech gul ko'rmay, yig'lab,
 O'tganlarning haqqi ham senda,
 Har bahorni yig'lab qarshilab
 Ketganlarning haqqi ham senda...“

Derazamning oldida bir tup
 O'rik oppoq bo'lib gulladi...



Ilyos **MUSLIM**

(1909—1993)



O'zbek bolalar adabiyotining taniqli vakili Ilyos Muslim 1909-yilda Bishkek shahrida tug'ilgan.

1931- yilda Toshkent pedagogika bilim yurtini tugatgan. Shundan so'ng u nashriyotda ishladi.

Ilyos Muslim 1928- yildan ijod bilan shug'ullana boshladi. Birinchi she'rlar to'plami „O'suv“ 1932- yilda nashr etildi. U „Turnalar“, „Bizning mакtab“, „Sening sovg'ang“, „Tillaqo'n-g'iz“, „Ko'rik“, „Ishchan asalarilar“, „Oyxon va rayhon“, „Birinchi sovg'a“ kabi 30 ga yaqin kitob yozdi.

Ilyos Muslim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston xalq maorifi a'lochisidir.

DO'STLIK

Yer yuzidagi amakijonlar,
 Shunday iltimos bordir sizlarga:
 — Chiqarmang quroq, oqmasin qonlar,
 Kitob, o'yinchoq bering bizlarga!

Bizlar urishib yirtmaymiz yoqa,
 O'ynaymiz doim biz musobaqa.
 Turmushimiz shod o'tadi shunda,
 Yog'liq patirlar yopilar kunda.

Juda mo'l bo'lar shokoladlar ham,
 Stolga to'lar marmeladlar ham.
 Ko'payar yana shirin kulcha-non
 Holva-yu konfet, obakidandon.

Bog'larimizda yayraymiz har dam,
 Bilim olamiz, kuylaymiz bardam.
 Dunyoda xalqlar kun kechirsa tinch,
 Ota-onalar tashvish tortmas hech.

Temiryo'limiz obod va ko'r kam,
 Vagonchalarda o'ynab ketamiz.
 Yiroq eldag'i bolalarni ham,
 Gulbog'imizga taklif etamiz!

SENING SOVG'ANG

Chaqnab turgan quvnoq ko'zingni
 Qo'lingdagi ishdan olmaysan.
 Dildan toshib chiqqan so'zingni
 Aytish uchun gap topolmaysan.

Jajjigina barmoqchalaring
 Harakatdan to'xtamas bir zum.
 Sen chizgan gul, bayroqchalaring
 Bayram uchun sovg'adir, qizim!

Ishni har kun olib yoningga,
 Zehn qo'yib kashta tikasan.
 Endi bilsam, onajoningga
 Bayram kuni sovg'a etasan.

Onang shunda ochar keng quchoq,
 Go'yo ko'kka yetgandek boshi.
 Sansan unga doim ovunchoq,
 Sen onangning kichik yo'ldoshi!

ESHMATVOYNING QILIG'I

Eshmatning zavqi jo'shdi,
 Chanaga itni qo'shdi...
 Havas qildi sayrga,
 Yotib oldi it yerga.
 Bir hiyla topdi o'ylab,
 Eshmatvoy ketdi o'ynab.
 Tayoqqa go'shtni ildi,
 Iti ko'rib intildi.
 Eshmat maqtanib turdi,
 It go'shtni paqqos urdi.
 Keyin it yurmay qoldi,
 Hamma kulgiga oldi.
 Arqonni ushlab qo'lga,
 Eshmatvoy tushdi yo'lga...

BEFAHM ESON

Karam chopig'iga tushganda Eson,
 Hech yerda qolmadi ekindan nishon.

Kirishdi no'sh piyoz, sabzi o'toqqa,
 Yovvoyi o'tdir, deb yuldi u paqqa.

Atirgul ochilsin, deb shoshib-pishib,
 G'unchasin qo'l bilan ochdi engashib.

Ishkomda uzumni tez yulib oldi,
 Yeb ko'rsa g'o'r ekan, uyalib qoldi...

ODOBLI QIZCHA

Ra'no kichkina hali,
 Ishiga hamma hayron.
 Qo'lda jajji supurgi,
 Chinnidek hovli, ayvon.

Buvisi va oyisi
 Ketishsa-chi, to'ylarga,
 Uyni poylab o'tirar
 Chiqmay ko'cha-ko'ylarga.

Plastilinni olib,
 Yasar ba'zan uychalar.
 Uni tabriklaganday
 Radio sho'x kuy chalar.

Uyni tartibli tutar,
 Chang qo'nmas divanga hech.
 Buni ko'rib qo'shnilar
 Maqtashadi erta-kech.

MAKTABIM

(qo'shiq)

Ona kabi mehribon
 Ilm-fanlarga makon,
 Yayrab o'qiymen har on,
 Qadrdonim maktabim!

Senda darslar xilma-xil,
 O'qib, o'samiz har yil,
 Sevinchlarga to'lar dil,
 Qadrdonim maktabim!

A’lo o‘qishdir burchim,
 Sarf etaman bor kuchim,
 Ishlayman xalqim uchun,
 Qadrdom maktabim!

TURNALAR

Turnalar, hoy turnalar,
 Pastlab uchingiz!
 Bizning ko‘l va daryolar
 Bag‘rin quchingiz!

Bizlarni xursand qilib,
 Keldingiz shu chog‘.
 Ko‘kimizda tizilib,
 Soling arg‘imchoq!

Erkin-erkin uchingiz,
 Osmanni bo‘ylab.
 Qo‘rqmay yerga tushingiz,
 Sayrashib-kuylab.

Bizlar ko‘l, dengizlarni
 Etdik ko‘p obod.
 Siz ham tushib bizlarni
 Qiling juda shod.





Sulton JO'RA

(1910 – 1943)



Sulton Jo'ra 1910- yilning 15- yanvarida hozirgi Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag'altom qishlog'iда dehqon oilasida tug'ildi. Yetti yoshida ota-onasidan yetim qolgan Sulton har kimlarning eshidiga xizmat qildi. U dastlab boshlang'ich maktabda o'qib, 1924- yilda Buxoroga keldi va bu yerda Pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdi, uni 1930- yilda bitirdi.

Sulton Jo'ra 1931—1938- yillarda Buxoro rabfagida, 1938—1941- yillarda Andijondagi o'qituvchilar ilmgohi va Pedagogika bilim yurtida til va adabiyotdan dars berdi.

1942- yilda Sulton Jo'ra harbiy xizmatga chaqirildi. U dushmanga qarshi ham quroq, ham qalam bilan jang olib bordi. 1943- yilning 14- noyabrida Belorussiya tuprog'iда nemis-fashist bosqinchilariga qarshi janglarning birida jangchi-shoir qahramonlarcha halok bo'ldi.

Sulton Jo'raning dastlabki she'rlari 1933- yilda Buxoro yosh shoirlarning „She'rlar“ to'plamida nashr etildi. Uning 1939- yilda „Fidokor“, 1941- yilda „Moskva“ she'riy to'plamlari, 1942- yilda „Iroda“ nomli pyesasi nashr etildi. Shoир vafotidan so'ng 1951- yilda rus va o'zbek tillarida „Tanlangan asarlar“, tinch qurilish yillari davrida iste'dodli shoirning „Havorang qalam“, „Zangori gilam“, „Bruno“, „Parvoz“, „Qaldirg'och“ kabi kitoblari bosilib chiqdi.

Ayni choqda, u „yaxshi“ va „a’lo“ baholarga o‘qish uchun kurashish, rostgo‘y va intizomli bo‘lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta’lim-tarbiyaviy masalalarini ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g‘oyalarni shoirning „Yozgi yomg‘irdan so‘ng“ (1936), „Qizlar“, „A’lo“ va „Yaxshining maqtovi“, „Zangori gilam“ (1939), „Lola“, „Oy nechta?“, „Tinish belgilarining majlisi“, „Cho‘ntak“, „Sirkda“ (1940), „Qarzdor“, „Qaldirg‘och“, „Yolg‘onchi“, „Dengiz tagida“ (1941), „Sog‘inib“ (1942), „Sog‘inchli salom“, „Salom xat“ (1943) kabi asarlarida o‘z ifodasini topdi.

TINISH BELGILARINING MAJLISI

Besh-oltita tinish belgi kelib bugun,
 O'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in.
 Rais bo'ldi undov belgi — mirzaterak,
 Dedi: — Har kim o'z rolini aytmoq kerak.
 Tushuntiring nedur sizning vazifangiz?
 So'z vaqtini ko'proq beray oz desangiz.
 O'z joyida ishlatmasdan Turg'un, G'ani,
 Balki sizni xafa qilgan? So'zlang, qani.



Birinchi so'z nuqtavoya — U bosh, katta, —
 Nuqta chiqdi bir dumalab misli koptok:
 — Fikrlarning bekatiman — Nuqtadirman,
 Har darak gap oxirida to'xtaydirman.
 Boshqa fikr boshlanajak mendan keyin,
 Ba'zan quloq solmasalar men ne deyin?
 Paravozlar suv olgandek bekatlardan,
 Menga yetgach, olmoq kerak to'liq bir dam.
 O'zimdan so'ng qo'ymoq zarur zo'r bosh harf,
 Biroq ba'zan unutadi bizni Zarif.
 Har bir bosh harf yonimdagi bir soqchidir,
 Qaysi bola buni qo'ysa zap yaxshidir.
 Gapim tamom, bundan bo'lak menda ne bor?
 O'ylaymanki, so'zim qolmas bee'tibor.



— Endi sizga gap navbati, o'rtoq „So'roq“, —
 Ana, chiqdi so'roq belgi, misli o'roq.
 U qoqilib ketmay qoldi arang qulab,
 Yo bu belgi yoki zirak taqqan quloq.

— Sen singari rolim aytsam, nuqta, do'stim,
 Har so'roq gap bitgan joyda mening postim.
 Mendan so'ng ham katta harf qo'yemoq shartdir,
 Bunga odat qilinmasa, yomon darddir.
 Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?
 Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?



Undov novcha o'zi oldi so'z galini,
 Mixday turib bayon qildi o'z holini:
 — Mazmunidan undov, sevinch, nafrat, g'azab,
 Yo hayajon ma'nosini anglatsa gap,
 Shunday jumla adog'ida bo'lar joyim,
 Mendan so'ng ham bosh harflar kelar doim.
 Eh... Naqadar soz bu kungi yig'ilishimiz!
 Bu yaxshi ish, har choq shunday yig'ilishingiz!



— O'rtoq rais, endi menga navbat bering, —
 Deb so'z oldi kichik to'qmoq — bizning vergul.
 O'rnim tengdosh bo'laklarning orasida,
 Fikrlarning „razyezdi“ men: menda birpas
 Olib o'tar har o'quvchi yarim nafas.
 Undalma so'z kelib qolsa gap boshida
 Undan keyin men turaman yonboshida.
 Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,
 Uning ikki yonboshida men jo'rttaga:
 „Qani, endi, undalmaxon, qochib boq-chi“ —
 Deb bo'lurman, yubormayin unga soqchi.
 Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,
 Undan oldin qo'yilurman, tushun, o'rtoq!

“ ”

Sirkdag'i qiziqchidek qo'shtirnoqlar
 Bir mahalda kulib chiqdi xushdimog'lar:
 — Korxonalar, xo'jaliklar, gazeta, jurnal —
 Hokazoga ot qo'yilgan bo'lsa darhol
 Uni qurshab oladirmiz ikki yondan...
 Ko'chirma gap ketolmaydi bizdan qochib,
 Uni doim olamiz keng quchoq oolib.
 Mana rais „Vaqt tamom, to'xtatingiz“, —
 Deb qoldi-ku. Mayli, endi yo'q gapimiz.

Eng oxirda shoshib-pishib, nari-beri
 Jindakkina sayrab qoldi gugurt-tire:
 — Dialogda mening eng ko'p turar joyim.
 Yana ma'no takrorlansa, men bor doim.
 Goho bir so'z sig'may qolsa to'lib xatga,
 Ayamasdan bo'g'inidan qirqib hatto
 Qolganini ko'chirarman bo'lak yo'lga,
 Biroq shartim — so'z qolmasin o'lda-jo'lida.
 — Ko'p cho'zdingiz, anglaysizmi, o'rtoq, tire?
 — Mayli bitdi, qaror bo'lsa o'qib bering.
 Shunda rais dedi: — Endi majlis yopiq!
 Har bir vakil jo'nab ketdi yo'lin topib.

OY NECHTA

I

Yulduz, Qunduz, singil va opa
 Boshladilar katta tortishuv.
 Yulduz dedi: — Oy bitta faqat
 Qunduz dedi: — Yo'q, ikkita-ku!

— Kech bo'lsin-chi, ko'ramiz, qani,
 Kimning gapi rostga chiqarkan?
 — Yulduz bo'lsang oyni ko'rgani
 Undan ilgariroq chiqarsan?..

II

Ana keldi kutgan kecha ham,
 Yonib chiqdi qizil shirmon oy.
 Chopib ketdi Yulduz ko'chaga,
 Qunduz dedi: — Hovlidan boqay.
 Ikkovi ham ko'rarkan oyni,
 Bir-biridan olishdi darak:
 — Unda bormi?
 — Ha, bittasi bor.
 Qaysisining oyi kattaroq?
 Ishonmadi biri-biriga
 Va dedilar:
 — Oy nechta, oyi?
 — Yoting endi.
 Faqat bitta osmonning oyi!
 Katta bo'lgach, aylanaylarim,
 Oyning o'zin minib ko'rarsiz.
 — O'shanda-chi, oyijon, bizga
 Katta shoti olib berarsiz?

III

Men ham shunday bolaligimda
 Oyni ikkita deb yurardim.
 O'sha paytim tushib esimga
 Shu she'rni yozib yubordim.





Zafar DIYOR

(1912–1946)



O'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan kichkintoylarning iste'dodli shoirlaridan biri Zafar Diyor 1912-yilda Namangan viloyatining hozirgi Chust tumanidagi Samsoqtepa qishlog'idan dehqon oilasida tug'ildi. 1916- yilda Zafarlar oilasi Toshkent shahriga ko'chib keladi. Zafarning otasi dala ishlarida, onasi esa bosmaxonada mehnat qilardilar. 1927- yilda Zafar to'liqsiz o'rta məktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumda o'qib, ko'proq ilm-fan sirlaridan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Uning dastlabki she'riy mashqlari bilim yurti devoriy gazetasi sahifalarida ko'rina boshlaydi.

Yigirmanni yillar oxiri va o'ttizinchi yillar boshlarida hozirgi „Tong yulduzi“ gazetasida, „Yosh kuch“ va boshqa bolalar jurnallarida ilk she'rlari chop etila boshladi. Zafar Diyorning birinchi she'ri yosh shoirlarning „Qurilish kuylari“ to'plamida bosilib chiqdi. Ko'p o'tmay, uning birinchi she'rlar to'plami „Qo'shiqlar“ nomi bilan 1933- yilda nashr etildi. U Toshkent davlat pedagogika oliygohining til va adabiyot fakultetiga kirib, o'qishni davom ettiradi. O'zbek hamda qardosh xalqlar yozuvchilari asarlarini qunt bilan o'rganadi.

Zafar Diyor kichkintoylar uchun she'rlar yozar ekan, izlanish, o'qish, o'rganish zarurligini dildan his etadi. Keyinchalik

bu haqda shunday deb yozadi: „Bolalar uchun asar yozishni men o‘zim uchun juda qiyin va mas’uliyatli vazifa deb bilaman. Bu mas’uliyatli vazifaning uddasidan chiqish uchun tajribali, suyukli bolalar yozuvchilari S. Marshak, S. Mixalkov, Kvitskarning asarlarini o‘qib, ularning boy tajribalaridan o‘rganish yo‘lida ishlamoqdamani“¹.

Shoir ijodidagi muhim mavzulardan biri inson va tabiat munosabati muvzusidir. Shu jihatdan uning „Tantana“ she’rlar to‘plami (1938) dagi ko‘plab she’rlari xarakterlidir. „Binafsha“, „Navbahor“, „Qushlar haqida qo‘sishq“, „Kapalak“ singari she’rlari ham shular jumlasiga kiradi.

¹ **Z. Diyor.** „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“ jurnali, 1938- y., 4- son.

BINAFSHA

Binafshaxon, binafsha
 Kulishlaring chiroyli:
 Bog'imizda ochilib
 Turishlaring chiroyli.
 Hamma chiqar dalaga
 Binafshalar tergali,
 Men ham terdim bir dasta
 Opamizga bergali.
 — Mana, opa, binafsha,
 Qarang, qanday chiroyli.
 — Yuring, — dedi opamiz, —
 Binafshalar teraylik.
 Binafshalar ochildi
 Chakkangga taq, chakkangga:
 Atir hidi sochildi,
 Chakkangga taq, chakkangga.
 Lazzat olib hididan
 Bolarilar uchadi.
 Ipakqanot kapalak
 Barglarini quchadi.
 Seni maqtab kuylaydi,
 Bog' aylanib qushchalar.
 Darak berib bahordan,
 Quvontirding shunchalar.
 Binafshaxon, binafsha
 Kulishlaring chiroyli.
 Ko'ksimizda hid sochib
 Turishlaring chiroyli!

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
 Qanotlaring ipakdak.
 Muncha shoshib uchasan,
 To'xta, so'zlayin andak.

Uchrataman har kuni
 Seni har kun bog'chamda,
 So'rib gullar sharbatin
 O'ltirasan olchamda.
 Borib ushlay deganda
 Shoshib darhol uchasan.
 Sira tutqich bermasdan
 Guldan gulga ko'chasan.
 Mendar aslo qochmagan,
 Do'st bilaman o'zimga.
 Pildir-pildir uchishing,
 Oh, yoqadi ko'zimga.
 Uch, uchaver, uchaver,
 Go'zal bog'cham — gulshanda.
 Sira ozor bermayman
 Sevgim, fikrim bor senda.
 Kapalakjon, kapalak,
 Qanolaring ipakdak.
 Do'st bo'laylik ikkimiz,
 To'xta, so'zlayin andak!

TO•P

To'pim, to'p-to'p etasan,
 Ursam uchib ketasan.
 Havolanib nariga —
 Do'stlarimga yetasan.
 O'ynatasan ko'zimni
 Hovliqtirib o'zimni.
 Biroz ko'proq o'ynasam,
 Terlatasan yuzimni.
 Senga sira to'ymayman,
 Bo'sh ekanman qo'ymayman.
 Ovunchog'im, — deb seni
 Do'stlarim-la o'ynayman.
 To'pim, to'p-to'p etasan.
 Ursam uchib ketasan.
 Handalakdek yumalab
 Bizni xursand etasan.



Shukur SA'DULLA

(1912—1972)



Shukur Sa'dulla 1912- yilning 15- yanvarida Jizzax shahrining Toshkentlik mahallasida xizmatchi oilasida tug'ildi. U 7 yoshga to'lganda mahalladagi eski maktabga boradi va u yerda tez savod chiqaradi, so'ngra yangi tashkil etilgan Narimonov nomli maktabda o'qishni davom ettiradi. 12 yoshida maktabni bitirgach, bilimini yanada oshirish maqsadida 1924- yilda Samarqand shahriga kelib, Pedagogika bilim yurtiga kiradi. Xuddi shu maskanda adabiyotga bir umr bog'lanadi, she'r mashqiga jiddiy beriladi.

Sh. Sa'dullaning dastlabki she'rlari, asosan, kattalarga mo'ljallangan. Ular shoirning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalardan olgan taassurotlarining ifodasi tarzida bunyodga kelgan. Shoirning ana shu mavzudagi she'rlari 1932- yilda „Hayqiriq“ nomi ostida maxsus to'plam shaklida Toshkentda chop etilgan. O'n bir she'r va bir kichik poemani o'z ichiga olgan bu birinchi kitobning nomlanishi ham ramziy xarakterda edi.

Bu davrda Samarqandda (1929- yilning boshida) bolalar adabiyoti to'g'risida kengash bo'lib o'tadi. Kengash Sh. Sa'dullaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Unda quvnoq bolajonlarning baxtiyor hayotini ifodalash tuyg'usi kuchayadi.

Toshkent va Buxoro o'quv yurtlarida ta'lif olayotgan Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Sulton Jo'ralar bolalar uchun yozish an'anasiniboshlab bergen edilar. Sh. Sa'dulla ular bilan bir safda

turib, ijod qila boshladi. 1931- yilda O'zbekiston Davlat nashriyotining bolalar va yoshlar adabiyoti bo'limiga muharrirlikka ishga taklif etiladi.

1950- yilda Sh. Sa'dulla I. Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S. Marshakning „She'r va ertaklar“ asarini o'zbek kitobxonlariga tortiq etishdi. Shuningdek, Sh. Sa'dulla daniyalik mashhur ertakchi G. X. Andersen, rus yozuvchisi N. A. Nekrasovning asarlarini, L. Tolstoy va B. Jitkovning hikoyalarini, bolalar shoirlari M. Kvitko, A. Barto, M. Mirshakar, O. Bedyorov, M. Fayzulina she'rlarni, V. Lebedov-Kumechning yoshlik taronalarini, B. Gorbatovning „Bo'ysunmaganlar“ (1953), V. Oseyevaning „Vasyok Trubachev va uning o'rtoqlari“ (1954) povestlarini, Korney Chukovskiyning „Doktor Voyjonim“ (1966) asarini ona tilimizga tarjima qilgan.

AYIQ

O'rmonda bo'lganmisiz?
 Ayiqni ko'rganmisiz?
 Ustida po'stini bor,
 Pisand emas unga qor.
 Men uning naslidanman,
 Ayiqning aslidanman.
 Otamdan qoldi po'stin,
 O'sha po'stin menga to'n.
 Farqim shu: men qo'g'irchoq,
 Bolalarga o'yinchoq!

BUZOQ

Men buzoqman, buzoqman,
 Shoxim chiqqan — suzoqman.
 Lekin yumdalab tortmang,
 U yon-bu yonga otmang.
 Iflos yerga yo'latmang,
 O'yinchoqman, qulatmang.
 Buksangiz qayrilaman,
 Oyoqdan ayrilaman.
 Sigir bo'lmayman unda,
 Qaymoq bermayman kunda.
 Mayli, o'ynang erta-kech,
 Lekin ozor bermang hech!

TOYCHOQ

Toychog'im bor — uchqur ot,
 Quralay ko'z — tulpor zot.
 Egar-jabduq uraman,
 Minib, olg'a suraman.
 O'zi yog'och, yoli qil,
 Ovunchog'im, olg'a yet!

ULOQCHAM

Kichkina qora — uloq,
O'ynar oshib umbaloq,
Men bilan inoq, o'rtoq.

Ko'kat bersam yamlaydi,
Orqamdan hech qolmaydi.

Kappalaydi o't bersam,
O'ynaydi quloch kersam,
Suzadi musht o'qtalsam.

Boshchasida shoxi bor,
Dumchasida oqi bor.

MITTI

Mitti degan mushugim,
O'taketgan olg'ir, shum.
Mitti poylab turadi.
Sichqonvoyni ko'radi.

Sichqon mushukni ko'rib,
Qochar teshikka urib.
Sichqon qochib qutular,
Mushuk esa tutilar.





SHUHRAT

(1918–1993)



Iqtidorli shoир, taniqli nosir Shuhrat 1918- yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U Nizomiy nomidagi davlat pedagogika institutini bitirgandan keyin nashriyotlarda, „Sharq yulduzi“ jurnali tahririyatida, Yozuvchilar uyushmasida faoliyat ko‘rsatgan. 1935-yildan o‘z asarlari bilan vaqtli matbuotlarda ishtirok eta boshladi. Shuhrat o‘n beshdan ortiq she’riy to‘pamlarning muallifidir.

Bundan tashqari, u „Shinelli yillar“, „Oltin zanglamas“ va „Jannat qidirganlar“ singari romanlari bilan ham keng kitobxonlar e’tiborini qozongan yozuvchidir. Shuningdek, Shuhrat A. S. Pushkin, G. Geyne, T. Shevchenko, R. Tagor, A. To‘qay, Nabi Hazriy va A. Mitskevich kabi qardosh xalqlar adabiyotining yetakchi vakillari asarlarini ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shuhratning bolalarga bag‘ishlangan bir qator poema hamda balladalari o‘zining ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Vatan ozodligi uchun kurashgan ayol „To‘maris“ haqidagi balladasi bu jihatdan ibrachtadir.

Shoир va adib Shuhrat 2003- yilda „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan taqdirlangan.

TO'MARIS

Uzoq-uzoq o'tmishlar
 Tarixin titsam,
 Massagetlar shonidan
 Bir qissa bitsam.

Afsona deb, kitobxon,
 Qo'limni tutma,
 Shonli, uzoq o'tmishdan
 Ko'zing berkitma!

Axir qancha chuqurdan
 Qaynasa buloq,
 Suvi shuncha pok bo'lur,
 Shuncha totliroq.

Ko'hna tarix bu kunga
 Gar bo'lsa ibrat,
 Uni eslab turmoqlik
 Kerakdir albat.

Afsonaga o'xshaydi
 Qissaning o'zi,
 Ammo unda mavjuddir
 Haqiqat izi.

Haqiqatdan tug'ilar
 Ba'zan afsona,
 Ulush qo'shsa ne ajab
 Ertakchi ona.

Baxshi unga bog'lasa
 Qanot va quyruq,
 Qalbi bergach ko'ksidan
 Shunday bir buyruq.

Tariximiz ko'p ulkan,
 Keksa, beqiyos,
 Har yili yuz dostonga
 Bo'lur bir asos!

Amudan suv ichganmiz
 Cho'lda mol boqib,
 Bobotog'da yurganmiz
 Lolalar taqib...

Ba'zan dushman kelardi
 Dolboyin qoqib,
 Jang qilganmiz qirlarda,
 Tunda o't yoqib.

Bir kun yurtga ot soldi
 Bosqinchi Eron,
 Kayxusravning niyati:
 Yer-suv, mulk, qiron...

— Bosh eg! — dedi ellarga,—
 Men yashay mag'rur.
 Men o'tganda qo'lingni
 Qovushtirib tur!

Menga bo'shat uyingning
 Yumshoq to'rini,
 Menga bo'shat yoz chog'i
 Salqin so'rini.

Kabob yasa qo'zining
 Barra go'shtidan.
 Xazinamga soliq yig'
 Bog', qir, dashtidan!

Haramimga to'plansin
 Tam-tam go'zallar.

Shavkatimga to‘qilsin
Doston, g‘azallar.

...Nayrang bilan Amudan
O‘tdi ot solib.
Bayrog‘ida shum ajal,
Erksizlik olib.

Tinch bir o‘lka oromin
Yo‘qotdi shunda,
Hatto go‘dak ko‘ksiga
O‘q otdi shunda...

El-u yurtni qopladi
Motam libosi,
Qon yig‘ladi hattoki
Qo‘lida g‘ozi.

Qon yig‘ladi el-elat,
Urug‘ va aymoq.
Qon yig‘ladi dala-tuz,
Sahro, qir va bog‘.

Qon yig‘ladi beshikda
Tilsiz norasta,
Qon yig‘ladi chol-kampir,
Dillari xasta.

Qon yig‘ladi bog‘da gul,
Qirda chechaklar,
Qon yig‘ladi nomus deb,
Qiz, kelinchaklar.

Qon yig‘ladi qo‘zi-qo‘y
Taqir o‘tloqda.
Qon yig‘ladi „Suv! Suv!“ — deb
Dehqon qirg‘oqda.

Shunda chiqdi otilib
 Ona To'maris.
 — O'lim yovga! — dedi u,—
 Bokmaymiz hech tiz!

Bizni sahro burguti,
 Lochini derlar,
 Bizga aziz, muqaddas
 Bu ona-Yerlar.

Dushman oti nag'alin
 Izi tushmasin,
 Bog'imizdan biror qush
 Bevaqt uchmasin.

Uyat bizga — dushmanga
 Bosh egib yashash!
 Qarang, dushman mol-mulkni
 Qilur xomtalash!

O'choqdagi olovim
 So'nmasin, desang,
 Ariqlarda suvlarim
 Tinmasin, desang;

Gullarimning shoxlari
 Sinmasin, desang,
 Bola-chaqam qon yig'lab
 Qolmasin, desang;

Qo'llarimga yov zanjir
 Solmasin, desang,
 Ona yurtim daxlsiz,
 Muqaddas, desang;

Desang, ona elimning
 Aziz tuprog'i,

Desang, bevaqt so'lmasin
Hatto yaprog'i;

Sariq xazon bo'lmasin
Yorim jamoli,
Qon hidiga to'lmasin
Bahor shamoli;

Bulut ichra tolmasin
Yorqin quyoshim,
O't ichida yonmasin
Qir, dala-toshim;

Bo'g'zimda qolmasin
Erk to'la kuyim,
Aylanmasin azaga
Bazmim va to'yim;

Oyoq osti bo'lmasin
Ajdodim go'ri,
Podam ichra oralab
Yurmasin bo'ri;

O'tirmasin yov chiqib
Uyim to'rige,
Suv sepmasin tandirda
Qolgan qo'rimga;

Bukilmasin ellikka
Yetmasdan belim,
Kesilmasin og'zimda
Bu biyron tilim;

O'yilmasin ko'zlarim,
Ko'rsin jahonni,
Qullikda tutmayman
Tanda bu jonni —

Desang, xalqim, bosh ko'tar,
 Tur, oyoqqa tur!
 Dushman kelur bostirib,
 Qarshisiga yur!

Omochni qo'y, qo'lingga
 Qilich, yarog' ol!
 Agar qilich topmasang,
 Bolta, o'roq ol!

Oyog'inga etik kiy,
 Belingni bog'la!
 Ona tuproq tuzini,
 Vaqt keldi, oqla!

Xoh otlisan, xoh yayov,
 Anjoming tuzat.
 Maydonga chiq, maydonga,
 Mardliging ko'rsat!

„Xo'p bo'ladi!“— dedi el,
 Turdi oyoqqa,
 Hatto chollar tayanib
 Hassa-tayoqqa.

Bitta mushtga aylandi
 Yurt, ovul, qishloq.
 To'lib ketdi lashkarga
 Qir-u soy, toshloq.

Kiyim-boshi qurama,
 Maqsad bittadir.
 Bir og'izdan barchasi
 Xitob etadir:

— Sensan yurtning onasi,
 Onalizing qil!

Sening so'zing biz uchun
Amri vojib, bil!

O'zing boshla maydonga,
Boshla, To'maris!
Qolsin bizdan tarixda
Shonli porloq iz!

Qo'li bog'liq yashashdan
O'lim a'lodir.
Bosqinchi yov o'limga
Mahkum balodir.

O'zing boshla mardona,
Boshla, To'maris,
Yo o'lamiz, yo yurtni —
Shonga ko'mamiz!

— Xo'p! Men rozi! — dedi u, —
Tinglang alqissa:
Mening uchun qonundir,
Elim ne desa.

Boshlab ketdi lashkarni,
Ostida tulpor.
Xalq ishonchi qalbiga
Yana kuch to'plar.

Qilich, qalqon yarashar
Mag'rur bastiga.
Uzun sochi olingan
Qalpoq ostiga.

Ishonch bilan lashkarni
Boshlab ketdi u.
Necha qir-u soylardan
Boshlab o'tdi u.

Jangga kirdi mardona,
Iftixor bilan.
Ishonch bilan, o'ch bilan,
Nomus-or bilan.

G'urur bilan, kuch bilan,
Matonat bilan,
G'azab bilan, zARB bilan,
Zo'r nafrat bilan...

Ming-minglab bosh sapchadek
Uzilib qoldi.
Ming-ming tana majolsiz
Cho'zilib qoldi.

Qonlar qonga qorishdi,
O'lik o'likka,
Otlar jangga kirardi
Pishqirib tikka.

Duch kelganni kesadi
O'rog'-u bolta,
Uzun qilar so'yillar,
Qo'l bo'lsa kalta!

Mundoq boqsa Kayxusrav,
Qo'shin holi tang,
Xos askarin tushirib,
O'zi qildi jang.

Amin edi mahorat,
Kuch, bardoshiga,
Mard To'maris ot qo'yib
Chiqli qoshiga.

Qilichbozlik boshlandi
Yakkama-yakka,
Tashlanardi otlari
Arslondek tikka.

Qalqon to'sib qolardi
 Qilich zARBini,
 Ikki tomon garovga
 Tikkan qalbini.

Qalbinimas, hayoti,
 Erk, iqbolini,
 Yurt nomusi, sharafi,
 Istiqbolini!

Ming chirandi Kayxusrav,
 Bo'Imadi biroq!
 Qochib qoldi qo'shinin
 Tashlab tumtaroq!

Quvib ketdi mardona
 Yovqur To'maris,
 Qorasini yo'qotmay
 Borar izma-iz.

Shiddatida bor edi
 Yigit viqori,
 Yetib borib qilichin
 Tutib yuqori —

Yelkasiga tushirdi
 Boshi aralash.
 Deya: — O'zi bo'lurmi
 Tinch elni talash?!

Otdan uchib Kayxusrav
 Mukkalab ketdi,
 Qora qonga belanib
 Yoqasin tutdi.

Titrar edi maqtanchoq,
 Chiranchoq qalbi,

Bir-biriga tegmasdan
Po'rsildoq labi.

Uchib ketgan qo'lidan
Tilla sop qilich,
Zarbof to'ni der edi:—
— Endi jondan kech!

Shafqat tilab boqardi
To'marisga u,
Tilin o'nglab ololmas
Hatto so'zga u.

Kalta qildi so'zini
To'maris esa:
„Hukm shudir — qahramon
Xalqim ne desa!“

Bir og'izdan xalq dedi:—
— Dushmanga o'lim!
Xalq qalbida nafrati,
Qahri limmo-lim!

Bosh dumalab yotardi
El oyog'ida,
Oltin sirg'a yiltillab
So'l qulog'ida!

Mard To'maris so'z olib,
Dedi: — Xaloyiq!
Yovga bergan zarbingiz
Maqtovga loyiq!

Do'stga bo'lgan mehrcha
Yovga qahringiz!
Endi butun ozoddir
Qishloq, shahrингиз!

(So'ngra boqdi dumalab
Yotgan u boshga:) — Tiriklikda to'ymovding
Sira qon-yoshga.

Mana endi to'yib ol,
Boshing ko'mib ich.
Bu gal senga kerakmas
Qalqon-u qilich! —

Deya uzilgan boshni
Chuqurga otdi.
Chuqurdagi qonga bosh
Ko'milib botdi!


Xalq olqishlab qizini
Dedi:— Tashakkur!
Aqling — daryo, mehring — ko'l,
Har bir so'zing — dur!

El tinchidi, o'lkada
Ur-sur yo'qoldi,
Yovdan faqat tuproqda
Qonli iz qoldi.

Tunda yomg'ir-sel kelib,
Yuvdi uni ham,
Go'yo qayta boshidan
Poklandi olam!

Tutdi omoch qulog'in
Erksevar dehqon,
Mard To'maris dovrig'in
El qildi doston.





Tolib YO'LDOSH

(1919–2002)



O‘zim haqimda

...Onam juda savodxon ayol edi, onamning otasi — Rizo buvam onamni shaharning nomdor otinlari qo‘lida o‘qitib, savodini chiqargan. Oqibatda onam yoshlidanoq „bulbul otin“ deb nom chiqargan. O‘zi ham maktab tutib qizlarga savod o‘rgatgan. Ayniqsa, sho‘ro davrida yozda qishloqda, qishda shaharda maktab ochib bolalarni o‘qitgan.

Men 1919- yili Toshkentda — eski shahar rastasi yonboshidagi Hovuzbog‘ota mahallasida tug‘ilganman. Maktabda, pedbiliemyurtida, keyinchalik Toshkent davlat universitetining til va adabiyot fakultetida tahsil olganman. Yo‘llanma bilan borib, umr yo‘ldoshim Tojixon ikkimiz Qo‘qon tomonlarda muallimlik qilganmiz. Keyinchalik Toshkentda bosmaxonalarda ishchi, hozirgi „Tong yulduzi“ bolalar gazetasida adabiy xodim bo‘lib xizmat qilganman.

Hayotimning oltmis yildan ortig‘ini she’riyatga bag‘ishladim. Shu kungacha qirqdan ortiq kitobim chiqqan bo‘lsa, shulardan teng yarmi bolalarga bag‘ishlangandir. Birinchi kitobim „Chol bilan bo‘ri“ning ham bolalarga bag‘ishlangani bejiz emas. Nashriyotlar mening „Baxtiyorlar qo‘srig‘i“, „Gul haqi“ (1972),

„Ko'ngil deganlari“ (1976), „Yoz elchisi“ (1986), „Toychog‘-ligim“ (1988), „Umid g‘unchasi“, „Do‘mboqchalar“, „Bizning uyda“, „Yasha“, „Quyosh bilan suhbat“, „Sho‘xsiz, shirinsiz“ (1997), „Boboyong‘oq“ singari kitoblarimni nashr etgan bo‘lsa, ularning barida bolalarimizning beg‘ubor hayotini, orzu-umidlarini hamda axloq-odoblarini tarannum qilganman.

Hukumatimiz adabiyotdagи xizmatlarimni e’tiborga olib, 1989-yili meni „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi“ unvoni hamda 1998- yili esa „El-yurt hurmati“ ordeni bilan taqdirladi. Men bundan g‘oyat minnatdorman. Haqiqiy shoir mukofotlar uchun xalqiga, bolalarga xizmat qilmaydi. Ammo kamtarona xizmating munosib bahosini olsa, boshing osmonga yetar ekan.

NON TANLAMA

Nega biz non tanlamaymiz,
 Sen tanlaysan?
 Non tanlama, — desa yana
 Qiltanglaysan.
 Dehqon bo'lib, qo'riq ochib
 Ekkanmiding?
 Og'ir yillar zaxmin mendek
 Chekkanmiding...
 Chunki o'zing mehnat qilib
 Topmagansan.
 Yuz-ko'zlariling o'tda kuyib
 Yopmagansan.
 Oqmi, qora bo'lsa hamki,
 Shu — non bo'lsin.
 Non bu hayot, sarg'aytirgan
 Ochlik o'lsin!
 Sag'al suvi qochgan bo'lsa,
 Qattiq deysan.
 Tokay endi bug'i chiqib—
 Tursa yeysan?
 Ba'zilar bor nonni xo'rlab,
 Otib o'ynar.
 Bir kun kelib bu qilmishin
 O'zi o'ylar.
 Ushog'i ham non-ku uni,
 To'kib, sochma!
 Aziz tutgin, uvolga hech
 Sen yo'l ochma.

GAPNING JONI

Qiziq, gapning joni bormi,
 Gap ham tirik jonivormi?
 Ko'rmaganman nega men hech,
 So'zlashsak-da erta-yu kech.

—To‘g‘ri, uni ko‘rish qiyin,
 Ko‘rasan ham bir kun keyin.
 Omon uzoq o‘ylab qolar,
 Xayol bilan o‘ynab qolar.
 Ota o‘g‘lin anglab shunda:
 —Hech qanday sir yo‘qdir bunda.
 Zar qadrini bil avvalam,
 O‘ylab gapir so‘ngra, bolam.
 Sayrayverma apil-tapil,
 Yon-veringga qarab gapir.
 Gapning yaxshi, yomoni bor,
 Kamida ming tomoni bor.
 Tishi ham bor, ishi ham bor,
 Yozi ham bor, qishi ham bor.
 Guli ham bor, tikani ham,
 Uning jonli ekani ham—
 Ana shunda, — der otasi,
 To‘g‘ri so‘zning yo‘q xatosi.

UZUMLAR OILASI

Uzumlar ham bir oila—
 Siz va bizday yashar ekan.
 Urug‘-aymoq degandayin
 Turi yuzdan oshar ekan.
 Samarqandning „Yakdona“si,
 Derlar uzumlar onasi.
 Otalari — „Katta qo‘rg‘on“
 Bobomizday ko‘pni ko‘rgan.
 „Hasayni-yu Husayni“lar
 Emish o‘g‘illari bular.
 Oq-u qizil „Shivirg‘oni“
 Onalarin dil-u joni.
 Suyuk qizlar ekan qarang—
 Anor dona, yoquti rang.
 „Shakar guli“ — kennoyisi
 Boshdan oyoq atir isi...

Buvalari — „Buvaki“ mish,
 Liqko uzum — „Bibi kumush“.
 „Tog‘ uzumi“ — ammalari,
 Bir urug‘dan hammalari.
 Bari ishkom, so‘ridalar,
 Katta bog‘ning to‘ridalar.

YERNING TILI

Bobomlarcha yerning ham
 Tili bor — so‘zlar emish.
 Yer so‘zlasa el-yurtning
 Baxtini ko‘zlar emish.
 Men hech ko‘rgan emasman,
 Ishonmadim sira ham.
 Bobom derlar uqtirib:
 — Yer tili bor chinakam.
 Hali yer-la so‘zlashish,
 Yoshsan, kelmas qo‘lingdan.
 Yer tilini o‘rgansang,
 Chechak unar yo‘lingdan.
 Uni ko‘r, derlar bobom!
 Havas bilan boqaman.
 Poyoni yo‘q bog‘-chaman
 Mehrin dilda yoqaman.
 Tap-taqir cho‘l bo‘lsin, sen
 Parvarish et, gullaydi.
 „Yerni boqsang, boqadi“,
 U kuningga yaraydi.
 Yerning gapirgani shu,
 Gapirtirgan biz, bolam.
 Mehnat qilsa el barcha,
 Gapirar butun olam.
 — To‘g‘ri, bobojon,—deyman
 Bellaridan quchoqlab,
 Bobomlardek bo‘lishga
 Men ham o‘zimni chog‘lab.



Asqad **MUXTOR**

(1920—1997)



Atoqli shoir va nosir Asqad Muxtor 1920- yilning 23-dekabrida Farg'ona shahrida temiryo'l ishchisi oilasida tug'ilgan. U 11 yoshida otadan yetim qolib, bolalar uyida tarbiyalangan. Maktabni tugatgach, Asqad Muxtor O'rta Osiyo davlat universitetiga (1938) kirib o'qiydi. So'ng Andijon pedagogika institutida „O'zbek adabiyoti“ kafedrasining mudiri bo'lib ishlaydi.

Asqad Muxtorning Toshkentga kelishi uning faoliyatida yangi sahifa ochdi. U Respublika gazetalari tahririyatlarida bo'lim mudiri, mas'ul kotib, „Sharq yulduzi“ jurnalida bosh muharrir (1960—1965), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotib (1957) bo'lib ishladi. „Guliston“ jurnali va „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“ haftaligiga muharrirlik qildi.

Asqad Muxtor „Tilak“, „Tong edi“, „Totli damlar“ singari ilk she'rlari (1935—1938)da she'riyatning maqsad va vazifasini, shoirning jamiyat oldidagi burchini aniqlab olishga intildi. U she'riyatga „Qalba qanot“, „Dardga davo“ beruvchi deb qaradi. Shoir ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan „G'alaba ishonchi“, „Jangchining bayram kechasi“, „Tug'ishganlar qaytdi“, „Sog'inish“ singari qator she'riy asarlarini yaratib, xalqni fashist bosqinchilariga qarshi kurashga undadi. Vatan go'zalliklarini, tunganmas boyliklarini, xalq hayotidagi katta o'zgarishlarni tasvirlovchi „Po'lat quyuvchi“ (1947), „Hamshahar-

larim“ (1949), „Rahmat, mehribonim“ (1954), „Chin yurakdan“ (1965) she'riy kitoblarini yozdi.

Yozuvchining „Daryolar tutashgan joyda“ (1950), „Qora-qalpoq qissasi“ (1958), „Buxoroning jin ko'chalari“ kabi qissa-larida, „Opa-singillar“ (1955), „Tug'ilish“ (1963), „Davr mening taqdirimda“ (1964), „Chinor“ (1973), „Amu“ kabi romanlarida zamonamizning muhim muammolari o'z ifodasini topgan.

„Chin yurakdan“ (1956) she'riy kitobi, „Hayotga chaqiriq“ (1956), „Dunyo bolalari“ (1962) hikoyalar to'plamlari o'zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi.

Asqad Muxtor „Mardlik cho'qqisi“ (1948), „Yaxshilikka yaxshilik“ (1949), „Samandar“ kabi pyesalar ham yozgan.

Sofokl, R. Tagor, A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov, V. V. Mayakovskiy, M. Gorkiy, T. Shevchenko, A. Blok, A. Korneychuk asarlari Asqad Muxtor tarjimasida o'zbek kitobxonlarining ma'naviy mulkiga aylangan.

Lirik shoир, taniqli adib, mohir tarjimon sifatida o'zbek madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Asqad Muxtor „O'zbekiston xalq yozuvchisi“ unvoni va Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lган.

HAFTA

„Hafta“ degani — yettidir,
 Oilada yettimiz.
 Oyga, yilga nisbatan
 Biz, albatta, mittimiz.
 Ammo-lekin biz bo‘lmasak,
 Na oy bor-u, na yil bor.
 Bizdagи mazmun bilan
 Odamning umri dilbar.
 Yettovlonmiz, yetti o‘g‘lon,
 Yetti og‘ayni botir.
 Ana, birinchi bo‘lib
 Yakshanba kelayotir.

YAKSHANBA

„Yak“ degani — bir degani,
 To‘ng‘ichiman haftaning.
 Yak bo‘lsam ham, yakka emas,
 Bir jangovar safdaman.
 Vazifam bor — dam beraman
 Mehnat qilgan kishiga.
 Har haftasin bezayman,
 Yakun yasab ishiga.
 Mehnatkashning vijdoni pok,
 Rohat qilib uxlagan.
 Bolalarni ergashtirib,
 Yor-u do‘stin yo‘qlagan.
 Dars ham yo‘q, ish ham yo‘q,
 O‘yin-kulgi, tomosha.
 To‘y ovozi — karnay-surnay,
 Devor osha, tom osha...
 Katta yo‘lning gulshaniman,
 Orom oling gulshanda.
 Har haftada mehmonimsiz,
 Mening otim Yakshanba.

Yettovlon, yetti o'g'lon,
 Yetti og'ayni botir.
 Ana, ikkinchi bo'lib
 Dushanba kelayotir.

DUSHANBA

„Du“ degani ikkidir,
 Mehnat bizning zotimiz.
 Yakshanbaning ukasiman,
 Qofiyadosh otimiz.
 Yoqtirmaydi meni yalqov,
 Og'ir, deb urushadi.
 Ammo bugun ish yurishsa,
 Bir hafta yurishadi.
 Hordiqdan so'ng lanjlikni
 G'ayrat bilan yenginglar,
 Yangi kuch-u havas bilan
 Bel bog'laydi ming-minglar.
 Mehnat mendan start olar,
 Men ochaman haftani.
 Mehnat esa yurgizadi
 Zavod, dizel, shaxtani.
 Meni tanir bolalar ham
 Tongim sabolaridan,
 Maktabdagi qo'ng'iroqning
 Kumush sadolaridan.
 Yettovlonmiz, yetti o'g'lon,
 Yetti og'ayni botir,
 Ana, uchinchi bo'lib
 Seshanba kelayotir.

SESHANBA

„Se“ degani — uch degani,
 Hafta uchga kiradi.
 Hamma joyda, hamma joyda
 Mehnat kuchga kiradi.

Ajrab turgan joyim yo'q,
 Oddiygina bir kunman.
 Ammo shon-u shuhratdan
 Toj kiyishim mumkin man.
 Bilasizmi, Gagarin
 Seshanba kun uchgandi.
 Sirdaryoning Farhod GESi
 Shu kun ishga tushgandi.
 Tasodifmi? Bo'lsa bordir.
 Shunisi qonuniyki,
 Bir haftada nima bo'lsa,
 Beshdan biri — meniki.
 Ha, oddiyman, ko'p qator,
 Hech: „Men — buyukman“ demasman.
 Ammo ko'rib turibsizki,
 Uncha oddiy emasman.
 Yettovlonmiz, yetti o'g'lon,
 Yetti og'ayni botir.
 Ana, to'rtinchchi bo'lib
 Chorshanba kelayotir.

CHORSHANBA

„Chor“ degani — to'rt degani,
 To'rtinchiman safda men.
 Yarim yo'lga yetdingiz,
 Qoq beliman haftaning.
 Bir-birining davomi-da,
 Bel bo'lmasa bosh qani?!

Men kattaman demagin hech,
 Kamsitmagin boshqani.
 Biz shunaqa — bir butun,
 Bamisoli zanjirmiz.
 Birimizda ish unmasa,
 Hammamiz ham ranjiymiz.
 Xuddi shunday shaharlar ham,

Xuddi shunday — odamlar,
 Sinfdag'i do'stlaringiz,
 Zavoddagi dadanglar.
 Hammasi ham bir-birisiz
 Bosolmaydi ilgari.
 Bog'liq ekan bir-biriga
 Hayot-mamot singari.
 Yettovlonmiz, yetti o'g'lon,
 Yetti og'ayni botir.
 Ana, beshinchi bo'lib
 Payshanba kelayotir.

PAYSHANBA

„Pay“ degani — „panj“dan chiqqan,
 Panj, ya'ni beshinchi.
 Otim g'alat, ammo birov
 Meni no'noq desin-chi!
 Yoqtirmayman — kimda-kim
 Meni bekor oldirsa.
 Yoki mening ishimni
 Juma kunga qoldirsa.
 Bo'lsa deyman ma'noli
 Daqiqamning barchasi,
 Nega desang men ham sening
 Umrining bir parchasi.
 Qalbingni men ham jindak,
 Boyitaman galimda,
 Zimdan hisob so'rayman
 Aylanib kelganimda.
 Sizning kami-ko'stingizdir —
 Bizning kami-ko'stimiz.
 Bizning yutuq — sizning yutuq,
 Biz odamning do'stimiz.
 Yettovlonmiz, yetti o'g'lon,
 Yetti og'ayni botir.
 Ana, oltinchi bo'lib
 Juma ham kelayotir.

JUMA

Olti — asli „shash“ bo‘ladi.
 Qofiyasiz yuraman.
 „Shashshanba“ni aytish qiyin,
 Shuning uchun Jumaman.
 Juma degan bola ham bor,
 Juma kuni tug‘ilgan.
 Uginamas, hammangiz
 Mehrim bilan yo‘g‘rilgan.
 Har biringga baxt keltiray,
 Ilhom solay dilingga.
 Kunlar qadriga yeting,
 Ixlos qo‘ying bilimga.
 Kunlar to‘plab misqollab
 Bayramlar shodligini.
 Kunlar bunyod etadi
 Umring obodligini.
 Umr o‘zi kunlardandir,
 Shu kunlarning biriman,
 Men oxirgi mehnat kuni,
 Haftaning taqdiriman.
 Yettovlonmiz, yetti o‘g‘lon,
 Yetti og‘ayni botir.
 Ana, yettinchi bo‘lib
 Shanbavoy kelayotir.

SHANBA

Yak, du, se, chor, panj... emas,
 Men shunchaki Shanbaman.
 Ish haftasi bekildi,
 Men misoli tambaman.
 Ammo maktablar ochiq,
 Dam kuni deb ovunmang.

Ishchi ko'proq dam olsin deb,
 Yakshanbaga muovinman.
 Teatrga, ovga borsin,
 Ko'proq o'qisin kitob.
 Sog'ligiga madad bo'lsin
 Sof havo, suv, oftob.
 Shunday hurmatga loyiq
 Bizning elda ishchilar.
 Butun boylikni yaratgan
 Eng tabarruk kishilar.
 Shunday qilib, biz mehnatda,
 Yetti og'ayni botir.
 Quloq soling: bir zvenodek,
 Haftangiz kelayotir!
 „Haft“ degani — yettidir,
 Oilada — yettimiz.
 Oyga, yilga nisbatan
 Biz, albatta, mittimiz.
 Ammo-lekin biz bo'lmasak,
 Na oy bor-u, na yil bor.
 Bizdagi mazmun bilan
 Odamning umri dilbar.





Hamidulla YOQUBOV

(1921–2001)



Taniqli bolalar shoiri Hamidulla Yoqubov 1921- yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Pedagogika bilim yurtini bitirgach, bir necha yillar o'qituvchilik qilgan.

Hamidulla Yoqubov ikkinchi jahon urushining qatnashchisidir. Uning „Salom berib o'tamiz“, „Oyga poyga“, „Telegramma“, „Anorzor“, „O'n bola“, „Quyosh sovg'asi“ kabi o'nlab kitoblari nashr etilgan. Shoirning she'rlari ixcham va ravonligi bilan ajralib turadi. H. Yoqubov „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi“ unvoni bilan taqdirlangan.

SHO'RTAN GAZCHISI

Sho'rtan azim,
 Bitmas gazim,
 Iqboli Gazli qiyos.
 Yer qa'ri o't,
 Keng bag'ri o't,
 Misoli ko'mma quyosh.
 Jon-jahdimga,
 Dov shahdimga
 Do'zax otashi taslim.
 Men devkorman,
 Olovkorman,
 Har ishga qodir naslim.
 Gazdan yayrab,
 Dashtda yashnab,
 Bahra olar cho'lquvar.
 Quvur bo'ylab,
 Yelib o'ynab
 Otash uzoq yo'l yurar.
 Lov-lov yonsin,
 Kuchga qonsin
 Sirdaryo nurxonamiz.
 Mayli kun-kech
 O'choqmi, pech
 Yoqsin sex, gulxonamiz.
 Sho'rtan azim,
 Qondir gazim,
 Tugamaydi alanga.
 Qarshi dashtim,
 Oltin dashtim —
 G'azinamiz Vatanga.

HOVLIM

Hovlim gulshan,
Chah-chah kulsam,
Haqqim bor,
Ho,
Haqqim bor.

Uyim-joyim —
Gul chiroyim,
Faxrim bor
Ho,
Faxrim bor.

O‘yinchoq ko‘p,
Chin o‘rtoq ko‘p
Hovlimda,
Ho,
Hovlimda.

Quvnoq, sho‘xman,
To‘kis-to‘qman
Davrimda,
Ho,
Davrimda.

Tok tagi soz,
Suv labi soz,
Saranjom,
Ho,
Saranjom.

Mehmon bo‘lib
Kelgin kulib.
O‘rtoqjon,
Ho,
O‘rtoqjon.

OQ CHASHMA

Oq chashma,
 Oq chashma,
 Oq chashma, qandoq chashma?
 Qir, adir qaynoq chashma!
 Balki o'rakach tog'lardan,
 Yashil o'tloq bog'lardan
 Silqillab chiqqan chashma,
 Bilqillab chiqqan chashma.

Oq chashma qanday chashma?
 Chashmaday qaynar chashma.
 Rangi paxtadan oqdir,
 Nurdek beg'ubor, pokdir.
 Sog'sa sira sop bo'lmas,
 Qatracha isrof bo'lmas.

Oq chashma, oppoq chashma,
 Fermada har yoq chashma:
 Sog'in har xil sigirlar,
 Ola, targ'il sigirlar,
 Yozin-qishin boqilar,
 Mashinada sog'ilar.

Oq chashma, kumush chashma,
 Farovon turmush chashma.
 Sigirni oshna qilgan,
 Sutini chashma qilgan.

Mehribon molboqarning,
 Azamat sutsog'arning
 Mehnati asl chashma,
 Himmati asl chashma.

BIR, IKKI, UCH DEYMAN

Bir, ikki, uch deyman,
Uchdan qolgan puch deyman.

Valijon a'lo o'qir,
Besh bahosi g'uj deyman.

Darsga yalqov Teshaga
Nuqlul ikki, uch deyman.

Yumush qilgan dastyorni
Mehnatkash, serkuch deyman.

So'kong'ichning tiliga
Garmdori, murch deyman.

Salom bergen bolani
Rahmat aytib, quch deyman.





Po'lat MO'MIN

(1922—2004)



Po'lat Mo'min yoshligidanoq adabiyotga havas qo'ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan vaqtida adabiyot to'garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o'qidi, o'rgandi. Hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o'qidi, maktablarda o'qituvchilik qildi. So'ngra O'zbekiston Davlat nashriyotida ishladi. P. Mo'min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi. Birinchi she'rlar to'plami 1949- yilda „Sayrang, qushlar“ nomi bilan nashr etildi.

Bolalar uchun ijod qilish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun qobiliyat va istakning o'zigina yetmaydi. Belinskiy ta'rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik ta'b egasi, go'zal tabiatи va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiyl, bolalarcha soddadil hamda dono bo'lsin, degan mazmunni anglatadi.

O'zbekiston xalq shoiri Po'lat Mo'minning ijodiy mehnati tufayli „Hunardan unar“, „To'g'ri o'sgan gul bo'lar“, „Aql qayerda bo'lar“, „O'rribosarlar“, „Oltin nay“, „Bir yarim Karim“, „Endi adashmaydi“, „Barcha bola do'st bo'lsa“, „Rahmatga rahmat“, „Gazpolvon ertak aytar“, „Chang yutar botir“, „Oftob

va odob“, „Yaxshilarga o‘xshasam“, „Bu juda soz“, „Eson va Omon“, „Oltmisht olti oltin qo‘l“, „Ustozlar izidan“, „Bolalar-ning baxti kulgan“, „Bir yuz bir oltin qo‘l“ she’riy to‘plamlari, „Chanoqvoy bilan Qovoqvoy“, „Bahodirning botirligi“, „Oq fil yo‘qoldi“, „Suqatoy-Konfetvoy“, „Ona bolam deydi...“ kabi ertaklari, pyesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she’r va qo’shiqlari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo‘lib qo’shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan.

PAPKA BILAN SIYOHDON

Siyohdon bilan papka
 Tushibdi hasrat — gapga.
 Gaplar cho'zilmish ancha,
 So'zlashibdi bilgancha.
 Papka debdi: — Siyohdon,
 Bu ishing juda yomon.
 Atrof to'ldi siyohga,
 Arzga boray qayoqqa.
 Bunaqangi bo'lma bez,
 Axir chiqib ketgin tez.
 Shunda papka ichidan
 Siyohdon debdi chindan:
 — Hurmatli do'stim, Papka,
 Mendan qilmagin o'pka,
 Uyi tomon ketganda
 Koptok qilib tepochanda,
 To'kilaman har yonga
 Ayb qo'yma sen menga,
 Egamiz o'zi nodon,
 Bizni asraydi yomon.
 Nima desa egamiz,
 Unga bo'yin egamiz.
 Egamdan ko'p hasratim,
 Taqdirlamas xizmatim.
 Ichim to'la non uvoq,
 Shu ham bo'ldimi siyoh?
 Papka debdi: — Siyohdon,
 Topgin iloj va imkon.
 — Qochgin, — debdi Siyohdon, —
 Egamiz bo'lsin sarson.
 Papkadan kitob, daftar:
 — Ma'qul, — debdi bu gaplar.
 Papka bir kuni taqqa —
 Qochmish noma'lum yoqqa...

O'sha papka egasi
 Qarabsizki, ertasi,
 Darsga kepti bepapka,
 Rosa qolibdi gapga.

TISH CHO'TKA, POROSHOK VA ATIRSOVUN ERTAGI

O'qib ko'ring, do'stlarim,
 Yozdim sizga bir ertak.
 Yaxshi payqab oladi
 Bo'lib tursa kim sergak.
 Afsona deb o'ylamang
 Yozganimni tag'in siz.
 Eshmat degan bolani
 Siz ham yaxshi tanirsiz.
 Ha, men uning ishlarin
 Sizga ta'rif etaman.
 Bilganimning ko'pini
 Bitta-bitta bitaman.
 Eshmat nima bo'pti-yu
 Yalqovlashib qolibdi.
 Keyin ancha darslardan
 „2“, „3“ ham olibdi.
 Maktabiga kechikib,
 Borar emish ba'zida.
 Vazifani bajarmay
 Qizararmish darsida.
 Tongda badantarbiya
 Qilmoq juda ham foyda.
 Lekin barcha ishida
 Yo'q-da tartib-qoida.
 Ozodalik odamning
 Tani-joniga malham.
 Hammom degan joyga-chi
 Bormabdi uch oyda ham.

Ustidagi kiyimin
 Yurmas tozalab, taxlab,
 Hatto odat bo'yicha
 Yuvinmasmish yaxshilab.
 Qarang, bir kun Eshmatning
 Tishi og'rib qoldi-ku.
 Kuni bilan voy-voylab
 Borolmadi darsga u.
 Xo'sh, oshnalar, Eshmatni
 Hozir yozmay turamiz.
 Nega bunday bo'lganin
 Sababini ko'ramiz.
 Eshmatvoyda bor edi
 Poroshok, cho'tka, sovun.
 Yuvinganda bularni
 Ishlatmapti u nechun?
 Shundan keyin poroshok,
 Sovun bilan tish cho'tka
 Rosa suhbat qilishdi,
 O'tirishib bir chetga.
 Qani, keling, bilaylik,
 Uchalasin didini.
 Sovunxon gap boshlabdi
 Gurkiratib hidini:
 — Sizga aytsam rostini,
 Juda asl narsaman.
 Atirgullar husnidan
 Yashnab turar keng chaman.
 Mening atir hidimni
 Chamanzordan olishar.
 Xizmatimga hamisha
 Ko'plar qoyil qolishar.
 Agar gapni cho'zvorsam,
 Do'stlar meni kechiring,
 Fikr-u yodim tozalik,
 Dushmaniman kir-chirning.
 Kimki meni ishlatsa


Bo'lar sog'lom, ozoda.
 Shu ishimdan tarqatdim
 Yurtga yaxshi ovoza.
 Lekin mening qadrimga
 Eshmat sira yetmaydi.
 Qolib ketdim chang-chungda
 Qarang, parvo etmaydi.
 Oldinlari Eshmatning
 Yuzini ko'p yuvardim.
 Uning tani-jonidan
 Kasallikni quvardim.
 Ko'rdingizmi Eshmatning
 Qochip qopti mazasi.
 Qildi o'ziga o'zi,
 Tortmoqda u jazosin. —
 Bor-yo'q gapni gapirdi,
 Sovun rosa ko'pirdi.
 Tingladi ham tish cho'tka
 Va poroshok o'ltirib.
 Shu paytda to'satdan
 Jimlikni buzdi cho'tka.
 Soqolini silkitib,
 O'rnidan turdi tikka.
 — Qarang, bizning Eshmatni,
 Uxlolmaydi voy-voylab.
 Poroshok va men bilan
 Tish yuvmadi bir oylab.
 Oldinlari tishlari
 Ko'rinardi dur kabi.
 Bajarilardi nuql
 Eshmatning har talabi.
 Fabrikada men uchun
 Talay mehnat qilishgan.
 Keyin dorixonaga
 Tezda olib kelishgan.
 Men ham sizday aslman,
 Gavdam toza suyakdan.

Qadrlashar har yerda
 Do'stlarim chin yurakdan.
 Poroshokvoy ma'qullar
 Cho'tkavoyning so'zini,
 Ulug'sifat tutardi
 Poroshokvoy o'zini.
 Shunday qilib uch o'rtoq
 Rosa uzoq so'zlashdi.
 Eshmatvoyna har gapda
 Yaxshilikni ko'zlashdi.
 Endi, yana, eshiting,
 Eshmatvoydan gapni siz.
 Tish og'rig'i tuzalib,
 Ketgan emish bilsangiz.
 U boribdi doktorga
 Ushlab olib lunjini
 Kiribdi yurib zo'rg'a,
 Tishlariga doktor ham
 Achinganday bo'libdi.
 Ko'rsa Eshmat tishlarin
 Kir-chirlarga to'libdi.
 Doktor opa Eshmatga
 Ko'p nasihat qilibdi.
 Maslahatni ma'qullab,
 Eshmat uyga kelibdi.
 Tishlarini yuvibdi
 Poroshok-la cho'tkalab.
 Badantarbiya qilibdi
 Ertasiga ertalab.
 Bu ishlarni Eshmatvoy
 Odat qilib olibdi.
 Ko'rgan tanish-bilishlar
 Xursand bo'lib qolibdi.
 Eshmat barcha ishida
 Saqlar tartib-qoida.
 O'qishi ham sog'ligi
 Bo'lib qolgan joyida.



Obid RASUL

(1922—2001)



Taniqli bolalar shoiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi a'llochisi Obid Rasul o'z ijodiy faoliyatini jajji o'g'il-qizlarimiz uchun quvnoq she'rlar yozishga bag'ishlagan. Uning „Ko'k chakmonli yigitcha“, „Olmazor“, „Quvnoq bolalar“, „Asal amaki“, „Sadaf tishli amaki“, „Chashma“, „Keling bizning polizga“ singari bir talay kitoblari yosh avlodning ma'naviy mulkiga aylangan.

Obid Rasul uzoq yillar davomida maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaganligi uchun ham bolalarning fe'l-atvorini juda yaxshi bilardi. Shuning uchun pedagok shoirning she'rlari yosh kitobxonlar qalbiga tez yetib boradi.

Shuningdek, Obid Rasul uzoq yillar davomida yosh avlodga ta'lim berish bilan birga o'zi ishlagan Yangiyo'l shahri atrofidagi maktablar qoshidagi yosh ijodkorlarning to'garaklariga yetakchilik qilib, bir talay iqtidorli matbaa xodimlarining, jurnalistlarning sevimli ustoziga aylangan.

KITOB

Darslik kitob qo'lingda,
 Berilgandir u senga.
 Yirtmay ko'zday asrasang,
 Kerak ukang Erkinga.

Erkin ham but yuritsa,
 Muallim xursand bo'lar.
 Kitobga mehri ko'pni
 Sinfdoshlar xush ko'rар.

Kitobing qo'ldan qo'lga,
 O'tib borsa top-toza.
 Undan ko'plar shodlanib,
 Olishadi andoza.

Kitob bilim manbayi,
 Bu barchaga ayon — haq.
 Kitob o'qib yashasang,
 Umrинг o'tar xushchaqchaq.

XAYRIXON VA MAYLIXON

Bir tup shotut
 Va olmurut
 Ushlab qo'lda,
 Borar yo'lda
 Maylixon, Xayrixon.

O'zbek, qirg'iz,
 Go'yo egiz.
 Yon qishloqdan,
 Jon qishloqdan
 Xayrixon, Maylixon.

Maktab bog'in,
 Chor atrofin
 Etishar bog',
 Jon-jon o'rtoq
 Xayrixon, Maylixon.

PILLA — TILLA

Qaddi raso tut ko'chatim,
 Novda bargi shapaloq.
 So'kichakda ipak qurtim,
 O'rmalab yasar qo'noq.
 Dahasida tutam-tutam,
 Barg solaman to'ysin deb,
 Ardoqlayman erta kunda,
 Ipagini qo'ysin deb.
 Yig'dik, ana, sof mehnatim —
 Natijasi to'q pilla.
 Shoyi-atlas kiyar yurtim,
 Bebaho ipak-tilla.

TOSHKENT

Hur shahrimsan,
 Nur shahrimsan.
 Odamlar daryo —
 toshqin.
 U ko'chadan,
 Bu ko'chadan.
 Chiqishar ishga —
 shoshqin.
 Shahri azim,
 Senga ta'zim.
 Sen onaday —
 muqaddas.
 Ko'rgan odam,
 Butun olam
 Mehri senga —
 chambarchas.

SIZ MEHRIBONIM

Siz mening quyoshim,
 Mehribon onam.
 Siz bilan munavvar
 Hovli-yu xonam.
 Munisim, mo'tabar,
 G'amxo'rim onam.
 Manglayim to'rida,
 Boshda parvonam.
 Bahordan bahorlar
 Yaratgan aziz.
 Hikmatli murabbiy,
 So'zлari laziz.

TOP, O'RTOQ!

Ikki joyda ikki bo'lsa
 Juft bo'larmi yoki toq?
 Top o'rtoq!
 Shu tik turgan joyingda,
 Shimol-u sharq, g'arb qayoq?
 Top, o'rtoq!
 Oymi, quyosh yo yulduz,
 Qaysi biri yarqiroq?
 Top, o'rtoq!
 Kaklikmi yoki bulbul,
 Qaysi biri sho'x sayroq?
 Top, o'rtoq!

SINFDOSH

Chiroyli xat yozmoqqa
 Juda havasmand edim.
 A'luchi qiz — Qumriga:
 „Biroz yordam ber“, — dedim.

Shod boqib sinfdoshim,
 Cho'zdi yordam qo'lini.
 Endi men ham bilaman,
 „5“ olishning yo'lini.

HUNARMAND

Qo'lida cho'tka, moyi,
 Doim ochiq chiroyi,
 Bo'yoqchi Turg'un tog'am
 Yetmish hunarda bekam.
 U bo'yagan rom, eshik,
 Tunukali tom, eshik,
 Devorga chizgan naqshi,
 Qanday charaqlar yaxshi.
 O'zlari xo'p o'qigan,
 Ertak, she'rlar to'qigan.
 Yana usta pazanda,
 Qo'shiqchi ham sozanda.
 Uning yopgan shirmoyi,
 To'lin oyday chiroyi.
 Bo'yoqchi Turg'un tog'am
 Yetmish hunarda bekam.
 Tog'am kabi serhunar,
 Bo'lsang, hunardan unar.

TINCHLIK YASHAR

Vatanim — quyosh,
 Boshimni silar,
 U menga ko'z-qosh,
 Iqbolim tilar.
 Quvnab erkin, shod,
 Bo'laman katta.
 Baxt bor umrbod,
 Tinch mamlakatda.



Do'stjom **MATJON**

(1924—1990)



Do'stjon Matjon o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan shoirdir. U 1924-yil 17-iyunda Xorazm viloyatining Urganch tumanida tug'ildi. Xorazm davlat pedagogika institutini bitirgach, mehnat faoliyatini Gurlan tumanidagi „Madaniyat“ mакtabida ona tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lib ishslashdan boshladi. U ikkinchi jahon urushi qatnashchisidir. Urush tugagach, 1946-yilda ona yurtga qaytib, o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi.

Do'stjon Matjon „O'zbekiston“ deb nomlangan ilk she'rini 1939- yilda yaratdi. Shundan keyin uning „Tort qo'lingni“, „Akamga“ kabi she'rlari birin-ketin bosilib chiqdi.

Do'stjon Matjon Yangibozor tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri, „Xorazm haqiqati“ gazetasida maxsus muxbir va bo'lim mudiri, Xorazm viloyat Yozuvchilar uyushmasi mas'ul kotibi, viloyat teleradioeshittirish qo'mitasida rais o'rinnbosari lavozimlarida samarali faoliyat ko'rsatdi.

Do'stjon Matjon 60- yillarga kelib sermahsul shoir sifatida tanildi. 1959- yilda bulg'or xalq ertaklari asosida uning „Gavhartosh“ asari chop etildi. Shundan keyingi yillarda „Velko botir“, „O'g'illaringiz qo'shig'i“, „Kichkintoylar gapiradi“, „Tanti ayiq, ayyor tulki va asal“, „Mening orzuyim“, „Do'stlik“, „Mening shahrim — Xiva“ kabi kitoblari o'zbek va rus tillarida nashr etildi.

Shoirning asarlari ko'plab qardosh tillarga tarjima qilingan.

SUFLOR

Norjoni larning sinfida
 Borar edi imtihon.
 O'tirmasdi sira jum,
 Suflorlik qilib Norjon.

Goh asta „shpargalka“,
 Goh aytardi pichirlab.
 Bilag'on sanab o'zin,
 Tinchimasdi vijirlab.

Mana navbat, nihoyat
 O'ziga kelib qoldi.
 G'oziyurish qilib borib,
 Qo'liga bilet oldi.

Chiqdi unga biletdan
 Oddiygina bir savol.
 Mag'zini chaqa olmay
 Norjon bo'lib qoldi lol.

OCHKONI TENG BO'LISHAR

Ishqiboz ikki polvon,
 Kuch sinashar shaxmatda,
 Bellashadi beomon,
 O'yin qizir g'oyatda.

Kishnatib „sipoh“ini,
 Yelib borar Rustamjon.
 Raqibining „Shoh“ini,
 Qurshab oladi shu on.

Qarab turmas Omon ham,
 Xavfni sezadi zumda.
 Zehnini charxlab ildam,
 O'ta boshlar hujumga.

Labin tishlab Rustamjon
 Yurishni qayta boshlar.
 „Fil“ini qilib qurban,
 „Farzin“ga qarmoq tashlar.

Bu xatarli tuzoqqa,
 Chap berar yana Omon,
 O'zi qo'ygan qarmoqqa,
 Rustam tushar shu zamон.

Tez orada tugar „jang“,
 Bahsdan mamnun bo'lishar.
 Natija bo'lib durang,
 Ochkoni teng bo'lishar.

KO'CHAMDA BOR BIR BOLA

Ko'chamda bor bir bola,
 Bu she'rim o'sha haqda
 Nomin aytmayman, chunki
 Bundaylar oz sanoqda.
 Mazasi yo'q darslardan
 Yashirmoqlik ne darkor?!

Bu yil ham uchinchida
 O'qimoqda u takror.
 Qaylardadir sanqiydi,
 Maktabga kelmas yetib.
 Kech qolmagin, desalar
 Qo'yar qo'lin silkitib.
 Kitobni hech o'qimas,
 Futbolga chopar nuqlu.
 Oyisi ish buyursa,
 Mudom aldab qochar ul.
 So'zlari biram dag'al,
 Odobni hech bilmaydi.
 O'zidan boshqalarni
 Nazariga ilmaydi.

Tuzalmasa bu bola
 Doston etgum ta'rifin.
 Butun elga yoyaman
 Qo'shib ism-u sharifin.

UXLAMAYDIGAN QIZCHA

Qushlar to'xtab sayrashdan
 Qo'nalg'aga qo'ydi bosh.
 Qo'ylar tindi ma'rashdan,
 Uxlab qoldi hatto Mosh.

Faqat uxlamas qizcha,
 Kokillari qo'ng'iroq.
 Uyg'oq yotar tonggacha,
 Nomi uning — qo'g'irchoq.

SAMOKATIM

Samokatim, samokatim,
 Yog'och otim, saman otim.
 O'ynichoqlar ichida sen
 Rosa uchqur qanotim.

Chuh, ey, mening samokatim,
 Yog'och otim, saman otim.

Dadajonim olib berdi,
 Ravon yo'lga solib berdi.
 Inoqlashing ikkov, deya,
 Jilovingni qo'yib berdi.

Chuh, ey, mening yog'och otim,
 Saman otim, otgin odim.

Balki o'tib bahor, qish, yoz,
 Bo'y cho'zarman men ham biroz.

Unutmasman aslo seni,
Bo'lganimda zo'r chavandoz.

Chuh, ey, mening saman otim,
Yog'och otim, samokatim.

BALIQ OVIDA

Majnuntolning salqinida o'tirib,
Zilol suvning oqishiga boqaman.
Qarmog'imdan nigoh uzmay, o'y surib,
Shirin xayol daryosida oqaman.

Dikir-dikir o'yin tushsa po'kagim,
Ikki ko'zim bir nuqtaga tikilar.
Quvonchimdan ura boshlar yuragim,
Deyman: „Hozir katta baliq ilinar“.

...Shamol, to'lqin po'kagimni tortqilab,
Goho-goho qo'yar meni ranjitib.
Shunda hamki, hislar bilan to'lib qalb,
Ketgim kelmas bu qirg'oqni tark etib.

SHART

Birinchi bola: — Bir zumgina
Qamish otingni
Yeldirayin,
Berib tur, Omon!

Ikkinchchi bola: — Mayli, men ham
Xo'rozqandingni
Sen kelguncha
So'rib turaman.





Qudrat HIKMAT

(1925—1968)



O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga va taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan shoirlardan biri Qudrat Hikmatdir. U qisqa, barakali va sermazmun ijodiy faoliyatini kichkintoylarga bag'ishladi. Qudrat Hikmat bolalarni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan ajoyib poetik asarlar qoldirdi.

Bolalarning suyukli shoiri Qudrat Hikmat 1925- yilda Toshkent shahrining Sebzor mahallasida dehqon oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Hikmat ota dastlab dehqonchilik bilan shug'ullanib, so'ngra hunarmandlar artelida, keyinchalik umrining oxiriga qadar (1961) zavodda oddiy ishchi bo'lib ishladi. Onasi Muborak aya 1934- yilda vafot etadi.

1947- yilda Qudrat Hikmat Yozuvchilar uyushmasi yo'llanmasi bilan Samarqand viloyati Narpay tumaniga borib, Islom shoir Nazar o'g'lining kotibi sifatida xizmat qildi. 1948- yilda Toshkentga qaytib keldi. Shu vaqt orasida yigirmadan ortiq xalq dostonini yod bilgan Islom shoir bilan hamkorlik qilish yosh shoir Qudrat Hikmatga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Qudrat Hikmat kichik yoshdagi bolalarni maktabga qiziqtirishni, ularning ilm-fanga bo'lgan havasini uyg'otishni o'zining shoirlilik vazifasi deb bildi. Bunga uning „Kitob — do'stim“ she'rini misol qilishimiz mumkin. She'rda boshdan oyoq kitob ta'rifi yotganligini

ko'ramiz. Shoирning she'rlarida kitobga mehr qo'ygan, astoydil o'qigan kishining aqli, zehni rivojlanishi juda o'ynoqi misralarda bayon etiladi.

„Baxtiyorlik“, „Obodlik“, „Baxtli bolalar“ kitoblari shoирning nomini keng kitobxonlar ommasiga tanitdi.

Qudrat Hikmat ijodida „Tinchlik haqida qo'shiq“ she'ri alohida ahamiyatga egadir. Shoир tinchlikning mohiyatini butun borligicha she'rga soladi:

*Tinchlik juda soz,
To'kin-sochin yoz.
O'q tovushi chiqmas,
Yangrar qo'shiq, soz,*

deb bolaning tinchlik haqidagi tasavvurini hayotiy parchalar orqali yanada kengaytiradi.

BUVIMNING DEGANLARI

Buvim bilan Sanobar,
 Qurt tutishdi barobar.
 Katta uyning to‘rida,
 Ipak qurtlar so‘rida
 O‘rmalashar vishillab,
 Tut bargi yer pishillab.
 Sanobarning vaqtি chog‘,
 Barg keltirdi bir quchog‘.
 Buvim dedi: — Hoy qizim,
 Endi senga shu so‘zim —
 Qurtlar kirdi dahaga,
 O‘rnak bo‘lib hammaga,
 Dastaga harakat qil,
 O‘z ishingning ko‘zin bil!
 Bu yil bizlar uch marta
 Qurt tutib,
 mamlakatga —
 Topshiramiz pillani,
 Pilla emas, tillani.

SUV

Tog‘dan kelar pildirab,
 Ariqlarda shildirab,
 Muzday tiniq zilol suv,
 Simob kabi o‘ynar u.
 Qaysi yerdan oqsa ham
 Gurkirab yashnar o‘lkam.
 Uzoqlardan, daryodan
 Kanal qazib har yoqdan,
 Olib keldik gulbog‘ga,
 Ekinlarga quymoqqa.
 G‘o‘za qonib ichsin deb,
 Cho‘lni bahor quchsin deb.
 Go‘zal Vatanda aslo
 Qolmasin deb bo‘z sahro.

UCH O'RTOQNING SOVG'ASI

Kechqurun katta uyda
 (Men ham bor edim unda),
 O'ltilishib uch o'rtoq
 Suhbat qurdilar uzoq.
 Navbat bilan oxiri
 Dedi ulardan biri:
 — Gulbahorga endi sen
 Nima sovg'a etasan?
 Salmoqlanib Ne'mat der:
 — Jamoamiz
 millioner,
 Bor uning katta bog'i,
 Serhosildir tuprog'i.
 Ko'rkamlikda yagona,
 Tut ko'chatdan yuz dona —
 Ekaman Xol bobomdek,
 O'sib olma, bodomdek,
 Bo'lsinlar yashil daraxt,
 Barglaridan hamma vaqt,
 Ipak qurtlar bahr olsin,
 Dong'i elga taralsin.
 Mana mening sovg'am shu.
 Yana qizir tortishuv:
 — Gulbahorga endi sen
 Nima sovg'a etasan?
 — Bolalar, — dedi Ergash,
 Bog'da ishlash tag'in gasht.
 Har xil rangli gullardan
 Tanlab-tanlab ularidan,
 Maktabimiz yoniga,
 Dam olish maydoniga
 Yangi gulxona yasab,
 O'tkazaman safma-saf.
 Shabadalar ertalab
 G'unchalarni erkalab,

Yoqimli hidlar sochsin,
 Kishi bahrini ochsin.
 Mana mening sovg‘am shu,
 Lekin oson emas bu!
 — Gulbahorga endi sen
 Nima sovg‘a etasan?
 Qodirjon dedi: — Men ham
 Quti yasayman ko‘rkam.
 Qushlar unga in solar,
 Yayrab o‘sar qushchalar.
 Chittak, mayna, bulbullar
 Bizga qalin do‘sit ular.
 Turli zararkunanda
 Hasharotni ko‘rganda
 Ayamasdan har qatda
 Qirib tashlar albatta.
 O‘ynab behi, olchada,
 Yursinlar keng bog‘chada,
 Mening sovg‘am shu bo‘lar,
 Bog‘ga husn qo‘silar.

OYGA POYGA

Inson va shamol
 O‘ynashib poyga,
 Barobar uchmoq,
 Bo‘lishdi Oyga.
 Yo‘l juda olis,
 Yetmoq mashaqqat.
 Kerak behad kuch,
 Iroda faqat.
 Shamol der unga
 Ortib ehtiros:
 — Uchib yurishlik
 Bobomdan meros.
 Mendan ham o‘zg‘ir,
 Chaqqonmi odam?

Eslolmas buni
 Bo'ronboy dadam.
 Sinashib ko'rsak
 Jumboq bo'lar hal,
 Da'voing bekor,
 O'yla tag'in, sal.
 Inson miyig'ida
 Kuladi, xolos.
 Go'yoki osmon
 Unga ko'k palos.
 Ko'p o'ylab uchqur
 Raketa qurdi.
 So'ng ikkalasi
 Oyga yugurdi.
 Shamol olamga
 Rosa jar solib,
 Dastavval yo'lda
 Keladi g'olib.
 Biroq kekkayib,
 Boqarkan asta,
 O'zini ko'rди
 Bulutdan pastda.
 Hali yo'l olis,
 Yetmoq mashaqqat.
 Kerak behad kuch,
 Iroda faqat.
 — Kel, — der keng fazo,
 Zavqqa zavq qo'shib.
 Inson boradi
 G'ayrati jo'shib.
 Intizor oyga
 Kosmonavt qo'nar.
 Tilsimni ochib,
 Ortiga jo'nar.
 Mardlar maydonda
 Sinalar, degan
 Xalq so'zi asl
 Hech o'lmaydigan.

MIX

Qalpoq kiygan askarga
 O'xshaydi mix polvon ham.
 Birikadi u bilan.
 Eshig-u rom, narvon ham.
 U bor uylar saranjom.
 Havas qilar har asbob.
 Ko'rinishdan kamsuqum,
 Ro'zg'or uchun qulay, bop.
 Maxsus katak qutida
 Saqlashadi tejalab.
 Qurilishda ustalar
 Ishlatishar rejalab.
 Goh yanglishib ko'p joyga
 Qoqib ayb qilishsa.
 Qalpog'ini qiyshaytib,
 Uni mayib qilishsa,
 Norozilik bildirib,
 Mix qoladi qayrilib.
 Deraza ham o'rashmas
 Kesakidan ayrilib.
 Ko'rsa o'yinqaroqlar
 Tepib, sochib ketadi.
 Ko'zim tushsa nogahon
 Jonim achib ketadi.
 Turli-tuman buyumning
 Pay tomiri o'shadir.
 Bo'lak-bo'lak yog'ochni
 Bir-biriga qo'shadir.
 Bir istagim bor, uka,
 Mixday to'g'ri, o'tkir bo'l.
 Hurmat qilib do'stlaring
 Shunda senga berar qo'l.





Aziz ABDURAZZOQ

(1926- yilda tug'ilgan)



Taniqli shoir, noshir va tarjimon Aziz Abdurazzoq 1926- yil 25- dekabrda Toshkent shahri Shayxontohur dahasi Zanjirlik mahallasida tavallud topdi. Otasi Abdurazzoq Abdishukur o'g'li serg'ayrat va mehnatkash odam edi. U kishi yozda dehqonchilik, qishda sav-dogarlik bilan kun kechirib, besh o'g'il, ikki qizni oyoqqa turg'azgan.

Aziz Abdurazzoq to'liqsiz o'rta maktabni bitirib, keyinchalik Moskvadagi M. Gorkiy nomli adabiyot institutida tahsil oldi. Ijodiy faoliyati davomida turli gazeta va jurnallar tahririyatida, Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi vazifasida ishladi.

Shoirning ilk she'riy kitobchasi — „Do'stlarimga“ 1959-yili chop etildi. Keyinchalik „Yo'llar“, „Yana bahor“, „Mavj“, „Bodom gulladi“, „Aziz odamlar“, „Lirika“, „Qalb nuri“ singari kitoblari nashr etildi.

Uning „Rahmat! Rahmat!“, „Oh, oh, oh“, „Tap-tap elak“, „Azzamonning hikoyalari“ kabi qator kitoblari bolalarga bag'ishlangan bo'lib, ular allaqachon kitobxonlarning ko'ngillaridan joy olgan.

Aziz Abdurazzoq mohir tarjimon ham. U M. Lermontov, T. Shevchenko, X. Longfellowning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Samimiylit, ravonlik, topqirlilik kabi fazilatlar Aziz Abdurazzoq she'riyatiga xos. Uning xoh kattalarga, xoh bolajonlarga yozilgan asarlarining qaysi birini olib qaramang, barchasida uyg'oq qalbni ko'rasiz. Shuning uchun ham shoir she'rlari kich-kintoy kitobxonlarning e'tiboridan tushmay kelmoqda.

OQQUSH

Ko‘rganmisiz oqqushning
Suv yuzida oqishin?

Asta oqib yuradi,
Ba’zida jim turadi.

Oqar, suzar, xotirjam,
Cho‘chimasdan sira ham.

Chunki yo‘qdir dushmani,
Vatanimiz — vatani.

KEMA

Kema yasab qog‘ozdan,
Suvga qo‘ydim, ketdi u.
Ketayotib bexosdan
„Xayr! Xayr!“ — dedi u.

Sen ham kema yasasang,
Menikiday gapisrin.
Suvga qo‘ymay asrasang,
„Yordam ber!“ — deb chaqirsin.

DUNYO

Bahor keldi, qarg‘alar
Ketib borar qag‘illab.
Tog‘lardan qor sirg‘alar,
Daryo bo‘lib, vag‘illab.
Daryo emas, dunyo u,
Unda hayot bir dunyo.
Hayot — qo‘sniq, havo, suv,
Uchalasi zo‘r dunyo.

NA'MATAKNING MEHMONI

Na'matakda nag'madak
 Nag'ma chalar bolari.
 Boshini qilib sarak,
 So'rар hol-ahvol ari.

Na'matak ham quvonib,
 Tutar gul piyolasin.
 Bolari shimar qonib
 Sharbati-yu holvasin.

YASANGAN XO'ROZ

Xo'roz deydi: „Men — katta,
 Men hammadan chiroylik!“
 Gapi yolg'on albatta,
 Ishonmasang ko'raylik.

Yechintirib bilaylik,
 Ukajon, sen qarab tur.
 U hattoki bir oylik
 Jo'jadan ham xarobdir.





Xolmurod SAFAROV

(1932- yilda tug'ilgan)



Qoraqalpoq bolalarining ardoqli shoiri Xolmurod Safarov 1932- yilda Jomboy tumanidagi Abad qishlog'ida tug'ilgan. 1952-yilda Nukus shahridagi pedagogika oliygohining filologiya fakultetini tugatadi.

Xolmurod Safarov bolalar matbuotida ishslash bilan birga, kichkintoylarga atab she'rlar yozadi. Uning „Nihol“, „Yosh usta“, „Oyga uchib borganda“, „Mening kunlarim“, „Oltin davron“, „Tabiatga sayohat“ kabi o'ttizdan ortiq kitoblari bosilib chiqqan.

X. Safarov Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, U. Berdaq nomidagi Respublika mukofotining sovrindori.

QANOTLI MUSHUK

Oqshom ham cho'kib,
 Qorong'u tushib.
 Daraxtga qo'ndi
 „Qanotli mushuk“.

Ko'zi dumaloq,
 Nafarmon — qizil.
 Qirg'iyga o'xshab,
 Tirnog'i uzun.

Serhadik, ziyrak,
 Yumshoq parlari.
 Tumshug'i keskir,
 Boqar sar-sari.

Sichqon uyasin,
 Kuzatar ziyrak.
 O'ljaga chaqqon,
 Tashlanar tiyrak.

Xuk-ku, Xuk-ku-xuk
 Qo'shig'i, sozi.
 Ovulni tutar,
 Tunda ovozi.

„Qanotli mushuk“,
 Bu Ukki demak.
 Ko'p bola bilmas,
 Asramoq kerak.

Ukki foydali,
 Sichqonni dovlari.
 Kalamushni ham,
 Qo'ymasdan ovlar.

ANOR

Chayqalib o'sar,
Bog'imda anor.
Avji pishganda,
Guldayin yonar.

Qalamcha qilib,
O'stirgan dadam,
O'g'itlar solgan,
Ariq bir qadam.

Qo'limda go'yo
Zo'r mitti fonar.
Sharbatin ichib,
Chanqog'im qonar.

Dardga shifoni,
Anordan topdim.
Qushdayin yengil,
Quyunday chopdim.

Otamga rahmat,
Barq urar anor.
Halol mehnatning
Zavqiga qonar.

SOG'INDIM

Tong sahardan shaqillagan,
O'rdak-g'ozlar g'aqillagan,
Qurbaqalar vaqillagan,
Orolimni sog'indim.

Shovullagan qamishlarni,
Jiyda buroq — xush islarni,
Uchqur tulpor govmishlarni,
Marolimni sog'indim.

Pag'alayga oziq bo'lgan,
Oq chorloqday nozik bo'lgan,

Dasturxonday yoziq bo'lgan,
Balig'imni sog'indim.

Biriksa qush, biriksa el,
Bir-biriga bo'ladi bel.
Suvlar, qochma, dengizga kel,
To'lqinlarni sog'indim.

SAVOLLARGA JAVOBLAR

— Til nimaga berilgan?
Qizlar bilan bolaga.
— Tongda salom aytgani
Ota bilan onaga.
Xafa bo'lib gohida,
Qovog'ini uyganda,
Shu payt shirin so'z kerak,
Qalbiga nur quyganda.
— Qo'l nimaga berilgan?
— Yerga don-dun sochgani.
Erta bahor kelganda,
Bog' jamolin ochgani.
Turli hunar o'rganib,
Turfa kasbni bilishga.
Yiqilganni turg'azib,
Savob ishlar qilishga.
— Quloq nega berilgan?
— Yaxshi gapni uqishga.
Ota bilan onaning
So'zin yodda tutishga.
Donolar nasihatini,
Ilib olsa qulog'ing.
Ishing kelib o'ngidan,
Chopqir bo'lar oyog'ing.
— Aql nega berilgan?
— Halol mehnat qilgani,
Nafsga qul bo'lmasdan,
Poklikka intilgani.



Ernazar RO'ZIMATOV

(1933- yilda tug'ilgan)



Taniqli shoir Ernazar Ro'zimatov 1933- yilda Turkiston shahrida tavallud topgan. O'rta maktabni tugatib, Toshkent shahridagi Qishloq xo'jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash institutida ta'lif oladi. Keyin Chirchiq tizma GESlarida muhandis bo'lib ishlaydi.

Shoirning „Kungaboqar“ nomli birinchi kitobi 1963- yilda nashr etilgan. Hozirga qadar bolalar shoiri Ernazar Ro'zimatovning 15 ga yaqin she'riy to'plamlari bosilib chiqqan.

FASLLAR ULUG'I

Yoz, kuz, qish, bahor — to'rt fasl
 Aslo tartib buzmaydi.
 Izzat ila hurmatda,
 Bir-biridan o'zmaydi.
 — Biz, — der, — aka-ukamiz,
 Yilni tashkil etamiz.
 Odob bo'lsa ish bo'lar,
 Shunday bo'lib o'tamiz.
 Fasllarning ulug'i
 „Qish“ desak ham bo'ladi.
 Qish bo'lmasa, to'xtalar
 Ish, desak ham bo'ladi.
 Suv serob bo'lsa agar,
 Bo'ron ham ta'sir qilmas.
 Kuch ko'p bo'lsa ildizda,
 Garmsel ham asar qilmas.
 Qor yog'masa suv bo'lmash,
 Chanqab qolar qir, dala.
 Bahor ham qurg'oq kelar,
 Ochilmaydi gul, lola.
 Yerni bahor qitiqlar,
 Qani, der, tez turaqol.
 Qorlar erib, suv oqar,
 So'zlarimga qulog sol.
 Dala-qirlar bezansin,
 Ochilib dasta gullar.
 Qo'y-qo'zilar yayrasin,
 Chaq-chaqlashsin bulbullar.
 Hosil bo'lsa mo'l-u ko'l,
 To'y, ma'raka ko'payar,
 Ba'zi bir manman odam,
 Xo'roz kabi kekkayar.
 Bahor o'tib kelsa yoz,
 Kunlar isib, bo'lar soz.
 Mevalarga rang berar,

Naqdidan ham kechib voz.
 Sharbat kirsa hosilga,
 Uzib olma sen uni.
 Peshonadan ter to'kkан,
 Bordir axir bog'boni.
 So'rab olsang hurmatlab,
 Yesang qorning to'yadi.
 Lek so'rmasang, sharbati
 Tomog'ingni o'yadi.
 Qizaradi yuzing ham,
 Tulki misol qochasan.
 O'zingga-chi, bolajon,
 Botqoq yo'lin ochasan,
 Har bir ishda to'g'ri so'z,
 Kuch beradi tanaga.
 Hatto chumchuq o'ch bo'lar,
 Qonxo'r bo'lgan kanaga.
 Hademayin kelar kuz,
 Hosilni, der, terib ol.
 Beg'amboydek bir kuni,
 Sovuq tushsa bo'lma lol.
 Kim qish g'amin yoz yesa,
 Har ishda g'olib chiqar.
 O'ynasa hamki garov,
 Yutug'in olib chiqar.
 Kuz oladi imtihon,
 Qishdan ogoh qiladi.
 Qolsang agar yo'q-yupun,
 Ko'zni guvoh qiladi.
 Qish sovug'i keladi,
 Qor ayozin yetaklab.
 Bolalar chopib o'ynar,
 Chanalarin shataklab.
 Bir-biriga otishar,
 Qordan lo'mboz qilishib.
 Yo yuzlarin ishqalab,

Hazillashib, qulashib.
 Birin yuzi lolarang,
 Burni buloq oqadi.
 Birovlarga qor esa,
 Shakar kabi yoqadi.
 Ba'zi biri yo'l ochar,
 Olib qo'lga belkurak.
 Chol-kampirlar yurmoqqa,
 Der: — albatta yo'l kerak.
 Do'stlik bo'lsa hamisha,
 Mushkul oson yechilar.
 Hatto katta bichiqlichi,
 Maslahatda to'n bichar.

VATAN MADADKOR BO'LGAY

Men bir, ikki, uch dedim,
 Bilakda bor kuch dedim.
 Bellashishni kim xohlar,
 Kel maydonga tush dedim.
 Kim abjir-u kim chaqqon,
 Bilib qo'ysin har bir jon.
 Changalimga kim tushsa,
 Chiqarmayman men omon.
 Maydonga tez qani chiq,
 Kuching yetsa meni yiq.
 Ishonmasang o'zingga,
 Bo'lma yo'limga to'siq.
 Oqlab Vatan osh-tuzin,
 Qaratmay yerga yuzin.
 O'zbekiston bayrog'in
 Ko'taray ko'kka o'zim.
 Pirlar menga yor bo'lgay,
 Vatan madadkor bo'lgay.
 O'g'il-qizin shuhrati
 Elga iftixor bo'lgay.



Jo'ra RAHIM

(1933- yilda tug'ilgan)



Taniqli bolalar shoiri Jo'ra Rahim 1933- yilda Namangan viloyatining Chortoq shahrida tug'ilgan. U Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgach, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlaridagi maktablarda ishladi.

Jo'ra Rahimning kichkintoylarga atalgan asarlari 1952- yildan vaqtli matbuotlarda nashr etib kelinmoqda. Shoirning „Qo'ng'iroq“, „Momaqaldoq“, „Bir butun oy, o'n ikki yulduz“ deb nomlangan o'ndan ortiq kitoblari bosilgan.

Filologiya fanlari nomzodi Jo'ra Rahim she'riy asarlaridan tashqari ilmiy-ma'rifiy kitoblari bilan ham o'z muxlislarining e'tiborini qozonib kelayotir.

BIR BUTUN OY, O'N IKKI YULDUZ

Juda qadim zamonda
 Chol-u kampir bor edi.
 O'g'il va qiz ko'rmagan,
 Dastyorga-chi zor edi.

Ikkalasi ham ahil,
 Aqlida edi dono.
 Shuning uchun qo'shnilar,
 Hurmatlardi doimo.

Kampir uyda o'tirar,
 Qilib uyning yumushin.
 Chol omoch-la yer haydab,
 Tamomlar dala ishin.

Bug'doy o'rish ko'yida,
 Chol qirga ketdi bir kun.
 Kampir qoldi uyida,
 Ovqat tayyorlash uchun.

Mana ovqat ham tayyor,
 Kim olib borar qirga.
 Kampir yalinib ko'rdi,
 Qo'shni o'g'li Tohirga:

— O'rgilay, o'g'lim, shuni —
 Eltib bergen bobongga.
 „Bir butun oy, o'n ikki —
 Yulduz“, degin bobongga.

— Ha, ho'p, — deya Tohirjon
 Jo'nabdi qir tomonga.
 Yo'l yurish va charchoqlik
 Oxir tegibdi jonga.

So'ng madori quribdi,
 Qorni ocha boshlabdi.

Tugunni yerga qo'yib,
Asta yecha boshlabdi.

Tugunda so'lqillama
Bir qatlama bor ekan.
Idishda chuchvaralar —
Terilgan qator ekan.

Chuchvara, qatlamadan
Keragicha yebdi u.
— Qolganini eltarman
Bobomlarga, — debdi u.

Yetib borib boboga
Topshirarkan tugunni.
Debdi: — Buvim-chi, menga
Tayinladilar shuni:

„Bu tugunni bobongga
Eltib bergin“, — dedilar. —
„Bir butun oy, o'n ikki —
Yulduz, degin“, — dedilar.

Tohirni alqab-yulqab
Bobo ovqatni yebdi.
Idishni bera turib
Tohirga shunday debdi:

— Kech qolding, o'g'lim, yugur,
Adashib qolma qirda.
„Yarimta oy, oltita —
Yulduz“, deb qo'y kampirga.

— Ha, ho'p, — deya Tohirjon
O'qday uchib ketibdi.
Kechga qolmay kampirning
Huzuriga yetibdi.

— Siz yuborgan ovqatni
Bobom maqtab yedilar.
„Yarimta oy, oltita —
Yulduz“, degin dedilar.

— Tugunni yechibsan-a? —
Deb so'rab qoldi kampir.
— Yechganim yo'q, buvijon, —
Tohir bermay turdi sir.

— Shoshma, shoshma, yulduzim,
Quloq ber, menga qara.
Oltita yulduz o'zi,
Olti dona chuchvara.

Yarim oy degani —
Yarimta qatlamadir.
Gapimga qulq solib
Gap qaytarmay turatur.

Bir butun qatlamadan
Yarmini o'zing yebsan,
Nega hech tan olmaysan,
Sira yemadim deysan?

O'n ikki chuchvaradan,
Olti dona qolsa ham,
Yeganim yo'q, deya san
Bo'yin bermaysan, erkam.

Yebsan, mayli, jon bolam.
Yeganlaring osh bo'lsin!
Ammo to'g'ri gapirgin,
Buviginang o'rgilsin.





Yo'Idosh SULAYMON

(1935—2004)



Taniqli shoir va yozuvchi Yo'Idosh Sulaymon 1935- yil 12- avgustda Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi Mingtut qishlog'ida tavallud topgan. Uning adabiyotga, odamlarga, hayotga bo'lgan muhabbatni maktab quchog'idayoq shakllangan edi. Ilk ijodiy qadamlari bilan Farg'ona davlat pedagogika institutiga kelgan bo'lajak adib o'z she'rlari, maqolalari bilan matbuotda hamisha faol va hozirjavob bo'ldi. 1960- yili institutni tamomlab, viloyat gezatesiga ishga keldi. Yo'Idosh Sulaymon bu qutlug' dargohda 27 yil astoydil ter to'kib mehnat qildi.

U, avvalo, bolalarning sevimli shoiri, haqiqat vaadolat uchun kurashuvchi mehnatkash insonning fazilatlarini yorituvchi jonku-yar, hozirjavob jurnalist va publisist sifatida e'tibor topdi. Birin-ketin uning bolalarga atalgan she'riy kitoblari, ocherk to'plamlari, Farg'ona kishilari hayotidan yozilgan hujjatli qissalari dunyoga keldi va kitob bo'lib chop etildi. Bolalarga atalgan „Biz sayohatchi-larmiz“, „Hamma havas qiladi“, „Rahima-chi, vahimachi“, „Mening yoshim oltida“, „Men birinchi muallim“, „Men otamni o'ylasam“ kitoblari ana shular jumlasidandir. U Farg'ona madaniyati va san'atini yuksaltirishga o'z asarlari bilan hamisha barakali hissa qo'shib kelgan. Yozuvchi ana shu mehnatlari uchun „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi“ unvoni va „Do'stlik“ ordeni bilan taqdirlangan.

QAYRAG‘OCH

Qishlog‘imni olisdan
 Ko‘z-ko‘z etgan qayrag‘och,
 Ko‘kka cho‘zib labini
 Ko‘kka yetgan qayrag‘och —
 Maqtoviga so‘z yetmas,
 Qishloqqa·u ming husn.
 Qarang, enlar soyasi
 Maktabimiz hovlisin.
 Quvonch bilan eslanar:
 — Eshmat buvam ekkalar!
 — Nomlarin-ku bilamiz,
 O‘zlari kim ekanlar?
 Na mo‘ysafid, na yoshlar
 Bu savolni yechadi.
 Do‘qillatib hassasin
 O‘tib qoldi ko‘chadan —
 Qaddi buzik, oppoq soch,
 Ko‘pni ko‘rgan momomiz.
 — Assalomu alaykum! —
 Chug‘urlashdik hammamiz.
 — Vaalaykum assalom,
 Balli, — der u quvonib.
 — Ko‘rganmisiz, momojon,
 O‘sha Eshmat buvamni?
 — U kishini bobom ham
 Ko‘rishmagan, ishoning!
 Qayrag‘ochning ajini
 Ming yillardan nishona.
 Ardoqladi qayrag‘och
 Eshmat buvamiz nomin!
 — So‘zlarining haq, momo,
 Ha, bu mehnat in’omi!
 — Axir „nihol tikkanning,
 O‘zingga nom ekkaning!“

KUZ

Marvarid kuz
 Qildi ko'z-ko'z
 Bisotida borini.
 Bog'da hil-hil
 Meva xil-xil,
 Sanab bo'lmas barini.
 Istangiz
 Saylab-saylab
 Husaynidan uzasiz.
 Nok, shaftoli,
 Anjir boli
 Xuddi qaymoqmi deysiz.
 Qovunlar-chi,
 Sharbat ichib,
 Ilinmaydi pichoqqa.
 Uyalashib,
 Toshday toshib,
 Tarvuz sig'mas quchoqqa.
 Ko'ngil ochar,
 G'ashlik qochar
 Oralasang pushtani.
 Chindan arzir
 Ta'riflasang
 Kuzzagi nonushtani.
 Shunday go'zal,
 Shunday asal
 Ehson tutgan o'zi kim?
 Dehqon og'am,
 Dehqon tog'am,
 O'sha dehqon amakim!

HEY, QO'QON SHAMOLI

Sapchigani sapchigan,
 Jajjigina sho'x ukam,
 Hatto o't-u suvdan ham —
 Toymaydigan cho'g' ukam.
 Quloq tutar so'zimga,
 To'xta desam, to'xtaydi.
 Sen-chi,

Qo'qon shamoli,
 Axir sen buncha daydi?
 Har izg'ishing bir hafta,
 Shunchalar beboshmisan,
 Tin desam qo'l siltaysan,
 Ukamdan ham yoshmisan?
 Yoki buvim aytganday,
 Rostmi uying kuygani?
 Uvillaysan joy yo'qmi,
 Yo o'zingni qo'ygani?
 — Yo'q, — der shamol, — fe'lim shu,
 Doim ko'nglim hushlarman.
 Qani, ayt-chi, bebosh deb
 Meni birov ushlarmi?
 — To'xta, — deyman, — hey shamol,
 Chiranishing habada.
 Istasam yel bo'larsan,
 Istasam sho'x shabada...
 Orzularim ushalar,
 Ulg'ayaman hademay.
 So'zimga so'z qo'shmassan,
 Ilojing yo'q „ha“ demay!

QUYOSHDAN ERTA TURIB

Toza havo —
Tanga davo,
Kutaman tongni,
Tinglab dildan
Poytaxtimdan
Yangragan bongni.
Yotsa Omon
Uyg'otaman:
— Tur, uka, qani —
Qulochni yoz,
Bajarsak soz
Badantarbiyani.
Bizdan oyim
Xursand doim,
So'zlar:
— Qo'zilar,
Hamma sog'liq
Shunga bog'liq,
Bo'y ham cho'zilar!





Yoqub XO'JAYEV

(1935- yilda tug'ilgan)



Yoqub Xo'jayev 1935- yilda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgandan so'ng Gidrometeorologiya texnikumida tahsil olgan. Seysmik stansiyada ishlash bilan birga, Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetida o'qishni davom ettirgan. Bu davrda uning bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan ilk she'r va hikoyalari matbuot sahifalarida chop etila boshladi. O'tgan asrning 60- yillari boshida „Mittivoyning sarguzashtlari“ nomli birinchi she'rlar to'plami nashr etilgan. Keyinchalik „Temir bolakay“, „Shimollik mehmon“, „Uyimizning sehrgari“ va boshqa kitoblari bosmadan chiqdi. Adib O'zbekiston bastakorlari bilan hamkorlikda qo'shiqlar turkumini ham yaratgan.

Ko'p sonli o'quvchilar bilan uchrashuvlar, asosan, bolajonlar bilan yaqin do'stlik Yoqub Xo'jayevga bir qator sarguzasht hikoya va qissalar yozish imkoniyatini berdi. Uning ushbu asarları munosib taqdirlandi. „Sarguzasht izlovchi — Vundurgay“, „Vundurgay — iztopar“, „Uxlayotgan ajdarho g'ori“, „Alomat bola sarguzashtlari“ qissalari adabiy jamoatchilikning e'tiborini qozondi. Yoqub Xo'jayevning kitoblari orasida „Hammasi qanday bo'lgani haqida“, „Nuqul sarguzasht“ (birinchi nomi „O'n uchinchi vagon“) nomli avtobiografik qissalar ham mavjud.

Yoqub Xo'jayev ijodiyotida taniqli shoirlar asarlaridan tarjimalar alohida o'rin tutadi. U Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Shamsi Odil, Haydar Muhammad, Kavsar Turdiyeva, Usmon Azimov, Azim Suyun, Farog'at Kamolova, Durdona Ro'ziyeva kabi ijodkorlar asarlarini rus tiliga tarjima qilgan.

MARATNING SAYOHATI

Bugun oynakdan qarab,
O'ylanib qoldi Marat.
Ko'rinmas bog', ko'chalar,
Hatto itlar, jo'jalar.
Chorrahalar, moshinlar,
Saroy, peshtoq, koshinlar,
Qayoqda mirshab, daraxt,
Atrof sokin va karaxt.
Shamdayin qotib qolgan,
Oppoq nur chulg'ab olgan.
Siz qayoqdan qaramang,
Ko'p qavatli xonadon.
Ulkan kema misoli,
Qalqib-qalqib boradi.
Marat go'yo kapitan,
Quvnab, balqib boradi.
Qutbchilar kutar shod,
Mezbonlarga Toshkentdan —
Yuz a'lochi tarvuzni,
Jo'natgandi Boshkentdan.
Sovg'alarga jo bo'lgan
Katta Yerning quyoshi,
Tilimi til yoradi,
Yo'qdir uning qiyosi.
Bu falakning gardishi,
Sizga aytsam ajoyib.
Kema qalqib, Aysberglar,
Qaygadir bo'ldi g'oyib.
Nelar bo'lmas hayotda,
Maratga bersin to'zim.
To'satdan katta Yerda,
Shu mahal ko'rdi o'zin.
Ko'kka boqib ohista,
Nafasin rostlab Marat.
Eh, attangga, juda tez
Ketdi-da tuman tarqab...

TOPISHMOQ

Dastlab u
 Egatda o'sdi,
 So'ng shumg'uyaning
 Yo'lini to'sdi.
 Rosa yetilgach,
 Pichoqni tig'latdi.
 Oshxonaga borgach,
 Oshpazni yig'latdi.
 Ovqatga solmasa,
 Bo'lmaydi.
 Shakarobning ko'ngli
 To'lmaydi.

„AZIZ — KEYIN“

Do'stim so'rар maslahat,
 Men nima deyin?
 Azimjonning bahonasi:
 — Xo'p, mayli, keyin.
 Yo'ldan urar dangasalik:
 — Shoshmagin, Azim,
 Darsingni qo'y, stadionga
 Borishing lozim.
 Qo'lga olsam kitobni,
 Nedir shitirlab,
 Xitob qilar bir so'zni,
 Asta pichirlab.
 — Mazza qilib, gap sotib,
 O'tirsang bo'lar.
 Vazifani do'stlaringdan,
 Ko'chirsang bo'lar.
 Tashvish chekar men uchun
 Hattoki xolam.

Ko‘ylagingga tugma qadab,
 Olsang-chi, bolam.
 Ishlarim ko‘p, xolajon,
 Tugmadan bo‘lak.
 Hozir men-chi, multfilm
 Ko‘rishim kerak.
 ...Attang yana bir kunim,
 Behuda o‘tdi.
 Daqiqalar soatning,
 Etagin tutdi.
 — Bo‘ldi, va’da beraman,
 O‘zim-o‘zimga.
 Bozungarga o‘xshaydi,
 Futbol ko‘zimga.
 Ha, do‘sralarim, to‘g‘risi,
 Nima ham deyin?..
 Sinfdoshlar nom qo‘ydi,
 „Azimjon — keyin“.
 Oltinga teng vaqtimni,
 Yelga oldirmay
 Vazifani bajardim,
 Darsni qoldirmay.
 Yalqovlikning cho‘chimay
 Ta’qib, qahridan.
 „Keyin“ degan laqabning
 O‘tdim bahridan...





Ollobergan PO'LATOV

(1935- yilda tug'ilgan)



Ollobergan Po'latov 1935- yili Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Navxos qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktab ta'lomidan so'ng Urganch shahar O'qituvchilar institutining til va adabiyot fakultetini tamomlagan.

Ollobergan Po'latov bolalar ruhiyatini yaxshi bilgani holda ularni she'rga sola oladi ham. Sababi, shoir ijod qilish bilan birga, qishloq maktablarida bir necha yil o'qituvchilik ham qilgan.

O. Po'latov 1960—1971- yillarda tuman gazetasida bosh muharrir o'rribosari bo'lib ishlagan. 1963- yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetida sirdan o'qib, oliy ma'lumot olgan. So'ng qariyb chorak asr „Shonli mehnat“ gazetasi muharriri bo'lib ishlagan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist O. Po'latov „Xorazm“, „Umri boqiy g'azalxon“, „Kamaymas boylik“, „Yer farzandi“ nomli dostonlarning muallifidir.

BUVIM KELSA...

Buvim kelsa uyimiz
 Qolar to'yga aylanib.
 Shodlik qilmoqqa go'yo
 Turganday biz shaylanib.
 Lek ular uylariga
 Jo'nab qolsalar bexos,
 Bir nima yo'qtganday
 Xomush bo'lamiz ro'y-rost.

GULASAL

Tong uyg'onib Gulasal
 Gullarga suv quyadi.
 Uy-xonani tozalab
 Qo'l-yuzini yuvadi.
 So'ngra nonushta qilib
 Bog'chasiga yo'l olar.
 Buvisi mamnun bo'lib,
 Doim kuzatib qolar.

BOQIY YASHANG

To'lgan kuningiz yuzga
 Dildan qutlab, olqishlab,
 Buvijonim, men Sizga
 Ha, she'r yozdim bag'ishlab.
 Zamona ardog'ida
 Boqiy yashang, sog' bo'ling.
 Hur Vatan gulbog'ida
 Doim vaqtি chog' bo'ling.

KICHIK RASSOM

Jajji singlim Muyassar
 Chizib qizning rasmini,
 Nilufar deb pastiga
 Yozib qo'ydi ismini.

Qo'lda qalam, qog'ozi,
 Beto'xtov qilar ijod.
 Ulg'aysa rassom bo'lar,
 Bor unda zo'r iste'dod.

DUGONALAR

Tong-la Shahnoza, Oyxon,
 Biramki xursand, shodon,
 Ikkalasi yonma-yon,
 Yo'l olishdi maktabga.

Opa-yu singil misol,
 Dildan so'zlashib xushhol,
 Qo'lda papka — bemalol,
 Yo'l olishdi maktabga.

Qarang, mehribon, inoq,
 Qo'l ushlashib xushchaqchaq.
 Gulday ochilib quvnoq,
 Yo'l olishdi maktabga.

ORZU

Uyga kelgan mehmonlar
 Nodirani maqtashdi.
 Dildan qutlab, bo'lajak
 Shoira deb atashdi.

Nodirabegim misol
 Nevaram she'rlar bitib,
 Qaniydi shuhrat topsa
 Ona yurtin shod etib.

YORDAMCHI

Sarvarjon bobosini
 Biram yaxshi ko'radi.
 Daraxt eksa yonida
 Yordamlashib yuradi.

Jo'nab ketdi bugun ham
 Bobosi bilan birga.
 Bog'da mehnat qilar u,
 Go'yo to'lib mehrga.

MITTI JO'JALAR

Mitti, mitti jo'jalar,
 Chiroylisiz munchalar.
 Chip-chip, chip-chip etasiz
 Ham kunduz, ham kechalar.

Uyg'onganoq ertalab,
 Sepgan donim erkalab,
 Terib yeysiz erinmay,
 Bitta, bitta, bittalab.

Tariq ko'zingiz chiroq,
 Eh, sho'xsiz, o'yinqaroq.
 Chopishasiz yonimga
 Meni ko'rib qolgan choq.

Mitti, mitti jo'jalar,
 Chiroylisiz munchalar,
 Chip-chip, chip-chip etasiz
 Ham kunduz, ham kechalar.

CHEVAR BO'LAMAN

Qo'g'irchog'imga
 Tikdim ko'yak, shim.
 Biram chiroyli,
 Ixcham, bejirim.
 Oyimlar mendan
 Xursand edilar.
 Bag'riga bosib
 Shunday dedilar:
 — Jajji qo'llaring
 Tolmasin, qizim.
 Oyim, oppog'im,
 Zuhro yulduzim.

ODOBLI QIZ

Oyi, har kun yalasam
 Muzqaymoq,
 Siz aytganday bo'lardim
 Qiz oppoq.
 Xarxashamni ham tashlab
 Men asta,
 Odobli qiz bo'lardim
 Birpasda.





Erkin VOHIDOV

(1936- yilda tug‘ilgan)



Hozirgi davr o‘zbek she’riyatining porloq yulduzlaridan biri iste’dodli shoir Erkin Vohidovdir. U 1936- yilning 28- dekabrida Farg’ona viloyati Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida dunyoga kelgan.

E. Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgandan so‘ng turli nashriyotlarda muharrirlik qiladi. Avval „Yosh gvardiya“ nashriyotida (1960—1963, 1975—1982), so‘ng G‘afur G‘ulom nashriyotida (1963—1970) bosh muharrir, direktor bo‘lib ishlaydi.

Hozirgi kunda esa Erkin Vohidov O‘zbekiston Respublikasi xalq deputati sifatida Oliy Majlis rayosati Oshkoraliq qo‘mitasi rahbaridir.

E. Vohidov adabiyotimizning qutlug‘ dargohiga o‘sha o‘rta maktab quchog‘idaligidayoq o‘zining beg‘ubor, mazmundor she’rlari bilan kirib kelgan. Shoir G‘ayratiy rahbarlik qilgan adabiy to‘garaklarda pishgan, chiniqqan.

Uning birinchi she’riy to‘plami 1961- yilda „Tong nafasi“ nomi bilan bosilib chiqqan edi. Shundan buyon shoirning o‘ttizdan ortiq she’riy majmualari o‘z o‘quvchisiga yetib borgan. Jumladan, shoirning „Qo‘shiqlarim sizga“ (1962), „Yurak va aql“ (1963), „Mening yulduzim“ (1964), „Nido“ (1965), „Lirika“ (1965),

„Palatkada yozilgan doston“ (1967), „Yoshlik devoni“ (1969), „Charog'bon“ (1970), „Dostonlar“ (1973), „Hozirgi yoshlar“ (1971), „Muhabbat“, „Tirik sayyoralar“ (1980) kabi she'riy guldastalari va dostonlari kitobxonlarga manzur bo'lgan.

O'zbekiston xalq shoiri hamda O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov otashin publisist va adabiyotshunos sifatida ham samarali ijod qilib kelmoqda. Uning „Shoir-u she'r-u shuur“ kitobi shundan dalolat beradi.

Shu bilan birga, u mohir tarjimon sifatida S. Yesenin, L. Ukrainka, M. Svetlov, A. Blok, R. Hamzatov, S. Kaputikyan kabi iste'dodli shoirlarning she'rлarini o'z ona tilida so'zlata oldi.

OYGA UCHSAK

— Oyga uchsak Norjonni ham
Olamizmi?
— Hamma uchsa, axir, oshnam,
Qolamizmi?
— Arg'imchoqdan qo'rqeding, Norjon,
Ko'rmaysanmi?
Uchar bo'lsak Zuhra tomon
Qo'rqmaysanmi?
— Do'stlar, sizni hech uyatga
Qo'yarmidim,
Anvar o'zi qo'rqiitmasa
Qo'rqiarmidim.

SHAFTOLI

Sariq, oq
 shaftoliman,
Zarg'aldoq
 shaftoliman,
Maqtanib
 o'ltirmayman,
Mana bundoq
 shaftoliman.

O'RIK

Qantak o'rik
Otim bor,
Xo'p mazali
Totim bor.
Mag'izimga berkitgan
Qantim bor,
Novvotim bor.

OLMA

Men sizlarning
 Olmangiz,
 Xomligimda
 Olmangiz,
 Nortojiga
 O'xshab so'ng
 Voy qornim, deb
 Qolmangiz!

YONG‘OQ

Miya kabi
 Shaklim bor,
 Boshim to'la
 Aqlim bor.
 Meni yegan
 Donishmand
 Bo'lur, degan
 Naqlim bor.

TERAK

Men terakman,
 Terakman.
 Men hammaga
 kerakman.
 Osmon mening
 Yelkamda.
 Men olamga
 Tirkakman.

QARAG‘AY

Bo‘yin cho‘zib
 Qarag‘ay,
 Yon-atrofga
 Qaragay.
 Der u:
 Barcha daraxtdan
 Baland akang —
 Qarag‘ay.

GILOS

Men gilosman,
 Quloq sol,
 Rangim ol-u
 Totim bol.
 Topsang
 Qo‘shalog‘imni,
 Qulog‘ingga
 Taqib ol.

MAJNUNTOL

Boshim egik,
 Majnunhol,
 Majnuntolman,
 Majnuntol.
 Dam olsangiz
 Soyamda,
 Men sizlardan
 Mamnun tol.

ARCHA

Men archaman,
Archaman.
Men xursandman
Barchadan.
Atrofimda
aylanib,
Hech charchamang,
Charchamang!

NASHVATI

Meni derlar
Nashvati,
Sharbatlarning
Sharbati,
Mazalarning
Mazasi,
Lazzatlarning
Lazzati.





Miraziz A'ZAM

(1936- yilda tug'ilgan)



Miraziz A'zam 1936- yilda Toshkentda tug'ilgan. 1953- yilda o'rta muktabni oltin medalga tugatgan. 1958- yilda O'zbekiston Milliy universitetining (u paytda Toshkent davlat universiteti deyilardi) filologiya fakulteti jurnalistika bo'limini tamomlagan.

1960-yildan to hozirgacha bolalar uchun (ayni chog'da kattalar uchun ham) ijod qilib keladi. „Metallurg“ (1964), „Aqli bolalar“ (1969), „Senga nima bo'ldi?“ (1979), „G'alati tush“ (1972), „Yer aylanadi“ (1973), „Yerga dovruq solamiz“ (1976), „Bir cho'ntak yong'oq“ (1990), „Yong'oq urishtiruvchi“ (1996), „Qirq bolaga qirq savol“ (2000, 2001), „Eng yorug' yulduzlar“ (2002) to'plamlarining muallifidir.

Uning alohida kitoblari rus, ukrain, turkman tillarida bosilib chiqqan. Shuningdek, bir qator she'riy turkumlari mo'g'il, turk, ozarbayjon, moldavan, belorus, latish tillarida ham nashr etilgan.

Ayni chog'da Miraziz A'zam ellikdan ortiq jahon bolalar shoirlari va adiblarining she'r, hikoya, roman va ertaklarini o'zbekchaga tarjima qilgan.

„BIR CHO'NTAK YONG‘OQ“
TURKUMIDAN NAMUNALAR
YONG‘OQ ULASHAMAN

Bir cho'ntak yong‘og‘im bor,
 Ulashaman bir qator.
 Olasizmi — olmaysiz,
 O'zingizda ixtiyor.
 Sergaplarni odamlar
 „Bir qop yong‘oq“ deydilar,
 Chunki ular shaldirab,
 Ko'pincha pand yeydilar.
 Men ko'p gapni demasman,
 Bir qop yong‘oq emasman,
 Yong‘og‘im bor bir cho'ntak,
 Ulashsam pand yemasman.
 Biri hazil, biri chin,
 Biri quvonch, biri kin.
 Qani kimga salom-u,
 Saboq olar qani kim?
 Bir cho'ntak yong‘og‘im bor,
 Ulashaman bir qator,
 Olmasangiz olmaysiz,
 Sizda qolar ixtiyor.

PUCH YONG‘OQ

Puch yong‘oq,
 Puch yong‘oq,
 Epolmadik hech, yong‘oq,
 Shaldir-shuldur qilasan,
 Ko'p noo'rin kulasan.

 Qancha shaldiramagin,
 Qancha valdiramagin,
 Bizni alday olmaysan,
 To'q yong‘oq bo'lomaysan.

TO'Q YONG'OOQ

To'q yong'oq,
 To'q yong'oq,
 Mag'izga to'liq yong'oq.
 Chanoqdan toshib turgan
 Paxtaday bo'liq yong'oq!

Oymisan, oftobmisan,
 Miyali koptokmisan,
 Saxiy qaynar xumchami,
 Yo dumaloq qopmisan?

Buvim sendan keltirsa
 Zavqim bir quchoq bo'lar.
 Chunki u mag'izingdan
 Holva pishirmoq bo'lar.

Mag'izing — mag'iz emas,
 Sariyog'mi, qaymoq bo'lar.
 Holvangni yegan bola
 Gijinglab toychoq bo'lar.

To'q yong'oq,
 To'q yong'oq,
 Paxtaday bo'liq yong'oq,
 Hammani xursand qilgan
 Mag'zi sap-sariq yong'oq!

Naqadar ajoyibsan,
 Muncha saxiysan, o'rtoq!
 Bir kun yo'lidan toyib san
 Bo'limagin-da tosh yong'oq...

TOSH YONG‘OQ

Tosh yong‘oqni chaqib ko'rgan biladi:
Tosh yong‘oqning po'sti qalin bo'ladi.

Tosh yong‘oqlar osonlikcha chaqilmas,
Chaq sang, doni po'stlog‘idan ayrilmas.

Oz don berib seni qo'yar uyatga —
Tosh yong‘oqdan foyda kamdir hayotga.

KASAL YONG‘OQ

Kasal yong‘oq,
Puch yong‘oq,
Tuzalmading hech, yong‘oq...
Kim qiynadi seni, ayt,
Yo bo'ldimi kech, yong‘oq?

Oldingga qurt kelganda
Ishondingmi kuchingga?
Tungi mehmon-ku bu, deb
Kiritdingmi ichingga?

Uyingda yotib olgach,
Holdan toyib batamom,
Chaqirdingmi yordamga,
Kelmadimmi, mitti jom?

Mayda tashvishlar bilan
Unutdimmi seni men?
Yong‘oqqinam — kichkinam,
Yiqilibsan axir sen.

Meni kechir, azizim,
Ko'rsatay zo'r kunini:
Bir dodini berayin,
Topib olsin inini...

Kasal yong'oq,
 Puch yong'oq,
 Tuzalmading hech, yong'oq,
 Bo'lganimda hushyorroq,
 Bo'lar eding zo'r yong'oq.

GAN

Gan bo'lib tikilding, yong'og'im,
 Gan bo'lib tikilding o'rtaga.
 To'rburchak chegara to'rt yog'ing,
 Zarb kutib yotasan jo'rtaga.

Sen kabi bir yong'oq — bir soqqa
 Otilar senga zarb bermoqqa.
 Bir yong'oq urilsa yong'oqqa,
 Ikkovi dumalar chetroqqa.

Sen zarbni sabr-la kutasan,
 Sabrli, bardoshli „o'rtog'im“,
 Chiziqdan chiqmasang yutasan,
 Gan bo'lib tikilgan yong'og'im.

Afsuski va lekin, ganginam,
 Chiziqdan chiqasan baribir,
 Qo'ymaslar chiziqdan chiqmasga
 Poyloqchi bolalar ba'zi bir.

YONG'OQNING UMRI

Yong'oq ulg'aydi,
 Bir kuni pishdi —
 Po'stlog'i, chophonini yorib,
 Tuproqqa tushdi.
 U minnatdor:
 Quyoshdan nuri uchun,
 Bulutdan suvi uchun,

Yerdan sharbati uchun,
 Shamoldan nafasi uchun,
 Odamdan parvarishi uchun...
 Har holda yomon yashamadi yong'oq.

LAYLAK

Laylak degan bir qush bor
 Tong-saharlab turadi.
 Ilonlarning boshiga
 Mix qoqqandek uradi.

O'zi turna zotidan,
 Lekin undan kattaroq.
 Rangi har xil: goh qo'ng'ir,
 Gohi qora, gohi oq.

Goh chinorga quradi,
 Goh minorga inini.
 O'zga qushni talamay,
 O'zi ko'rар kunini.

Tangri unga qancha vaqt
 Berganin his etadi:
 Bahorda uchib kelib,
 Kuzda uchib ketadi.

Olis-olis yo'llarda
 Sokin qo'noq izlashar.
 Ozod, erkin, daxlsiz
 Manzillarni ko'zlashar.

Yo'lda qari laylaklar
 To'xtab qolsa holsirab,
 Uchib kelar yoniga
 Yosh laylaklar hol so'rab.

Kiftlarida ularni
 Birga olib ketarlar.
 Laylaklar odatini
 Qalbdan ado etarlar.

ONA TILIM

Ona tilim, turkiy tilim,
Ardoqligim o'zbek tilim,
Avaylayman seni doim
Qoboq ila ko'zdek, tilim.

Ona tilim, o'zbek tilim,
Qadim-qadim turkiy tilim,
Menga berding san'at, bilim,
Vatanimday ko'rqli, tilim.

Ey, sevikli o'zbek tilim,
Turkiy tilim, ona tilim.
O'zga tilga alishmayman,
O'z onasin almashar kim?

Turkiy tilim, ko'rqli tilim,
O'zbek tilim, ko'zdek tilim,
Ona tilim, dono tilim,
Dunyoda bir dona tilim.





Safar **BARNOYEV**

(1938 — 2001)



Bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi Safar Barnoyev 1938-yil 6-mayda Buxoro shahrida Dilkusho mahallasida tug'ilgan. 1949—59- yillarda o'rta mактабни тугатгач, harbiy xizmatga ketadi. Harbiy xizmatni o'tab, 1960—61- yillarda Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi sho'ro xo'jaligida hisobchi vazifasida ishlaydi. 1961—66- yillarda ToshDUNing (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika bo'limida tahsil oladi.

1959- yili uning birinchi she'ri hozirgi „Tong yulduzi“ gazetasida e'lon qilingan. Safar Barnoyev o'qishni tugatmasidanoq, 1966-yilning mart oyida „Tong yulduzi“ gazetasi tahririyatiga ishga taklif qilingan. Shu yillardan boshlab uning she'r, hikoya, qissalari respublika gazeta va jurnallarida muntazam ravishda chop etila boshlaydi.

Safar Barnoyevning birinchi she'rlar to'plami 1970- yilda „Tog'lardaman“ nomi bilan chop etildi. Shundan keyin „Birinchi tabassum“, „Nur yog'ilgan kun“ qissalari bosildi. Adibning „Birinchi tabassum“ (qissalar, 1972), „Dadamning qo'llari“ (she'rlar va dostonlar, 1972), „Sog'inch“ (she'rlar, balladalar, 1975), „Yulduzxon va Bahorjon“ (she'rlar va ertaklar, 1977), „Askar qaytgan kun“ (hikoyalar, qissalar, 1980), „Oq laylaklar“ (hikoya, qissalar, 1982), „Chehralar“ (balladalar, 1984), „Egizaklar“ (hikoyalar, qissalar, 1985), „Mukofot“ (hikoyalar,

1985), „Tinchlikni ulug'laymiz“ (she'rlar, dostonlar, 1986), „Karimjon-karlson“ (hikoyalar, qissalar, 1988), „Dadam haqida qo'shiq“ (she'rlar, ertaklar, 1989), rus tilida esa „Белые аисты“ (hikoyalar, qissalar, 1990), „Yangi kunlar“ (qissa, 1990), „Nilufarning olmalari“ (hikoyalar, 1996), „Kichkina Xo'ja Nasriddin“ (qissa, 1998) singari kitoblari nashr qilingan.

Adibning ko'pgina asarlari rus, tojik, qirg'iz, ukrain, belorus, polyak, ingliz tillariga tarjima qilingan. Uning „47- yil hikoyalari“, „Afg'on bolalari“ hikoyalar turkumi adabiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan.

OSTONAMIZ – UYIMIZ

Dunyo kezib yursa ham
 Bizning orzu-o'yimiz —
 Olam ichra bir olam
 Ostonamiz — uyimiz.
 Doim aziz tutganlar
 Unda har bir g'ishtimiz.
 Oilam deb o'tganlar
 Bizning yetti pushtimiz.
 Har eshigi, romiga
 Quyosh nuri boylangan,
 Uyimizning tomiga
 Tariximiz joylangan.
 Eng muqaddas joyimiz —
 Ostonamiz — uyimiz.
 Uyimizdan ko'rinar
 Bizning qaddi-bo'yimiz!

DADAMNING QO'LLARI

Dadamning qo'llari miltiq ham ushlagan,
 Gulni ham ekkandir dadamning qo'llari.
 Men dadam haqida hikoya boshlasam:
 Ajoyib, rang-barang dadamning yo'llari.

Dadamning qo'llari boshimni silaydi,
 Dadamning qo'llari tinchlikning timsoli.
 Dadamning qo'llari yaxshilik tilaydi,
 Ularga boqaman gohida jim qolib.

Qabargan barmoqlar urug'-u aymoqdir,
 Lashkarday saf tortib turadi har ishga.
 Dadamning topgani shakar-u qaymoqdir,
 Bizlarni qoldirmas hech qachon tashvishda.

Dadamning qo'llari har doim balanddir,
 Quyosh ham cho'zadi qo'llarin ularga.

Dadamning qo'llari bizlarga payvanddir,
Bizlarga bahorni keltirgan shular-da.

Dadamning qo'llarin siypalab, o'paman,
Dadamning qo'llari uyimiz ko'rkidir.
Dadam bor, hamisha gullaydi bu Vatan,
Dadamning qo'lidan yovuzlar qo'rqadir.

YOMG'IR YOG'DI

Yomg'ir yog'di duv-duv,
Tekin bo'ldi suv-suv.
Irkit yurgan Norjon,
Qo'l-betingni yuv-yuv!

Yomg'ir yog'di duv-duv,
Norjon bo'ldi toza.
O'rtoqlari xursand—
Qarang, qanday soz-a.

Tarnovchadan suvlar
Oqib tushdi shuv-shuv.
O'ynab qoldi jilg'a,
Orqasidan quv-quv.

Yomg'ir yog'gach duv-duv,
Yer-ko'k ketdi yayrab.
Shamol esgach g'uv-g'uv,
Qushlar chiqdi sayrab.

AYIQPOLVON

Ayiqpolvon o'yin tushar,
Avjda chapak, qiyqiriq.
Olqishlardan qalbi jo'shar,
Qilar yana ming qiliq.

Nag'ma qilib egasiga —
 Qarab qo'yayr qayrilib.
 Bir juftgina oppoq qanddan
 Qolmayin deb ayrilib.

SHO'R DANAK

Sho'r danagim, sho'r danak,
 Qanday eding zo'r danak.
 Zo'rman deding chaqdilar,
 Sen o'zingdan ko'r, danak.

TINCHLIK QO'SHIG'I

Men tinchlik qo'shig'in kuylayman,
 Kuylayman,
 Men tinchlik haqida o'ylayman,
 O'ylayman.
 Dadamlar urushda bo'lganlar,
 Bo'lganlar.
 Ko'p og'ir turmushni ko'rganlar,
 Ko'rganlar.
 Urushqoq odamlar bor ekan,
 Bor ekan.
 Hali ko'p odamlar xor ekan,
 Xor ekan.
 Men deyman yomonlar yo'q bo'lsin,
 Yo'q bo'lsin.
 Qorni och odamlar to'q bo'lsin,
 To'q bo'lsin.
 Jang nima? Dadamlar aytganlar,
 Aytganlar.
 Urushdan oyoqsiz qaytganlar,
 Qaytganlar.
 Amaki, tog'alar, o'ylangiz,
 O'ylangiz.

Urushga sira yo'l qo'y mangiz,
 Qo'y mangiz.
 Yovuzlar sira o'q uzmasin,
 Uzmasin.
 Bizlarning o'yinni buzmasin,
 Buzmasin.

MINORA

Buxoroda bo'lganiningda
 Ko'rganmisan, Gulnora?
 Shaharning qoq o'rtaida
 Turar ulkan minora.
 Bulutlarning unga, hatto
 Tegib o'tar ko'y lagi.
 Qancha yurtdan havas bilan
 Kelishadi ko'rgani.
 Qay tomondan boqma unga,
 Darrov ko'zga tashlanar.
 Qancha ertak, fojialar...
 Minoradan boshlanar.
 Qariyb ming yil yashamoqda,
 Gard qo'nmagan toshiga.
 Qaramoqchi bo'lsang unga —
 Do'pping tushar boshingdan.
 O'ymakorlik naqshlari —
 Diqqatingni tortadi.
 O'tib qolsam yonidan-chi,
 Mehrim tag'in ortadi.
 Axir ulkan minorani
 Katta bobomlar qurgan.
 U kishining hunarlarin
 El maqtagan, el ko'rgan.
 Yo'lim tushsa, unga doim —
 Ta'zim qilaman har gal.
 U — bobomga mangulikka —
 Toshdan qo'yilgan haykal.

BOLALARNING OVOZI

Bolalarning ovozi —
 Mening ovozim, sozim.
 Bolalarning ovozi —
 Mening bahorim, yozim.
 Bolalarning ovozi —
 Ostonam butunligi.
 Devorlarning pardozi,
 Borlig'im, butunligim.
 Bolalarning ovozi
 Chalinmasa qulqoqqa,
 Onam ham bo'lmas rozi,
 Qurib qolgum buloqday.
 Shovullamas bog‘, dalaм,
 Ko‘kda chaqilmas chaqin.
 Kundan yorishmas olam,
 Qancha bo'lmasin yaqin.
 Bolalarning ovozi —
 Tomirlarimga tutash.
 Shovqini, erka, nozi
 Bag‘rimni qilgan otash.
 Bolalarning ovozi
 Soyabon barglarimdir.
 Borman deb quloch yozib,
 Qurdirgan arklarimdir.
 Shundanmi, mening naslim
 Tez ko‘zga tashlanadi.
 Vatanni suyish asli
 Boladan boshlanadi.





Tursunboy ADASHBOYEV

(1939- yilda tug'ilgan)



Taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev 1939 yilda qardosh Qirg'izistonning Jalolobod viloyati Olabuqa tumani nadagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. U Toshkent davlat universitetini hamda Jahon adabiyoti institutini bitirgan. Shoir „Olatog“ — lolatog“ kitobida yozganidek, ikki elning farzandidir:

*O'zbek, qirg'iz qoni singgan,
Sizga aytsam to'g'riman.
Shu boisdan ikki xalqning —
Erka shoir-o'g'liman.*

Tursunboy Adashboyev o'zbek va qirg'iz tillarida ijod qiladi. „Kamolning olmasi“ deb nomlangan birinchi kitobi 1966- yilda talabalik chog'idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentdag'i „Yosh gvardiya“, Bishkekdag'i „Mektep“ nashriyotlarida „Biz sayohatchilar“ (1969), „Ala-Toluk bolomun“ (1971), „Arstonbob sharsharasi“ (1973), „Surnay“ (1975), „Nur daryo“ (1977), „Guldasta“ (1979), „Olatog“ — lolatog“ (1982), „Oqbura to'lqinlari“ (1985), „Sovg'a“ (1987) to'plamlari bosilib chiqdi. Kichkintoylarga qisqa va lo'nda yozish, qissadan hissa chiqarish Tursunboy Adashboyev ijodining eng muhim fazilatlaridan biridir.

Tursunboy Adashboyevning kulgiga boy, hazil-mutoyiba bilan yo'g'rilgan asarlari qardosh xalqlar tillariga ham o'girilgan. Masalan, „Песня Жаворонок“, „Мельница“, „Подарок“, „Олти оyoqli Ho'tikcha“, „Olatog‘ ohanglari“ singari bir talay asarlari rus, latish, qozoq, tojik tillarida chop etilgan. Eng sara she'rlari esa qirg‘iz va o'zbek bolalar she'riyati antologiyalaridan munosib o'rinn olgan.

Tursunboy Adashboyev jahon bolalar adabiyoti vakillarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borayotir. Uolter De Lamer, Yan Bjexva, K. Chukovskiy, S. Marshak, M. Jong'oziyev, Q. Mirzaliyev, O. Allanazarov, Q. Junushev va L. Briyedis kabi shoirlarning asarlarini yosh kitobxonlar Tursunboy Adashboyev tarjimasida sevib o'qishadi. Bundan tashqari bir qator darsliklarga uning asarlaridan namunalar kiritilgan.

Tursunboy Adashboyevning ijodiy mehnatlari munosib taqdirlandi. U „Do'stlik“ va „Manas“ ordenlarining sovrindori, „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi“, „Qirg‘izistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi“ kabi unvonlarga sazovor bo'lgan shoir va tarjimondir.

TUPROQ

Ajdodlardan meros bo‘lib
 Qolgan tuproq.
 Bobolarning qon va teri
 Tomgan tuproq.
 Qizg‘aldoqlar ochilganda
 Qilmay kanda.
 Qir, adirlar gulxan bo‘lib
 Yongan tuproq.
 To‘kin-sochin dasturxonni
 Solgan tuproq.
 Dori-darmon, sinovlardan
 Tolgan tuproq.
 Qotilni ham, botirni ham
 Sukut saqlab,
 Ehtiyotlab, o‘z bag‘riga
 Olgan tuproq.
 Bobolarning qon va teri
 Tomgan tuproq.

ONA TILIM

Buyuk Temur jahon bo‘ylab,
 O‘z dovrug‘in solgan tilim.
 Mir Alisher bobomlardan,
 Meros bo‘lib qolgan tilim.
 Bobur Mirzo she’rlaridan,
 Rang va qiyos olgan tilim.
 Shunday tildan tonar bo‘lsam,
 Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.
 Alla bo‘lib jaranglagan,
 Ona tilim — jon-u dilim.

QO'SH QALDIRG'OCH

Elchi bahor keldi yana,
 Qir, adirga durlar sochib.
 Dutor nusxa inin yo'qlab
 Qaytdi tog'ning qaldirg'ochi.

Biroq uning uyasini
 Hech tortinib o'tirmasdan
 Egallahib olgan ekan,
 Bir just chumchuq atay — qasddan.

Qaldirg'ochlar iltimosin,
 Infosizlar uqmay qo'ydi.
 Ichkariga kirib olib,
 Tashqariga chiqmay qo'ydi.

Qo'sh qaldirg'och chug'urlashib,
 Biri inni turdi poylab.
 Ikkinchisi do'st-yorlarin,
 Boshlab keldi parvoz aylab.

Endi ahvol tangligini
 Ikki chumchuq ko'rib turar.
 Hasharchilar to'rt tomondan,
 In og'zini qo'rib turar.

Qaldirg'ochlar ishni boshlab,
 Loyni chilab, qo'shib somon—
 Eshik og'zin berkitdilar,
 Oqibati bo'ldi yomon...

BESHTA ARRA

Raqamlarning yordamida to'rtta amal,
 Daftaringda yozilganday KARRA bo'lar.
 Tegirmonda don-dunlarni tortib ko'rsang,
 Maydalaniib un bo'lar, ZARRA bo'lar.

Kim o'zarga poyga qo'ysak manzil so'nggi,
 Chavandozni aniqlovchi MARRA bo'lar.
 Sabzavotning nomlari ham turfa xildir,
 Bodringning jaydarisi TARRA bo'lar.
 Talay so'zning ma'nosini anglab yetding,
 Mirshab tutgan tayoq esa DARRA bo'lar.
 Bu so'zlardan bosh harfini olib qo'ysak,
 Duradgorga birmas, beshta ARRA bo'lar.

CHUMCHUQLARGA UYADIR

Ashraf aka ANOR so'ydi,
 Anormisan-anor deysiz.
 Har donasi gavhar misol,
 Yalt-yult etar FANOR deysiz.
 „A“ harfini olgan edik,
 Yo'q narsadan „bor“ bo'ldi.
 Barchamizga tanish hayvon,
 Qo'sh o'rkarshli NOR bo'ldi.
 Bolakaylar, bilib qo'ying,
 Nor degani TUYAdir.
 „T“ harfini qisqartirsak,
 Chumchuqlarga UYAdir.

OVNING GASHTI

Qirq yolg'ondan bir yolg'on,
 Qadimdan meros qolgan.
 Yelkamda safar xaltam,
 Yonimda sergak tozim.
 Ovda ne ko'rgan bo'lsam,
 Sizga aytmog'im lozim.
 Cho'l bag'rida biqirlab,
 Buloq qaynab turibdi.
 Bitta sichqon qopltonni,
 G'ajib, chaynab turibdi.

Do'stlar, buni rostmana,
 Shikor desa bo'ladi.
 Sirtlon bilan qashqirning
 Oqib ketdi so'lagi.
 G'ingshib chiyabo'rilar,
 Chor tarafda aylanar.
 O'limtik qush charx urib,
 O'lja sari shaylanar.
 It bezovta bu holdan,
 — Sabr qil, — deb, — oziga.
 Suyak olib qopchiqdan,
 Tashlab berdim toziga.
 Xayollarim uchqur tulpor,
 Uni qanday kishanlaysiz.
 Latifjonning loflariga
 Goh ishonib, ishonmaysiz.

BARCHASI YODIMDA

Barchasi yodimda, esimda,
 Hali tug'ilмаган kezimda.
 Bobomning yilqisin boqardim,
 Xarsang toshga qoziq qoqardim.
 Barchasi yodimda, esimda,
 Hali tug'ilмаган kezimda.
 Kelardim otlarni qaytarib,
 Qarasam, yo'q to'riq baytalim.
 Uni bog'dan, tog'dan qidirdim,
 Yayov hamma yog'dan qidirdim.
 U paytlarda oy ham yotmasdi,
 Quyosh esa sira botmasdi.
 Bulut bo'lmasa ham do'l yog'ardi,
 Momom qisir echkini sog'ardi.
 Foyda bormi gapni cho'zgandan,
 Baytalimni topdim O'zgandan.

Oynako'lning shundoq yonida,
 Juman uloqchining tomida.
 Qulunlab yotibdi, qaranglar,
 Toychoq meni tanib alanglar.
 Harakatni boshladim shomdan,
 Olib tushgach, ularni tomdan,
 Otni minib, qulunni ortsam,
 Cho'h, deb unga qamchinni tortsam,
 Turolmadi baytal bechora,
 Yurolmadi baytal bechora.
 So'ngra toyga otni o'ngarib,
 Egarini bog'lab-to'nkarib —
 Qamchi ursam, qanoti borday,
 Qulun chopib ketdi shunqorday.

BESHTA SANOCHE

Lof gaplarga Latifjonning,
 Suyagi yo'q.
 Sal maqtanchoq, og'zini-ku,
 Jiyagi yo'q.
 Yoshligidan o'ta abjir,
 Chaqqon edi.
 Bo'rdoqiga beshta chivin
 Boqqan edi.
 Charxlattirib bolta, pichoq,
 Asboblarni.
 Ishga soldi guzardagi
 Qassoblarni.
 Bir chivinni ayirguncha
 Jo'rasidan,
 Tushov solib chiqarguncha,
 Qo'rasidan,
 Ikki qassob tushib ketdi
 Qora terga.

Eplab-seplab yotqizishib,
 Uni yerga.
 Shodi qassob, tavakkal, deb
 Tortdi pichoq,
 Terisidan beshta sanoch¹
 Tikib shu choq.
 Men ularni cho'ponlarga
 Sovg'a qildim.
 — Shu gap rostmi? Ajabtovur!
 Tavba qildim.
 — Yog'larini berayotsak
 Sovungarga,
 Go'shtlarini olib qochdi,
 Bir to'p qarg'a.

MAYMUNNING SHUKRONASI

Yer-u ko'kka ishonmasdan,
 Ko'zining oq-qorasini.
 Ona maymun yuvintirar,
 Shum kenjatoy bolasini.
 Sovun surkab,
 Suvdan purkab,
 Erkalatib, silab-siypab,
 Dilda borin ayon etdi.
 Yelkasini ishqar ekan,
 Maqsadini bayon etdi:
 — Ming bor qulluq, quyosh nurin,
 Olamga teng taratganga.
 Ming bor shukr, bizni esa
 Maymun qilib yaratganga.
 — Shukronangiz nima axir?

¹ **Sanoch** — qimiz quyiladigan idish. Echki va qo'y terisidan tayyorlanadi.

So'roqlaydi bola faqir.
 — Tipratikan bo'lsang agar,
 Bo'tam, nima qilar edim?..
 Ign a bosgan yelkangni men
 Qanday yuvib, silar edim?..

JASORAT

Yo'lbarsdayin bir mushuk,
 Xurrak otib yotibdi.
 Yo musallas ichganmi,
 Go'yo toshdek qotibdi.

Uxlashlari xontaxlit,
 Par yostiqqa qarishgan.
 Mo'ylabiga, lab-lunjiga,
 Gurunch, sabzi yopishgan.

Yaqinlashdim ohista,
 Qarab so'l-u sog'imga.
 Devzirali gurunchdan,
 Palov yegan chog'imda.

Bu ishimni o'zimcha,
 Botirlikka yo'ydim man.
 Tushlik juda soz bo'ldi,
 Oshga rosa to'ydim man.

Lunjidagi yog'ni ham,
 Yaxshilab yalab qo'ydim.
 Hatto paxmoq mo'ylabin,
 Ohista tarab qo'ydim.

Teng-tushlari tamshanit
 Unga boqar angrayib.
 Ota sichqon, balli, deb
 O'pib qo'ydi manglayin.

ARQON QILIB...

Yumronqoziq
Izlab oziq,
Yotmay soya-salqinda,
Yurar qovun poyada.
Tipratikan odaticha
Olazarak boqib picha,
Bir ilonni sudrab borar.
Yumron so'rар:
— Yurib doving,
Baroridan kepti оving.
— Yo'g'-ey, oshna, unday emas, —
Tipratikan nolib ketdi, —
Ilon yeish odatim
Allaqachon qolib ketdi.
— Yo quritib qishda uni
Yanchasanmi talqon qilib.
— Do'stim, o'tin bog'lash uchun
Ishlatamiz arqon qilib...





Sulton JABBOR

(1940- yilda tug'ilgan)



Taniqli bolalar shoiri Sulton Jabbor 1940- yilda Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi Navoiy nomli qishloqda tug'ilgan. U Toshkent shahridagi paxtachilik bo'yicha agronomlar tayyorlaydigan qishloq xo'jalik texnikumida o'qidi.

1957- yilda dastlabki she'rlari bilan vaqtli matbuotda qatnasha boshladi. Keyinchalik Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat kabi ustozlarining nazariga tushdi. Sulton Jabbor bolalar matbuotida, nashriyotlarda xizmat qildi.

Uning „Zog'chalar bozori“, „Oftobnon“, „Bog'lar qo'shig'i“, „Quyosh qoldi dalada“, „Sevinib yashayman“, „Kitob mehri“ va „Quvonch“ deb nomlangan asarlari nashr etilgan. Shoirning xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi“ hamda „Mehnat shuhrati“ ordeni sovrindoridir.

RAHMAT MENGA TEKKANI

Mirzaterak novdasidan
 Ko‘p qalanicha tayyorlab,
 Yo‘l bo‘yiga mehr bilan
 Qadagandim qatorlab.

El koriga yarab qoldi,
 Yaxshi bo‘ldi ekkanim.
 Odamlar uy qurib oldi,
 „Rahmat“ menga tekkani.

SHAMOL MENGA YOQADI

Uchirsa ham do‘ppini,
 Shamol menga yoqadi.
 Koyimanglar ko‘p uni,
 Shamol jonning rohati.

Hush ko‘raman xo‘p uni,
 Shamol meni „boqadi“:
 Shox silkitib har kuni
 To‘p-to‘p yong‘oq qoqadi!

TOG‘ RAYHONI

Bir do‘s st rayhon tutqazib
 Oliy himmat ko‘rsatdi.
 Bu — oddiymas, shifobaxsh
 Tog‘ rayhonin ko‘chati.

Bog‘ to‘riga o‘tqazay,
 Dimog‘larni chog‘lasin.
 Do‘s himmatin eslatib,
 Yuraklarni bog‘lasin.

SHIRIN TUSH

Xursand uyg'onaman,
 Ko'rsam shirin tush.
 Yaxshi tush ko'rganda
 Ko'nglim bo'lar xush.
 Sinadim:
 O'ngimda
 Shod yurgan kunim,
 Shirin tushlar ko'rib,
 O'tadi tunim.

PALAGI TOZA

Nega ba'zi kishini
 Palagi toza, derlar.
 Maqtab xulqi, ishini,
 Oling andoza, derlar.
 Qovun palagi toza,
 Demak, tushmagan kasal.
 Hosili ham mo'l rosa,
 Mazasi ham naq asal.

POLIZDA

Kunim o'tar polizda
 Parvarishlab — ovunib:
 Band beradi hademay,
 To'rlab qoldi qovunim.

Polizingiz bo'lmasa,
 Kelavering mehmonga.
 Bitta qovun ne bo'pti,
 Qo'li ochiq dehqonga!

ANOR

Namanganda bir bog'ga kirsam,
 Anorlari handalakcha bor.
 So'yib ko'rsam, yoqt donlari
 Xuddi qo'lida terganday qator.

Qani, anor donalariday
 Terolsaydim so'zlar gavharin,
 Bog'bon kabi xalqimga men ham
 Tutar edim she'riy daftaram.

BOG'IMDAY

Yomg'ir yog'ar shovullab,
 Yuvar changni-g'uborni.
 Cho'miltirib, bog'imning
 Husnin ochib yubordi.

So'limlashdi barglari,
 Mevalari yoqimtoy.
 Jannatsimon bog' bormi
 Dunyoda hech bog'imday!

KO'CHATIM

Urug'ini undirib,
 Payvandladim — uladim.
 Parvarishni do'ndirib,
 Yalqovlikni quvladim.

Nihol bo'lib, yetilib
 Xayrlashar ko'chatim:
 Daraxtlikka intilib
 Yangi joyga ko'chadim.

HOY, AYYOR!

„Yana ahvolimdan
Birov kulmasin,
Oldin bodom bilan
O'rik gullasin!

Sovuqqa chalinib,
Tashvishga qolmay:
Hali qor yog'ishi
Mumkin“, — der olma.

Bodom bilan o'rik
Gullab bo'lishdi,
Gulbargin shamolga
Pullab bo'lishdi.

Endi, g'o'rasini
Bag'riga bosib,
Tebratar, osmonga
Belanchak osib.

Olma qarab turar
Tomosha qilib,
Havasmي, hasaddan
Og'zi ochilib.

Gullashda kechikding
Hoy, ayyor olma.
Vaqtida meva tug,
Aldanib qolma!





Abdulla ORIPOV

(1941- yilda tug'ilgan)



O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov 1941- yili Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. O'rta maktabni 1958- yili oltin medal bilan tugatgach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga kirib, uni 1963- yili muvaffaqiyatli bitirdi.

1963- yildan boshlab turli nashriyotlarda muharrir, Yozuvchilar uyushmasida kotib, mualliflar huquqini himoya qilish uyushmasida rahbar vazifalarida xizmat qilib keldi. Hozirgi kunda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisidir.

Abdulla Oripovning ijodi talabalik yillaridayoq boshlanib, uning birinchi she'rlar to'plami „Mitti yulduz“ 1965- yili chop etilgan. Keyinchalik shoirning „Ko'zlarim yo'lingda“ (1967), „Onajon“ (1969), „Ruhim“ (1971), „O'zbekiston“, „Qasida“ (1972), „Xotirot“ (1974), „Yurtim shamoli“ (1974), „Hayrat“ (1979), „Hakim va ajal“ (1980), „Najot qal'asi“ (1980), „Yillar armoni“ (1983), „Saylanma“ (1996) she'riy to'plamlari bosilib chiqqan. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda shoirning ijodi, badiiy mahorati yildan yilga o'sib, sayqallashib, kamol topganiga guvoh bo'lamiz.

„Saylanma“ to'plamidagi fikrlar tug'yoni, tug'yonlar ummoni bizni hayratga soladi. Ayniqsa, Istiqlol g'oyasi, el-yurt mustaqilligi, ona-Vatanini ozod va obod ko'rish istagi satrdan satrga sayqal topib, ajib bir porloqlik hosil qiladi. Shoirning 60- yillarda yozilgan

„Men nechun sevaman O‘zbekistonni“, „O‘zbekistonda kuz“, „Kuz“ kabi she’rlaridayoq Istiqlol nurlari jilva qilgandek bo‘ladi.

Abdulla Oripov dostonnavis va dramaturg sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Xususan, uning „Jannatga yo‘l“ dostoni va „Sohibqiron“ (1996) she’riy dramasi shoirga katta shuhrat keltirgan asarlardir. Ayni paytda u O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi hamdir.

Abdulla Oripov iste’dodli tarjimon sifatida Dantening „Ilohiy komediya“ asarini o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan o‘girgan. A. Nekrasov, L. Ukrainka, Shevchenko, R. Hamzatov, Q. Quliyev asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining sovrindori, Kaliforniya (AQSH) Fan, Ta’lim, Sanoat va San’at Xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zosidir. Mustaqilligimizning yetti yilligida unga birinchilardan bo‘lib, „O‘zbekiston Qahramoni“ unvoni berildi.

IQBOLI BUYUKSAN

Avvalo rahmatdir Onaga,
 So'ng esa albatta Otaga.
 Bizlarga eslatmish
 hayotni,
 Unutmang hech qachon
 ustodni...
 Sen o'zbek elining
 farzandi,
 Istiqlol yurtining
 dilbandi...
 Vataning g'oyatda
 keng erur
 Barchaga barobar
 teng erur,
 Mehnatda qotsa ham
 suyaging,
 Hech yerga tegmasin
 kuraging.
 Chiniqtir mayliga
 sen tanni,
 Unutma va lekin
 Vatanni.
 Bolajon, sen doim
 suyuksan,
 Bilib qo'y, iqboli
 buyuksan!

DEHQONBOBO VA O'N IKKI BOLAKAY QISSASI

Dehqonbobo Moskva
 Safaridan qaytardi.
 Uchqur poyezd „taqa-taq“
 Qo'shig'ini aytardi.

Nima uzun dunyoda?
 Yo'l uzundir, albatta.
 Boz ustiga „pochtavoy“
 To'xtar har bir bekatda.

Ko'z oldidan birma-bir
 O'tardi nabiralar.
 Kichkintoy Zarifa-yu
 Qahramon Nodiralar.

Shu choq qo'shni vagondan
 Shamol kabi yugurib,
 O'n ikkita bolakay
 Kelishdi-ku pirillab:

— Bobo, biz ham safardan
 Yelmoqdamiz, — dedilar.
 — Hozir-chi, suhbat uchun
 Kelmoqdamiz, — dedilar.

— Tanishaylik, avvalo, —
 Dedi kulib dono chol.
 Bolalar ham, albatta,
 Quloq solishdi darhol.

— Qani, aytинг-chi, bir-bir
 O'sgan joyingiz otin.
 Bilarmisiz, bolalar,
 O'lkangizning hayotin?

Qo'l ko'tardi beto'xtov
 Birinchi bo'lib Anvar.
 Dedi: — Shahrimiz Toshkent,
 O'lkada poytaxt, rahbar.

— Men Orolning bo'yida
 O'sganman, — der Matmurod, —

Bobom baliqchi dongdor,
Mo'ynoqda chiqargan ot.

Bu chog' Madaminjonning
Ilhomni ham jo'shdi-ku,
Paxtakorlar darg'asi
Andijonni qo'shdi-ku.

Farg'onaning nomidan
Yo'ldoshali aytdi so'z.
Namangan bog'larini
Fattohjon qildi ko'z-ko'z.

Xorazmni Odamboy
Maqtab qoldi yo'lakay.
Beruniy bobosin ham
Eslab qo'ydi bolakay.

Lapas dedi: — Jizzaxda
Cho'lquvar mening otam.
Orzumdir bog'bon bo'lish
Ham paxtakor chinakam.

— Niyatingga yetgaysan, —
Dedi unga So'nagul.
— Mana bizning tomonlar
Mirzacho'lmas, Mirzagul.

Birdan gapga qo'shildi
Qashqadaryolik Jovli:
— Paxta ekamiz bizlar
Surxon bilan bir hovli.

Kogonlik qiz Zevarxon
Suhbatga berib oro,
Dedi: — Oltinga kondir
Bizning qadim Buxoro.

Oxiri tilga kirdi
 Samarqandlik Hakimjon,
 Dedi: — Bizning shaharni
 Biladi butun jahon.

Dehqonbobo jilmayib:
 — Quvnoqlar, balli, — dedi. —
 Vataningiz bepoyon,
 Bilgaysiz hali, — dedi.

Siz atagan har bir joy
 Bitta bo'ston bo'ladi.
 Hammasini qo'shsangiz,
 O'zbekiston bo'ladi...

SIZGA


Erkin bo'ladilar samoda qushlar,
 Erkin bo'ladilar uyquda tushlar.
 Sahrolar qo'ynida shamollar erkin,
 Tutqun bo'lmasa gar xayollar erkin.

Erkin bo'lmasa gar inson farzandi,
 — Uning oti quldir, unvoni — bandi.
 Mustaqil bo'loldi endi o'zbegim,
 Navoiy, Boburim, ya'ni o'zligim.

Ozodlik ajdodlar quyoshi bo'ldi,
 Armonim yoritgan Yurtboshi bo'ldi.
 Bizlar sal qaridik, armon yoshlarda,
 Yorug' kunga boqqan qaro ko'zlarda.

Ko'p yillar siz uchun she'rlar bitganmiz,
 Shu aziz kunlarni orzu etganmiz.
 Millat ona bo'lsa, siz — g'uncha, bo'ston,
 Kelajagi buyuk hur O'zbekiston.





Habib RAHMAT

(1941- yilda tug'ilgan)



Taniqli bolalar shoiri Habib Rahmat 1941- yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Bo'lajak shoirning ilk asarlari „G'uncha“, „Gulxan“, „Tong yulduzi“ kabi vaqtli matbuot nashrlarida bosilib chiqqan. Qudrat Hikmatning ijodiy maktabida mahoratini oshirgan Habib Rahmat maktabgacha yoshdagagi kichkintoylarning sevimli shoirlaridan biriga aylandi. Uning „Do'l“ sarlavhali she'riga e'tibor bering:

*Tunukani chertib xo'p,
Kesaklarni kertib xo'p,
Vahimali do'l yog'ar
Shatir-shutur etib xo'p.*

*Atrofga tun cho'kkanday,
Butun borliq bo'kkanday,
Tarnovlardan suv oqar,
Chelaklab suv to'kkanday.*

Habib Rahmat ko'p yillar davomida bosmaxonalarda xizmat qildi. Hayot maktabida chiniqqan, turmushning past-u baland sinovlaridan dadil o'tganligi uchun ham uning she'rlari tashbihlarga, kutilmagan qiyoslarga boy.

Habib Rahmatning „Sizni Vatan erkalar“, „Bizning zveno“, „Quloksiz uloq“, „Ari va Ali“, „Qushlar bozori“, „Qiziq sovg'alar“, „Botir askarcha“ deb nomlangan qator kitoblari bosilib chiqqan.

DIL SO‘ZLARI

Oq kaptarim chiroyli,
 Ko‘k kaptarim chiroyli.
 Tinchlik qushi deydigan
 Dil gaplarim chiroyli.

Ko‘k toqida charx ursa,
 Bir dasta gulga o‘xshar.
 Quyosh boshida kulta,
 Bir hovuch nurga o‘xshar.

Parvoz aylang elma-el,
 Qanotingiz tolmasin.
 Yer yuziga „tinchlik“ deng,
 Eshitmagan qolmasin.

HAR DALANING...

Har dalaning o‘z fayzi,
 Tarovati boshqadir.
 Mehnat qilgan qo‘llarga
 Saxovati boshqadir.

Oyning ipak nurlari
 Dalalarga quyulgay.
 Quyosh bergen harorat
 Yerga darmon tuyulgay.

Qattiq yerni qazilab
 Yurgan dehqon bobomdir.
 Kuzda to‘kin hosili
 Dala tutgan in’omdir.

Dalam,
 Bobom bag‘ri keng,
 Dilda zo‘r niyat banddir.

Begona o't o'smasin
Ishtiyoqi balanddir.

Harakatda — baraka,
Bobom naqli yodimda.
Shunday ishlar qilayin
Bari hali oldinda.

MEN HAM...

Mening oyim ish qilarlar
Pishiq-puxta, sarishta.
Maqtashadi tengqurlari:
„Bu ayol bir farishta“.

Ishtiyoqda tinglar odam,
Gap-so'zлari bir mayin.
Kattani ham, kichikni ham
Sizlaydilar bridayin.

Kulsalar-chi, yuzlaridan
Nurmi, gulmi yog'ilar.
Men ularning qizlariman,
Biram o'xshagim kelar.

BULOQ

Turna ko'zli buloqcha
Qaynab yotar biqirlab.
Qaynar-u toshib ketmas,
Kulgan bo'lar qiqirlab.

Tarnovchadan yo'l ochib,
Oqib-chopib ketadi.
Bog'ni qo'msar, u tomon
Yo'llar topib ketadi.

KURASH

Mard lochinga hujum qildi
 Bir to‘p quzg‘un — bosqinchi.
 Yakka lochin olishardi
 Ketmasin deb tog‘ tinchi.

Dedilarki: „Ular ko‘pdir,
 Chekil yoki bo‘l taslim“.
 Sado keldi: — Taslim bo‘lish
 Mening uchun bu o‘lim.

Or qilaman kesak kabi
 Sekin-asta nurashdan.
 Men lochinman, yengilsam ham
 Kurash bo‘lsin kurashday.

AFRIKALIK YO‘LBARS

Yo‘lbars yurar qafasda,
 Ko‘rdik dadam,
 Men, G‘ayni.
 Hazil qildilar dadam:
 — Ishlar qalay, og‘ayni?

Yo‘lbars parvo qilmaydi,
 Ukam sekin jilmaydi:
 — Afrikadan kelgan u,
 Tilimizni bilmaydi.





Qambar OTA

(1941- yilda tug'ilgan)



Taniqli bolalar shoiri Qambar Ota (O'tayev) 1941- yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. 1961- yilda Samarqand shahridagi Qishloq xo'jaligini melioratsiya qilish texnikumini bitirgan. Keyin Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetida ta'lim olgan. Oliygojni tugatgach, Qishloq xo'jalik institutida dars beradi. Shuningdek, vaqtli matbuotda ishlash bilan birga, badiiy adabiyot bilan shug'ullangan, kichkintoylar uchun yozgan she'rlari gazeta va jurnallarda chop etilgan. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida xizmat qilgan.

Qambar Otaning hozirga qadar „Kitobcha va buzoqcha“, „Chavandoz orzusi“, „Tinim bilmas shamolvoy“, „Shirinso'z“, „Quyoshli dunyo“, „Bolalarning ko'zlari“, „Quyosh bilan gaplashdim“, „Toshpolvon bilan Ishpolvon“, „Kitobsevar Oftoboy“, „Bizning kosmos“ va „G'ildirak“ deb nomlangan yigirmadan ortiq kitoblari nashr etilgan, yuzga yaqin she'rlariga kuylar bastalangan. U jahon bolalar shoirlari ijodidan ko'plab sara asarlar tarjima qilgan.

LAYLAKJON

Yovuzlikdan bez mayli,
 Bizdan ammo bezmagin.
 Yakka-yu yolg'iz kelib,
 Yuraklarni ezmagin.
 Yurtimizni, laylakjon,
 Yashnab, yayrab tut makon.
 Erkni sevgan qushlarga
 Bizlar doim mehribon.

BIROVNING DARDI

Nortuyaning oyog'iga
 Ketganida mix kirib:
 — Voy-voy, og'riq azob berar, —
 Dedi sho'rlik bo'kirib.
 — Nafasingni o'chir, daroz,
 Bir mixgami shuncha dod.
 Mening har bir nag'alimda
 To'rttadan mix bor, — der Ot.

KENGURUNING BOLASI

Ko'rsang g'ashing keltiradi
 Kenguruning bolasi.
 Haddan ziyod erkalatib
 Yuboribdi onasi.
 Chatoq bo'lar chiniqtirib
 O'stirmsasa otasi.
 Mehnat qilmay, pinjga kirib
 Yashash katta xatosi.
 O'tkazsa u bolaligin
 Parvo qilmay xaltada,
 Ayting nima kutib bo'lar
 Bunday fahmi kaltadan?!

TO'RT G'ILDIRAK

G'ildiraydi
 To'rt g'ildirak,
 Pildiraydi
 To'rt g'ildirak.
 Bo'lsin deydi
 Yo'limiz keng,
 Yukni doim
 Tortishar teng.

MASXARABOZ

Hayvonot bog'idagi
 Maymun sakrab o'ynaydi.
 Birovlarni kalaka
 Qilishni hech qo'ymaydi.
 Kulgi bo'lar hammaga
 Qilmishiga yarasha,
 O'zgalarni mazax qilib,
 O'zi bo'lar tomosha.

MEHRIBONLIK

Salimjonning
 Ukajoni —
 Jajjigina
 Qaqajoni,
 Isitmabalab
 Bo'ldi kasal.
 Ko'z ocholmay
 Yotar behol.
 Kecha-kunduz
 Boshida u,
 Jilmas aslo,
 Qoshida u.

Voy, ukajon,
 Og'riq o'lzin,
 Shu kasaling
 Menga bo'lzin.
 Sen chekmagin
 Faqat azob,
 Kulgin doim
 Misli oftob,
 Dard ko'rmagin,
 Sog'lom bo'lgin,
 Tezroq o'sib
 Odam bo'lgin.

O'ZBEKISTON

Qalblarda ko'p orzu-armon,
 Yashnagin, deb alvon-alvon.
 Ter to'kamiz marjon-marjon,
 Mehribonim O'zbekiston.

Taralib olamga shoning,
 Xirmonlardan toshsa doning,
 Nurdyay kulta shirmoy noning,
 Onajonim O'zbekiston.

Umidigmiz, bizga ishon,
 Ilm-u fanda topib imkon.
 O'sib, yuzlab ochgaymiz kon,
 Jonajonim O'zbekiston.

Dadil qadam tashlagaysan,
 Jahonaro yashnagaysan,
 Xalqni baxtga boshlagaysan,
 Baxt makonim O'zbekiston.

BAXT QOMUSI

Vatanimni yashnatar
Istiqlolning ziyosi.
Xalqni baxtiyor etar
Erk,adolat dunyosi.

Ozod mamlakatimda
Konstitutsiyam baxtim.
Vatanga sodiq bo'lib
O'sish yurakda ahdim.

Hammaning haq-huquqi
Aniq bayon etilgan.
Halol yashash yo'llari
Qonun qilib bitilgan.

Doim himoyasida
Inson faxr, nomusi.
Yashasin mustaqillik
Yaratgan baxt qomusi.

VATAN TIMSOLI

O'zbekiston timsoli,
Aks etgan yurt iqboli.
Boshda Humo qushi bor,
Topgan obro'-e'tibor.

Quyoshday pok Vatanim,
Erk yaratgan makonim.
Xalqim tanlagan nusxa,
Yaqinsan dilga, ko'zga.

Mamlakatim naqshisan,
Sharqning orombaxshisan.
Vatan ramzi — ko'rksamсан,
Yosh umrimga ilhomsan.

EH, MAZA

Osmonni
Kuldirib,
Ziyoga
To'ldirib.

Yashinim,
Yashnagin.
Chaqmog'im,
Chaqnagin.

Sevimli
Kamalak,
Atrofga
Kulib boq.

Pokiza,
Top-toza.
Eh, maza,
Eh, maza!

CHAQQONMAN

Shohruh degan o'g'lonman,
Ishga tayyor, chaqqonman.
Duo olib bobomdan,
Duo olib momomdan,
Oyimlarga yoqqanman,
Dadamlarga yoqqanman.
Hammalari izzatda,
Men bo'laman xizmatda.





Safo OCHIL

(1942- yilda tug'ilgan)



Nazm eli, bazm eli — Xorazmda bir ko'r kam qishloq borki, bir tomoni yaylov, bir tomoni sahroga tutash, bag'ri keng, odamlarin qalbi otash. Safo Yangiariq tumanida joylashgan shu Qo'ng'irot ovulida 1942- yili tavallud topdi.

U boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktabni qishlog'idagi „Olg'a“ hamda „Oxunboboyev“ nomli maktablarda tugatib, o'rta ta'limni esa Bog'ot tumanidagi Narimonov nomli maktabda oldi. 1958-yilda Safo Ochil Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutining nemis tili fakultetiga o'qishga kirib, uni 1963- yilda muvaffaqiyatli tamomladi. So'ng uzoq yillar davomida Xorazm davlat pedagogika institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Safo Ochil 1974- yilda nemis poeziyasidan o'zbek tiliga tarjima muammosi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

Olim va shoir Safo Ochil ilmiy faoliyat bilan badiiy ijodni qo'shib olib bordi. Olimning bolalar she'riyatiga bag'ishlangan qator ilmiy, adabiy-tanqidiy maqololari chop etilgan.

Safo Ochil 1955- yilda she'r yozishni mashq qila boshlagan. Uning mashqlari dastlab maktab devoriy gazetasida, tuman va viloyat gazetalarida e'lon qilingan, keyinchalik respublika gazeta va jurnallarida, jamoa to'plamlarida bosildi.

Shoirning bolalar uchun yozgan she'riy asarlari, ertak va dostonlari „Umidvor qushcha“ (1983), „Kamalak va sumalak“ (1987), „Burgut“ (1991) singari kitoblarga jamlandi. Safo Ochilning „Tinchlik haqida qo'shiq“, „Osmonimiz tiniq bo'lsin“, „Gullarim“, „O'z tilim“, „Svetofor“, „Ko'klam qo'shig'i“ kabi she'rlari bolalarning sevimli qo'shig'iga aylanib ketgan.

Safo Ochilning „Qalb gulshani“, „Orzular ko'kidagi shafaqlar“, „Inson ziynati — odobdir“, „Bir hovuch nur“, „Muborak kunlar“, „Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari“, „Qaldirg'och va beshiktervat haqida ertak“ singari o'nlab kitoblari keng o'quvchilar ommasiga manzur bo'ldi.

Safo Ochil 1999- yilda mustaqillik ma'naviyati va tarbiya masalalariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Safo Ochil hozirda „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyida yetakchi muharrir hamda Toshkent davlat pedagogika universiteting professori sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

KO'KLAM QO'SHIG'I

Momaqaldiroq
 Arava qo'shib,
 Tog'lar ustidan
 Kelmoqda tushib.

Olam yarqirar,
 Yo'qdir qiyosi.
 Jaranglab ketdi
 Yomg'irning sasi.

Yomg'ir yog'moqda
 Shitir-shitirlab.
 Ko'klam qo'shig'in
 Aytar shivirlab.

Giyohlar bilan
 Bo'immoqqa sirdosh.
 Bulut ortidan
 Entikar quyosh.

Shamol uyg'onib,
 Yela boshladi.
 Maysalarni u
 Silay boshladi.

Haydab ketmoqda
 Bulutni shamol.
 Maysa va quyosh
 Ko'rishar visol.

OQSHOM

Tun. Uxlar qishloq.
 Ko'z yummay uni
 Allalar buloq.

Bizning yulduzlar,
Buloqlarda-ye
O‘zlarin izlar.

Buloq kuylaydi,
Ichida yulduz
Sakrab o‘ynaydi.

Kuylayman kuyin,
O‘rganaman men
Yulduzdan o‘yin.

Quvonib juda,
Otdim umbaloq
Buloq boshida.

Kuylayman to‘lib,
Tog‘lar ham kuylar
Menga qo‘silib.

Tog‘lar sadoli
Bag‘ri naqadar
Kayf-u safoli!

Tun. Uxlar qishloq.
Ko‘z yummay uni
Allalar buloq.

QUSHLAR QO‘SHIG‘I

Daryo bo‘yidan
Qo‘sinq taralur.
Voham orzusin
Eshib taralur.

Kim kuylamoqda
Muncha umidvor?
Ko‘nglim ochilar,
Hoy, ayting, kim bor?

Hech kim yo'q ekan,
 Mundoq qarasam.
 Daryo betida
 Titroq, qarasam.

To'lqin bu, to'lqin,
 Kuylarkan, ana.
 Qushlar qilmoqda
 Ko'kda tantana.

Qo'shiq aytmoqda
 Sofdil qushlarim.
 Turfa kuylarga
 To'imqda bag'rim!

SOYAM BILAN O'YNAYMAN

Soyam bilan
 O'ynardim quvnoq.
 Men singari
 U ham xushchaqchaq.

Yursam, yurar,
 Qiziq qilmishi.
 Tursam, turar,
 Ermakdir ishi.

— Ey, soyajon!
 Qilmagin ermak.
 Shunday qilsang,
 Do'stmassan, demak.

O'yin yo'lin
 Aytsam-da bir-bir.
 Bilganidan
 Qolmas baribir.

„Po'm“ desam-da,
Ergashib kelar.
Undan odam
Qanday qutular?!

KUNGABOQAR

Kungaboqar muloyimdir,
Uyati bor.
O'ziga xos qiziq, ajib
Odati bor —
Tunda yerga, kunduz esa
Kunga boqar.
Shu boisdan yer-u kunga
Birday yoqar.
Qorni to'ygach, „yig'ib olar“
U esini.
Quyoshga ham ko'rsatadi
Yelkasini.

QAYIQ

Bir bolakay qamish bargidan,
Chiroyli bir qayiq yasadi.
Orzu, uyi shunda mujassam,
Uni yelkan bilan bezadi.
Tezkor oqib turgan ariqqa,
Uni asta qo'yib yubordi.
To'lqin olib qochdi qayig'in,
Bola esa yig'lab turardi...

OXIRGI SO'ZLAR

Sarg'aygan barglar
Yerga to'kildi.
Go'zal chiroyi
Zum o'tmay so'ldi.

Kimdir yoqipti —
 Barglar jizillar,
 Yonib chiqmoqda
 Oxirgi so'zlar...

YARADOR QUSHCHA

1

— Oyi, oyи, oyijon,
 Bugun qiziq tush ko'rdim.
 Birdan chiqazib qanot,
 Osmonda uchib yurdim.

Xuddi shu hozirgidek,
 Qo'llarim ham bor emish.
 Bir qushchani otdilar,
 Shunda qo'llar berdi ish.

Ushlab qolib qushchani,
 Uyasiga yotqizdim.
 Yaralarini bog'lab,
 Tongni birga otqizdim.

Chiyillardi bechora,
 Yotar edi tovlanib.
 Yig'lab-yig'lab oxiri
 Mana, qoldim uyg'onib.

Tushdagidek ne uchun,
 Uchib yura olmayman?
 Yarador qushchamni men
 Nahot ko'ra olmayman?

2

O'yinqaroq bir bola,
 Qoshi baroq bir bola.
 Sopqonidan otib tosh,
 Qush ko'zidan to'kdi yosh.

Qulab tushdi qushchajon,
Tipirchilar chalajon.
Armon qilar qushchajon,
Shavqat kutar qushchajon.

Olib qochdim mushukdan,
In tuzatdim yashikdan.
Yarasini boyladim,
Xavfsiz inga joyladim.

Don-dun berdim har kuni,
Holin so'rdim har kuni.
Tuzalgach asta-asta,
Zerikdi u qafasda.

Qolgan kabi armonda,
Uchsam derdi osmonda.
Uni yaxshi ko'rardim,
Darrov qo'yib yubordim.

XAZONLARNI SUPURMANG

Yaproq daraxt shoxida,
Tabiatning bezagi.
Rangi somon, kelganda —
Fasllarning kuzagi.

Daraxt shoxida chog'i,
Odamlar ko'nglin xushlar.
Yerga qulasa, farrosh
Chetga supurib tashlar.

Xazonlarni supurmang,
Farrosh xola, iltimos.
Xazonlar ham chiroyli,
Ko'rsin uni keksa-yosh.

ILON VA TIPRATIKAN

Vishillardi Ilon:
 — Yolg'iz shu o'zimga,
 Ishoning so'zimga,
 Bo'ysunar izmimga.
 Qo'rqishadi mendan
 Hatto Sher, Arslon.
 Qancha yostiqlarni
 Bir-birdan quritdim.
 Yodimga ne kelsa,
 Amrimni yuritdim.
 Boshin qaltiratib,
 Vishillardi Ilon.
 Shu tob quyrug'idan
 Sekin yeb boshladi
 Oddiy tipratikan...

TUYA VA KUCHUK

Bir chekkada yolg'iz,
 Baxtliman deya,
 Yantoq yeb turardi
 Beozor tuya.

Kuchukcha hurardi,
 Do'q qilib unga.
 Tuya dedi: — Nega
 Hurasan menga?

Kuchuk javob qildi:
 — Bu mening ishim.
 — Baribir qo'rqlayman.
 — Bu sening ishing.





Odil ABDURAHMON

(1944- yilda tug'ilgan)



Odil Abdurahmon 1944- yilda Andijon viloyatining Qo'rg'on-tepa tumanidagi Ma'murobod qishlog'ida tug'ilgan. Andijon davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. Viloyat, respublika teleradiokampaniyalarida xizmat qilgan. „Oltin vodiy“ gazetasida bosh muharrir bo'lib ishlagan.

Shoirning „Quvnoq bolalar“, „Salom, quyosh“, „Oyga remont tusharmish“, „Ildiz nima deydi?“, „Azim kichik armiyasining xazinasi“, „Quyoshni yumalatib“, „Bolalik qolgan joylar“, „O'zbeklar yurti“, „Miltiq otilmadi“, „Chandiqli kishi“, „Jalolobod tomonlarda“ singari yigirmadan ortiq kitoblari chop etilgan.

Odil Abdurahmon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

TAROQ

Ishlariga yaradim,
Sochlarini taradim.
Bilib qilsam ishimni,
Sindirdilar tishimni.

JO‘XORI

Jo‘xoriman,
Jo‘xoriman.
Sizdan bo‘ydor
Yuqoriman.
Qo‘ltiqlagan
Bolalarim,
Yeb qo‘yishdi
Xolalarim.

LOLA

Odamlardan
Qochdim men.
Tog‘da ko‘zim
Ochdim men.
Topib olib
Kulishdi,
Chiroyli deb
Yulishdi.

JAG‘-JAG‘

Men jag‘-jag‘man.
Jag‘-jag‘man.
Bahor bilan
Chog‘-chog‘man.
Odamlar
Suyib turib,

Boshimdan
 Tuyib turib,
 Barg-badanim
 Chopdilar.
 Somsa qilib
 Yopdilar.

QUYOSHNI YUMALATIB

Don orqalab qumursqa,
 Majol qolmay yurmakka —
 To‘xtab qoldi duch kelib,
 Ko‘z yoshiday ko‘lmakka.
 Qumursqa der: — Qanday ko‘l,
 Bu yo‘llarda yo‘q tartib.
 Quritmoqqa kelsammi,
 Quyoshni yumalatib.

NON

Bug‘doy nonman,
 Oppoq ko‘pgan.
 Peshanamdan
 Dehqon o‘pgan.
 Terib yegin,
 Tushsa ushoq.
 Men GERBda,
 Oltin boshoq.

O'ZBEK ELIM

O'zbek elim,
Bek elim.
Senga nasib
Erk elim.
Peshanangga
Nur tegib,
Kamol topgin
Baxt emib.
O'zingning o'z
Tug'ing bor,
Mustaqillik
Cho'g'ing bor.
Bobom Temur
Suygan xalq,
Dunyo uzra
Yayrab balq.
O'zbek elim,
Bek elim,
Senga nasib
Erk elim.





Rauf TOLIB

(1946- yilda tug'ilgan)



Rauf Tolib 1946- yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning bolaligi urushdan keyingi og'ir yillarga to'g'ri keldi.

Shoirning „Gulxan“, „G'uncha“ jurnallarida ishlashi bolalar hayotiga chuqurroq kirishiga sababchi bo'ldi. Ijodiy safarlarda, respublikamizning chekka qishloqlarida bo'lib, bolalar hayotini o'rgandi. „Ona yurt“, „Eshitmadim demanglar“, „Yurt mehri“, „Osmon bog“, „Mirjalol nega lol“, „Sehrgar do'stim bor“, „Qiziq tomosha“, rus tilida „Сын беседует с отцом“, „Беседа“ kabi o'ndan ortiq kitoblari chop etildi.

Shuningdek, u nasrda ham qalamini sinab ko'rdi. „Hamma hayron“ nomli hikoyalar to'plami, kichkintoylar uchun „Jirafaning bo'yni nega uzun?“ ertaklar kitobi yuzaga keldi. Rauf Tolibning nasriy asarlari ham yosh kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

OROLIM

— Ey bolajon, bolajon,
Qanday o'ylar dilingda?
O'Itiribson parishon,
Bahor yashnar elingda.

— Mehmon g'ozlarim, ko'ring,
Tabiat topdi zavol.
Suvsiz qolib daryolar,
Qurib bormoqda Orol.

— Ey, bolajon, bolajon,
Qo'y, o'rtanma alamda.
Biz-la yurt kez,
Yo'llar osh,
Dengiz ko'p-ku olamda?

— Dengizlar ko'p,
Ko'llar ko'p,
Olam kengdir, kattadir,
Men-chun yurtim yagona,
Ona Orol bittadir.

TABIB KO'KLAM

— Ayting, ona daraxtga
Bolta urar kim?
Qandoq?

— Umi, bir nihol ekib
Ko'kartirmagan mutloq.

— Kimdir go'zal gulzorni
Qilibdi rosa payhon.

— Chunki u gul husniga
Boqmagan-da, lol, hayron.

- Sho'x, sayroqi qushlarga
Kim u ko'targan miltiq?
— U qush tilin anglamas,
Unga begona qo'shiq.
- Ona yer bag'ri kuygan,
Tabiatda qora dog'.
Aytin, yashil olamga
O't qo'yar qaysi ahmoq?
- Tabiatni, tog'larni,
Eh, vayron etar Odam...
Har yili yaralarin
Davolar tabib ko'klam.

G'ALATI OVCHI

- Ha, do'stim, dimog'ing chog'...
— Ovdan qaytdim, o'rtoq.
— Dadang bilan sen yana
Ovlabsan-da, bedana?
— Yo'q.
— To'qayga qo'yib qopqon
Ovladingmi yo quyon?
— Yo'q.
— Yo qushni olib mo'ljal
Qildingmi uni o'lja?
— Yo'q.
— Ha, topdim, soydan baliq
Tutib kelgansan, aniq.
— Yo'q.
— Nima ovlading, voy-vuy,
O'zing shartta ayt, qo'y.
— Men tog'larning chiroyin,
Qushlar kuyin ovladim...
Tushunolmay hech gapga
Do'stin boshi g'ovladi...

VARRAK

Mitti bolajon
Yasaydi varrak.
Varrak — orzudir,
Quvnar yosh yurak.

Varrak ham tayyor...
Hayron bolajon.
Qayda uchirar?
Bino to'rt tomon.

Tortilgan simlar,
Hammayoq o'rov.
Katta, keng ko'cha
Juda serqatnov.

Esar o'ynoqlab
Bahor shamoli.
Olib qochadi
Bola xayolin...





Anvar OBIDJON

(1947- yilda tug'ilgan)



O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon 1947- yilning 8-yanvarida Farg'on'a viloyatining Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida tug'ilgan. U she'r yozishni juda erta mashq qila boshladi, 6- sinfdaligidayoq „G'uncha“ jurnalida „Shkafcham“ degan she'ri chop etildi.

Munaqqidlarimiz ta'kidlaganidek, o'tgan asrning 70- yillarda ham o'zbek bolalar adabiyotida „umumxalq vazifalari“dan kelib chiqib yaratilgan asarlar salmoqli o'rIN tutar, Miraziz A'zam, Tursunboy Adashboyev kabi shoirlarning she'rlarida, nihoyat, yosh avlodning „men“ ligiga ko'proq urg'u berilib, jamoaviy burch-maqсадlardan tashqari, kichkintoylarning shaxsiy hayotlari, ichki sirlari, faqat o'zlariga taalluqli orzulari ham borligi tobora kengroq aks eta boshlagan edi. Keyinroq esa shu an'ana izdoshi sisatida Anvar Obidjon o'zgacha bir ovoz bilan davraga qo'shildi.

Anvar Obidjon ijodi munaqqidlar tomonidan atroficha tahlil etib kelinayotgan bo'lsa-da, ko'pqirrali adibning asarlari har bir yo'naliш bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlarni kutmoqda. Uning she'r va hikoyalari, qissa va pyesalarida o'ta jozibador humor ustun turgandek ko'rinsa ham, yurtning sha'nini, xalqning qadr-qimmatini toptovchi istibdodga nafrat, milliy ozodlikka tashnalik, o'zlikni tezroq tanishga da'vat dadil tarzda yangragani, o'z zamonasi dardlarini bolakaylarga sodda va ta'sirchan ifodalar orqali yetkazib bera olganligi bilan katta e'tiborga loyiqdir.

Anvar Obidjon sermahsul ijodkor. Uning „Ona Yer“ (1974, she'rlar), „Bahromning hikoyalari“ (1980, she'rlar), „Ey, yorug'dunyo“ (1983, qissa), „Olovjon va uning do'stlari“ (1983, qissa va hikoyalilar), „Alamazon i ego pekhota“ (1984, qissa va hikoyalilar), „Ketmagil“ (1985, she'rlar), „Bezgakshamol“ (1985, hajviy she'rlar), „Masxaraboz bola“ (1986, she'rlar), „Akang qarag'ay Gulmat“ (1987, qissa va hajviyalar), „Juda qiziq voqeа“ (1987, she'rlar), „Oltin yurakli Avtobola“ (1988, qissa va hikoyalilar), „Dahshatli Meshpolvon“ (1989, qissa va pyesalar), „Yerliklar“ (1990, hajviyalar), „Groznyi Mespalvan“ (1991, qissa va hikoyalilar), „Alamazon va Gulmat hangomasi“ (1992, qissa, pyesa, she'r), „Ajoyibxona“ (1993, she'riy taqvim), „Meshpolvonning janglari“ (1994, qissa va doston), „Alisher ila Husayn yoki uch dono va o'g'ri“ (1996, doston va she'rlar), „Alamazon va Gulmat“ (1998, qissa va she'rlar), „Oltiariq hangomalari“ (1999, hajviyalar), „Bulbulning cho'pchaklari“ (2001, she'r va hikoyalilar), „Odobli bo'lish osonmi?“ (2001, hikoya), „Meshpolvon“ (2003, qissa), „Bezgakshamol — 2“ (2003, hajviy she'rlar) kabi to'plamlari nashr etilgan.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg'ona, Qarshi, Qo'qon, Guliston teatrлarida Anvar Obidjonning „Qo'ng'iroqli yolg'onchi“, „Pahlavonning o'g'irlanishi“, „Topsang, hay-hay“, „To'tiqul“, „Qorinbotir“, „Navro'z va Boychechak“ pyesalari sahnalashtirilgan. Uning asarlari asosida „O'zbekfilm“ kinostudiysi tomonidan „Tilsimoy — g'aroyib qizaloq“, „Dahshatli Meshpolvon“ komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she'rlariga bastalangan qo'shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag'ishlangandir.

VATAN

— Senga bitta savol bor,
 Menga qulq sol, hoy, qush.
 Vayronada yashaysan,
 Noming esa naq Boyqush,
 Ayt-chi, nahot sen boysan?

— Asl boylik neligin
 Tushunmaysan, chamasi.
 Bu vayrona bo'lsa ham,
 O'zimniki hammasi,
 Shuning uchun men boyman!

FATHILLANING KURKASI

Kelib Norga arz qildi
 To'rt yasharlik ukasi:
 — Meni quvdi, atajon,
 Patpillaning kulkasi.

G'ijinib musht tugdi Nor:
 — Boplab qasos olamiz.
 Kurkani...
 Yo'q, yaxshisi,
 Fathillani solamiz!

OBBO, KALAMUSH-EY!

Kalamushvoy,
 Kalamush.
 Savoding sal
 Chalamish.

Yoz desalar
 „Temir“ deb,
 Sen yozibsan
 „Kemir!“ deb.

UCH YOSHLILAR

Olmaniym
G‘ajiyman,
Holvaniym
G‘ajiyman.

Dema: „Nechta
Tishing bor?“
Seni nima
Ishing bor?!

KARNAY QO'SHIG'I

Tomga chiqib baqiraman,
Vahah-ha.
Seni to'yga chaqiraman,
Vahah-ha.
Eshitgan payt tovushimni,
Vahah-ha,
Darrov kiygin kovushingni,
Vahah-ha.

CHIGIRTKA QO'SHIG'I

O'z qornimni o'ylayman.
Chirik-chirik.
Qornim to'ysa, kuylayman,
Chirik-chirik.
O'lja poylab turibman,
Chirik-chirik.
Shunday yashab yuribman,
Tirikchilik!

TUZDONGA YOZILGAN SHE'R

Peshanasi
Juda sho'r.
Ishonmasang
Yalab ko'r.

PARTAGA YOZILGAN SHE'R

O'tgan yili men bilan
 O'tirardi Mirto'lan.
 Baxil edi juda ham,
 Ko'chirtirar edi kam.
 Bu yil bizdan o'chdi u —
 Uchinchiga ko'chdi u.

BEZORI

Qarg'a kirdi
 Kinoga,
 O'xshab
 Buratinoga.
 Hamma joylar
 Edi band,
 Borib dedi
 Nopisand:
 — Menga qara,
 Vey, Laylak,
 Yeganmisan
 Hech kaltak?
 Qani, tur-chi
 O'rningdan.
 He, o'rgildim
 Burningdan!

HANDALAK

Handalakman polizda,
 Lekin qandman og'izda.
 Yayrab o'sdim dalada,
 Oftob chiqsa, yalla-da.
 Suv kelmasa tomirga,
 Yalinaman yomg'irga.
 Mening faxrim shiramdir,
 Qovun katta enamdir.

TURP

Menga tekkan choq og'zing,
 Tiniq bo'lar ovozing.
 So'ng ochilar ishtahang,
 Bo'p ketmasang bas nahang.
 Po'stim osmon rangida,
 Qishning sovuq tongidan —
 Simiraman yorug'lik...
 O'zim —
 Oltiariqlik.

YIRTQICH

Oyisiga ergashib
 O'ynab kelgan Tulkicha,
 Qo'shni qari Bo'rige
 Maqtanib qoldi picha:
 — Ayiq katta bo'larkan,
 Hech ko'rmagan ekanman.
 Bo'ri dedi gerdayib:
 — Men... Ayiqni yeganman!
 — Ko'rdim xunuk hayvonni,
 Qo'pol-u, chopar „g'iz-g'iz“.
 — Xix-xi, tishi uzunmi?
 Yeb ko'rganman, u — To'ng'iz.
 — Uchrab qoldi dalada
 Shoxi uzun bir Taka...
 — Be-e, u tayyor, o'lja-ku,
 Ta'min totganman, uka.
 — So'ng yo'liqdi shudgorda
 Traktor degan narsa.
 Shovqin solib, bo'kirib,
 Quvladi bizni rosa.
 Bo'ri dedi:
 — Traktor?
 Ko'rmaganman hech uni.
 Lekin, uka, sog' bo'lsak,
 Yeb ko'ramiz bir kuni.

KALISH AFSONASI

Seni kiyib olishib,
 Rosa kezib yurishdi.
 Yo'lakdagi xaslarni
 Dangal ezib yurishdi,
 Kalishvoy.


Pisand qilmay qararding
 Eh, o'zingdan pastlarga...
 Oxir seni yoqishdi
 Qo'shib o'sha xaslarga,
 Kalishvoy.

MASXARABOZ BOLA

Katta qizil burunli
 Qiziqchiman, bilasiz.
 Aybingizni gapirsam,
 Xafa bo'lmay kulasiz,
 Vah-hah-ha.

Gapirishdan qo'rqqanlar
 Olsin mening o'rnimni.
 Qarzga berib turaman
 Katta qizil burnimni,
 Vah-hah-ha.





Rustam NAZAR

(1949- yilda tug'ilgan)



„Bolalar shoiri bo'lish uchun ijodkorda alohida qobiliyat bo'lishi kerak deb hisoblayman... Mening ijodiy shiorim shunga asoslanadi: yozgan she'rларимни о'qиганда bolalar katta, kattalar esa bola bo'lib qolsin“.

Kichkintoylarning sevimli shoirlaridan biri Rustam Nazarning bolalar ijodkori va adabiyoti haqidagi muxtasar fikri mana shu! Shunisi hayratlanarlik, Rustam Nazar asarlarini o'qigan kattalar haqiqatan ham o'zlarini boladek, bolalar bo'lsa, katta bo'lib qolgandek his etadilar.

She'r yozishni bolaligidan boshlagan Rustam Nazar (Jumanazarov) 1949-yilning 8-sentabrida Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi Otaliq qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. Otasi Jumanazar Avaz o'g'li oddiy kasb egasi bo'lsa ham adabiyot va musiqaga ixlosi baland, shoortabiat odam edi. O'rta matabni tamomlagach, Rustam 1969—1974- yillarda Respublika rus tili va adabiyoti institutida tahsil oldi. Keyin bir yil o'rta matabda o'qituvchilik qildi. 1975- yildan to shu kungacha „Hazoraspnom“ tuman gazetasi tahririyatida ishlab kelmoqda.

Uning „Yashasin quyoshli kun“, „Rangli favvora“, „Mo'jiza“ nomli she'riy to'plamlari bosilib chiqqan. 1989- yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Rustam Nazar she'rларining tonggi shabnamdek tiniq, jilg'adek serohangligining sababi, ular bolalarni ona tabiat, xalq va hur Vatanimizni cheksiz mehr ila sevishga, ko'z qorachig'idek avaylab-asrashga chorlaydi. Bundan 15—20 yillar muqaddam yaratilgan shoир asarlarining aksariyati o'z qiymatini yo'qotmaganligining asl boisi ham mana shu.

O'RIMDAN SO'NG

Quyosh botdi, shom cho'kib
Bug'doyzorni yashirdi.

— Uyga qayting! — deb otam
Bizni qistab, shoshirdi.

Eshakda kim jo'naydi? —
Bo'lsa hamki u yuvvosh —
Nimagadir xo'mrayib,
Akam keskin tortdi bosh.

Darrov mindim eshakka,
Yo'q uyatli bir joyi.
Ovul tomon yo'rttirdim
Qilganimcha xirgoyi.

Akam qoldi orqada,
Qadamlari edi sust.
Yayov yurgandan ko'ra,
Eshak mingan ham durust!

VATAN TUYG'USI

Nedir Vatan tuyg'usi? —
Emas mavhum tushuncha.
Ma'nosini anglaymiz,
No'noqmasmiz biz uncha!

Muallimning qo'lida
Gazeta-yu kitoblar.
— Yurtni sevmoq iymondan! —
Deb qiladi xitoblar.

Misollarni keltirgay
Goh hadis, goh Qur'onidan.
So'zlar buyuk zotlarning
Dilidagi surondan!

Har ibora — hikmatli,
 Har ibora — murakkab.
 Ba'zan mag'zin chaqolmay
 G'ulu tushar yurakka.

Kimdir aytgan mashhur gap
 Darsda kelmas xotirga —
 O'xshamaymiz yurtparvar
 Va fidoyi botirga!

Muallimga qaraymiz
 Javdiragan ko'z bilan.
 Qoniqmaydi gapirsak
 O'zimizning so'z bilan!

Nedir Vatan tuyg'usi? —
 Xayollarga tolarmiz.
 O'zgalarning fikrini
 Aytib maqtov olarmiz!...

YERDAGI QUYOSH

Jingalak soch qizaloq,
 Dilda ortib jur'ati —
 Asfalt yo'lka yuziga
 Chizdi quyosh suratin!

Mamnun edi ishidan,
 Ko'zlarida zavq, surur,
 Qanday yaxshi, yerda ham
 Tursa quyosh sochib nur!

Shoshiladi qaygadir
 Ola-bula xaloyiq.
 Boqmas oyoq ostiga:
 Yuki og'ir, vaqtি ziq!

Yomon ekan loqaydlik,
 Sodir bo'ldi ayanch hol —
 Uning jajji quyoshin
 Toptashmoqda bemalol!

Xafa edi qizaloq,
 Jim turardi bir yonda.
 Yaxshi hamki odamlar
 Yurishmaydi osmonda!

Yo'qsa, shoshib beparvo,
 To'rxalta-yu qop tashib —
 O'tishardi haqiqiy
 Quyoshni ham toptashib!...

GULLAGAN OLCHA

Olcha sevar gullahni,
 Yashnab erta bahorda —
 Ziynatini olamga
 Ko'z-ko'zladи nahorda!

Shamol esa qasdashib,
 Bilgani yo'q haddini —
 To'kdi uning gullarin,
 Egib zaif qaddini!

Zabun edi ahvoli,
 Ko'rgan afsus etardi.
 Axir, asray olmasa,
 Olcha gullab netardi?!

QALTIS O'YIN

Bu dunyoda eng ashaddiy
Ikki rang bor — qora va oq.
Ular raqib azaldan ham,
Orasida yo'q ittifoq.

Jang qilishar bemurosa
Ta'qib aylab, rahna solib —
Bir-birini ayashmaydi
Chiqish uchun mutlaq g'olib.

Boshqa ranglar — tomoshabin,
Qaltis o'yin ishqiboz.
Gij-gijlashar ikkovini
Duringga hech bo'lmay rozi!





Mahkamboy UMAROV

(1949- yilda tug'ilgan)



Mahkamboy Umarov 1949- yilning 9- fevralida Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi Tuzel qishlog‘ida tavallud topgan. O‘rta mактабни tamomlab, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining qozoq tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan.

Mahkamboyning otasi — Umar Shodi o‘g‘li Toshkent viloyatidagi mashhur xalq baxshilaridan biri edi.

M. Umarovning „Yettisoy ohanglari“, „Dunyo“, „Muhabbat“ nomli she’riy kitoblari chop etilgan.

U Respublika Ta’lim markazining qozoq tili va adabiyoti kengashi a’zosi, O‘zbekistondagi qozoq maktablarining 1, 2, 3, 4- sinflari uchun „Alifbo“, „O‘qish“, „Ona tili“, „Qozoq tili“, „O‘qish kitobi“ kabi qator darsliklarning muallifi hamdir. Shoir Tursunboy Adashboyev bilan hammualliflikda 1-sinf uchun „Kitobim — ostobim“ nomli sinfdan tashqari o‘qish darsligini ham yaratgan.

TURNALAR

Quvnatar turnalar parvozi,
 Bir xilda saflarin uzmasdan.
 Janubga yo'l olar shu zayl,
 Sira ham qatorni buzmasdan.

Nazdimda turnalar ko'k toqin,
 G'ubordan tozalab, artibdi.
 Bu qushga yarashgan fazilat,
 Juda ham odobli, tartibli.

Jahonda qush zotin turi ko'p,
 Barchasi qatorin to'ldirmas.
 Turna-chi, hamjihat, shu bois,
 Qatordan hech birin qoldirmas...

KAPALAKLAR

Oq kapalak, sap-sariq, ko'k kapalak,
 Ranglari turli-tuman, ko'p kapalak.
 Atirgulning hididan rohatlanib,
 Uchib, qo'nib o'ynaydi to'p kapalak.

Chechaklarga bag'ishlar hayotini,
 Gulga aytar qo'shig'i, bayotini.
 Aytganday, qaysi rassom bo'yar ekan,
 Turfa xil kapalaklar qanotini?...

BIZNING ELDA

Aytayin bir shukurchilik,
 Kun ham bugun rosa qiziq.
 Ko'zlarimdan yosh oqizdi,
 Piyoz kessam suti chiqib.

So'zimni kim tinglar ekan:
 Toshkent degan — qut-barakam,
 Bizning elda sigir tugul
 Piyozda ham sut bor ekan.

KIM BO'LASAN?

- Kuchuk, sen kim bo'lasan
o'sib-unsang?
- It bo'laman haddidan
oshmaydigan.
- Qulluq, sen-chi?
- Ot bo'laman qing'ir yo'lni
bosmaydigan.
- Jo'ja, sen-chi?
- Xo'roz bo/lgum bemahal
qichqirmaydigan,
- Xo'tik, sen-chi?
- Eshak bo/lgum o'rinsiz
hayqirmaydigan.
- Uloq, sen-chi?
- Serka bo/lgum hech kimni
suzmaydigan.
- Qo'zi, sen-chi?
- Menmi, axir qo'y bo'laman
O'zidan ulug'larni sizlaydigan...





Abusaid **KO‘CHIMOV**

(1951- yilda tug‘ilgan)



O‘zbek bolalar adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Abusaid Ko‘chimov 1951- yilda Samarqand viloyati Urgut tumanida tug‘ilgan. O‘rta maktabni bitirgandan so‘ng, Toshkent davlat pedagogika institutiga kirib, uni 1972- yilda tamomlagan.

Shoirning birinchi she’r va maqolalari matbuotda e‘lon qilinganida u hali o‘rta maktab o‘quvchisi edi. Shundan buyon uning „Kashfiyotchi bolalar“ (1978), „Mening O‘zbekistonim“ (1979), „Toshburgut“ (1981), „Mening yulduzim“ (1984), „Chanoq“ (1985), „Halqa“ (1987), „Ikki bahor“ (1990), „Umid daraxtlari“ (1992) va „Baland tog‘lar“, „Qiyosa“ kabi bir qator kitoblari chop etilgan. U tabiatni e‘zozlash mavzusidagi turkum publisistik maqolalari uchun YUNESKO mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Abusaid Ko‘chimov ham shoir, ham nosir sifatida qalam tebratib, adabiyotimiz rivojiga imkon qadar o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. U „Chanoq“ va „Ikki bahor“ kabi she’riy kitobida bolalar va o‘smirlar hayotidan poetik lavhalar chizsa, „Mening yulduzim“, „Halqa“ kabi hikoya va qissalardan iborat kitoblarida qishloq hayoti, qishloq bolalari xarakteriga xos voqealarni qiziqarli holatlarda aks ettiradi.

Adibning mehnatlari munosib ravishda taqdirlangan. Unga „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist“ faxriy unvoni, „Mehnat shuhrati“ ordeni berilgan.

MISH-MISHVOY

Birdan ranjidi
 Do'stidan Halim:
 — Eh, buni sendan
 Kutmovdim, Salim.
 O'rtoq deb yursam...
 — Ha, nima bo'ldi?
 — Yana „Ha“ emish... —
 Halim xo'mraydi:
 — Orqadan gap-so'z
 Qilmas mard kishi.
 Bilasanmi, bu...
 Nomardning ishi!
 Begunoh Salim
 Serrayib qoldi.
 Miyasi g'ovlab
 Xayolga toldi.
 Bir necha yillik
 Ikki qadrdon
 Gaplashmay qo'ydi
 O'shandan buyon.
 Do'stlarning bari
 Bu holdan hayron.
 Faqat bir soya
 Piqirlar shodon.
 Mish-mishvoy edi
 Soyaning ismi.
 Shov-shuvi bor-u
 Yo'q edi jismi.

* * *

Sinfga kirib
 Mirahmad mitti,
 Norqul davangga
 Do'q ura ketdi:

— Bo'ying terag-u
 Qovoq kallasan,
 Kartoshka burun,
 Sariq, mallasan!
 Norqulning rangi
 Bo'zarib ketdi.

— Tentak-pentak bo'p
 Qoldingmi, Mitti?!

Men nima qipman,
 Ayt-da, kaltacha?!

— Sening qovog'ing
 Ayron xaltacha!

Bilib qo'y, sendan
 Qo'rqlayman aslo.
 Endi yordam ham
 Bermayman ammo.

— Yordamingni-chi,
 Pishirib yegin!
 Men nima qipman,
 Rostini degin?

— Yordam beradi
 Qo'rqqandan depsan.

— Uchib ketasan
 Boplab bir teksam!
 Yaxshiki, Norni
 Ushlashdi arang,
 Yo'qsa bo'lardi
 Juda xunuk jang.

Do'stlarning bari
 Bu holdan hayron,
 Faqat bir soya
 Piqirlar shodon.

Mish-mishvoy edi
 Soyanning ismi.
 Shov-shuvi bor-u
 Yo'q edi jismi.

* * *

Boshqa sinfda
 Xuddi shu mahal
 Qizib ketgandi
 Mushtlashuv, janjal,
 „Jang“ga kirgandi
 Barcha o‘g‘il-qiz,
 Kitob-daftarlar
 Uchardi g‘iz-g‘iz.
 Parta, devor, pol
 Bu holdan hayron.
 Faqat bir soya
 Piqirlar shodon.
 Mish-mishvoy edi
 Soyanning ismi.
 Shov-shuvi bor-u
 Yo‘q edi jismi.

* * *

Endi kelamiz
 Shu savolga duch:
 — Kimdir bu soya,
 Bu dahshatli kuch?
 Nega u do‘stni
 Do‘stiga qayrar?
 Yaramas ishdan
 Piqirlar, yayrar?
 Xo‘s, kimdir o‘sha —
 Har ishga qodir?
 Rostin aytsam u
 Sen,
 Men,
 Hammadir!

Chunki goh bilib,
 Bilmayin goho
 Kimni kimgadir
 Tezlaymiz rosa.
 Bo'lgani kabi
 Toma-toma ko'l,
 Mish-mish tug'ilar
 Shu tarzda mo'l-mo'l.
 Mish-mishvoy bo'lgach,
 Aytgan so'zimiz.
 Yoqa ushlaymiz
 Ba'zan o'zimiz.

* * *

Mish-mishvoy yana
 Tug'ilar qayda?
 — Hurmat va ishonch
 Yo'qolgan joyda.
 Kimki shubhaga
 Berilar ekan,
 Mish-mishvoy unga
 Sanchadi tikan.
 Do'stlar!
 Shu sabab
 Yurak sof bo'lsin!
 Ishonch va do'stlik
 Bilan dil to'lsin.





Umida ABDUAZIMOVA

(1953- yilda tug'ilgan)



Umida Abduazimova 1953- yilda Toshkent shahar Yunusobod tumani „Bobodehqon“ mahallasida tug'ilgan. O'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan. O'qishni bitirgach, O'zbekiston televideniyesi adabiy ko'rsatuvlar muharririyatida ishlagan. 1990 — 1995- yillarda „Ma'rifat“ gazetasida bo'lim muharriri va Bosh muharrir o'rinosari vazifasida xizmat qildi. 1995- yildan buyon „Tong yulduzi“ gazetasida Bosh muharrir lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Umida Abduazimovaning „Sevinchim“, „Seni ko'rgim kelaveradi“, „Arazlamang“, „Salom, hayot“, „Qadimiy qo'shiq“, „Oydin orzular“, „Umrim ziynati“, „Oymoma bog“ nomli o'ndan ortiq she'riy va publitsistik to'plamlari o'z kitobxonlarini topgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Umida Abduazimova 1997- yil „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan.

KENGURU

Hayvonot bog'ida bir
 G'alati do'stimiz bor.
 Egnida qora, qo'ng'ir,
 Savlatli po'stini bor.
 Uning qo'llari kalta.
 Oyoqlari uzundir.
 Qornida esa xalta,
 Dumi tizim-tizimdir.
 Xaltaga bolasini
 Solib yurar Kenguru.
 Bolangizni seving, deb
 O'rnak bo'lib turar u!

O'RGATARLAR

Qushlarga eng birinchi
 Uchishni o'rgatarlar.
 Sichqonlarga mushukdan
 Qochishni o'rgatarlar.

Xo'rozlarga qichqirish,
 Cho'qishni o'rgatarlar.
 Bolalarga birinchi —
 O'qishni o'rgatarlar.

Katta bo'lgach, albatta,
 Qushlar uchishi kerak.
 Mushuk yeb qo'ymasin, deb
 Sichqon qochishi kerak.

Hamla qilgan dushmanni
 Xo'roz cho'qishi kerak.
 Bolalar-chi, albatta
 A'llo o'qishi kerak.

A'lochi o'quvchilar
 Bilimdondir, bilimdon!
 A'lochi o'quvchidan
 Talabimizni bilib ol!

Hamma fandan „besh“ olib,
 Xulqini „besh“ qilmasa,
 G'ayratni ishga solib,
 Yurakdan ish qilmasa.

Mensimasa do'stlarin,
 „A'lochiman“, deb agar,
 Bunday „a'lochi“lardan
 Kechmoqlik shart muqarrar!

Yolg'izlangan „a'lochi“,
 Ayting, kimga qo'shilar?
 Garchand kundaligiga
 Har kuni „besh“ qo'shilar.

Qo'shilmaydi bolalar
 Unday a'lochilarga.
 Faqat o'zini o'ylab,
 O'ziga „besh“ tilarga!

BIR BOLA BOR...

Bir bola bor,
 Bir so'zli.
 Oyoq-qo'lli,
 Qosh-ko'zli.
 Bir ish qilsa,
 Tolarmish,
 Chunki u „yosh
 Bolamish...“
 Ish buyursang,
 Chap berar.

Ammo o'zi
 Gap bilar:
 Olib qo'ying,
 Tirnog'imni.
 Yuvib qo'ying,
 Oyog'imni.
 Kiygizing,
 Paypog'imni.
 Kiygizing,
 Qalpog'imni...
 Tugmachamni
 Taqib bering...
 Yong'og'imni
 Chaqib bering.
 Tufligimni
 Artib bering...
 Bu bola kim?
 Aytib bering...

QULOQ

Hojiakbar cho'zilib,
 Qizargan qulog'ini.
 Ushlagancha o'y surib,
 Takrorlar so'rog'ini:

Nega odam qulog'i
 Tekis emas, burishqoq?
 Dazmollasam, dars chog'i
 Eshitarmi yaxshiroq?..

BARNONING QO‘G‘IRCHOG‘I

Barnoning qo‘g‘irchog‘i
 Doim kulib turadi.
 Barno bo‘lsa arazchi,
 Qovoq solib turadi.

Barnoning qo‘g‘irchog‘i
 Yig‘lash nima, bilmaydi.
 Barno qiz bir yig‘lasa
 Hech ovutib bo‘lmaydi.

Barnoning qo‘g‘irchog‘i
 Kiyim talash qilmaydi.
 O‘yinchog‘-u arg‘imchoq —
 O‘yin talash qilmaydi.

Barno bo‘lsa qizg‘anchiq,
 Hech narsasin bermaydi.
 Yoki o‘zi ham o‘ynab
 Bunday kulib yurmaydi.

Barnoning qo‘g‘irchog‘i
 Baribir kulaverar.
 Arazchi va qizg‘anchiq
 Qizning adabin berar.

MUHABBAT

Muhabbat oilaning
 Kenja qizi — shirini.
 Nega bunday ekanin
 Aytib beray sirini.

Akasi-yu opasi
 Ketishgach o‘qishiga,
 Yordamlashar yo‘q demay
 Buvijonin ishiga.

Chelakchada suv sepib,
Hovlini supuradi.
Tuproqning nondek isi
Dimoqqa ufuradi...

Dastro'molini yuvib
Quritadi so'rida.
Buvisi esa maqtar
O'tirib uy to'rida.

Zeriktirmasdan hatto
Qo'shiq aytib beradi.
Buvijoniga yoshlik
Paytin qaytib beradi.

Ulgurar qo'g'irchog'in
Allalab uxlatishga.
Hatto gazga choy qo'yar
Oyijoni qaytishga!

Hammani qarshi olar
Bir-bir „salom“, „salom“lab.
Erka qiz bo'lib qolar
Dadasini achenlab...





Hamza IMONBERDIYEV

(1954—1997)



Hamza Imonberdiyev umrining chorak asrdan ziyodrog'ini o'zbek bolalar adabiyotini, xususan, she'riyatini rivojlantirishga, uni yangi pog'onalarga olib chiqishga baxshida etgan sertuyg'u shoirlarimizdan biri edi.

Hamza Imonberdiyev nafaqat yaxshi shoir, shu bilan birga, o'z ishining, o'z kasbining ustasi bo'lgan mohir noshir, zukko, bilimdon muharrir ham edi.

U 1954- yil 21- dekabrda qo'shni Qozog'iston Respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli Suzoq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. O'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagach, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kirib, uni imtiyozli diplom bilan bitirdi.

Shoir uzoq yillar „Tong yulduzi“ gazetasining adabiyot bo'limini boshqardi, 1986- yilda „Cho'lpon“ bolalar nashriyoti tashkil topgach, H. Imonberdiyev shu nashriyotda umrining so'nggi damlarigacha muharrir vazifasida xizmat qildi.

H. Imonberdiyev har bir she'rida o'quvchilarni to'g'riso'zlik va to'g'rilikka, tabiatni, daraxtlar-u jonivorlarni asrab-avaylashga, sevishga undadi. Uning „Quvnoqlar quvonchi“, „Shokoladxo'rlar“, „G'aroyib pufak“, „Kulgi shaharchasi“ singari o'ndan ortiq kitoblari nashr etildi.

H. Imonberdiyev she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning g'oyatda samimiyligi, badiiy pishiq-puxta yozilganligidir. Shoirning 1998- yili (vafotidan bir yil o'tgandan so'ng) nashr etilgan „Bir kunlik mo'jiza“ nomli saylanma kitobiga kirgan asarlari bu fikrimizga yorqin misol bo'la oladi.

„Osonmas kurashmoq haqiqat uchun!“ deydi uning qahramonlaridan biri. Darhaqiqat, nafaqat haqiqat uchun kurashmoq, avvalo, qutlug', rost so'zni aytmoq, unga yetmoq ham nihoyatda mashaqqatli, mushkul mehnatdir.

Hamza Imonberdiyev ana shunday og'ir va zahmatli vazifani uddalay olgan, o'zining mo'jizalarga boy she'rlari bilan XX asr o'zbek bolalar adabiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan ijodkor edi.

KIRPITIKAN

Barglar chirt-chirt uzilib,
 Sho'ng'ib ketar har yonga.
 O'xshar go'yo mushukdan
 Qochgan sariq sichqonga.
 Barcha qush va jonzotlar
 Qish g'amida ushbu choq.
 Olmaxon yong'oq g'amilar,
 Pana joy izlar Maymoq.
 Yashar faqat bir kirpi
 Boshqa bir tashvish bilan.
 Tinmay izg'ir qaygadir,
 Band qandaydir ish bilan.
 Qiziqsinib bir kuni
 Baqa to'xtatdi uni.
 Dedi: —Hoy, kirpitikan,
 Javob bergil so'roqqa,
 Har kuni leykang bilan
 Shoshilasan qayoqqa?
 —E, qo'shni, bu sayyohlar
 Rosayam tegdi jonga.
 Ermakka gulxan yoqib,
 Xavf solishar o'rmonga.
 Shunga bo'lib ko'z-qulqoq,
 Yuribman kun kechirib —
 Ular yoqib ketishgan
 Gulxanlarni o'chirib...

CHANOQVOY

Chanoq besh barmog'ida
 Paxtani ushlab turar.
 Teruvchini baholab,
 Ko'nglini hushlab turar.
 Bir tola ham qoldirmay
 Toza tersang qancha sen,
 A'lo qo'ydim deganday
 Ko'rsatar besh panjasin.

BIR SO'Z

Men Loladan xafaman,
 Boshqa o'rtoq topaman.
 — Shaddod, — degan so'zimga,
 Qarab turib ko'zimga,
 Dedi qasddan:
 — Bilvol, san
 Badbashara,
 Xumboshsan!
 Shunchalik aybim ko'pmi?
 O'zida-chi, ayb yo'qmi?
 Bo'ldi, undan xafaman,
 Boshqa o'rtoq topaman.
 Neki bersa oyimiz
 Bo'lib yerdik doim biz.
 Ranjitsa uni birov,
 O'ch olar edim darrov.
 Uni do'stim degandim,
 U deb kaltak yegandim.
 U bo'lsa bitta so'zga,
 Qaramay yuz-u ko'zga
 Shuncha gapni to'qidi,
 Bitta do'stim yo'q endi...
 Men Loladan xafaman,
 Boshqa o'rtoq topaman.

URUSHQOQLAR

Qo'lda yog'och-avtomat,
 „Urush-urush“ o'ynaymiz.
 Kalishlar — granata.
 Bir-birimiz poylaymiz.
 Goh ko'krakka uramiz:
 — Dushmanga yer yo'q, — deb.
 Goh yuztuban qulaymiz,
 Naq yurakdan „o'q“ yeb.

Ba'zida chinqiramiz:
 — Paq-puq, otdim, yiqil, — deb.
 Dushman tan olmas: — O'qing
 Qiyshiq ketdi, — nuqul deb.
 Hamma bola o'yinda
 „Jang“ qiziydi tobora,
 Faqat Nodir raketa
 Yasash bilan ovora.
 — Urushqoqlar ichida
 Yashab netaman,— der u.
 — Olis sayyoralarga
 Uchib ketaman,— der u.
 Buni eshitib bizlar
 Darrov uni o'raymiz.
 — O'zing bilan bizni ham
 Ola ket, — deb so'raymiz.
 Rozi bo'lar do'stimiz:
 — Chiqinglar, — deb imlaydi.
 — Biz kashf etgan sayyora
 Urush nima bilmaydi!

VAQTNING HAJMI QANCHА?

O'ylab ko'rsam, vaqt degan
 Rezinali to'rxalta,
 Neki tiqsang ichiga
 Sig'averar, zo'r xalta.
 Masalan, bir soatda
 Nimalar qilish mumkin?
 Kitob, gazeta o'qish,
 Samokat minish mumkin.
 Do'sting bilan urishib,
 Mumkin hatto yarashish.
 Tort yeyayotgan ukangga
 „Yordamlashish“, „qarashish“,
 Alg'ov-dalg'ov qilib so'ng
 Mumkin yig'ish uy ichin.

Ko'chirish mumkin hatto
 Telefonda uy ishin.
 Ha, shularning bariga
 Bir soatgina darkor.
 Bir kunda bir soatdan
 Yana, eh, qanchasi bor.
 Harakat zo'r bo'lsa, vaqt
 Rezinali to'rxalta.
 Neki tiqsang ichiga
 Sig'averar, zo'r xalta!

OLAMOSHIM

Tokchadagi qaymoqdan
 Ko'tarmay sira boshin,
 Ichayapti qarasam,
 Uyalmay Olamoshim.
 Avvaliga „pisht“ deb bir
 Quvmoq bo'ldim-u, biroq
 Rahmim kelib negadir
 Tikilib qoldim uzoq.
 Quloqlarin chimirib
 Ichar edi bir mayin.
 Beparvoligim sabab
 Qorni ochgani tayin.
 Oyoq uchida asta
 Chiqib ketdim hovliga—
 Bir gal qaymoq yemasam
 Yemabman-da, mayliga.

QO'POLLIK

Afsus, qo'pollik qildim,
 Akam urdi do'q,
 — Bor, ko'zimga ko'rinxma,
 Hech keraging yo'q!

— Bilmay qoldim, ishoning,
 Aka, so'zimga.
 — Bas, dedim, bas, ko'rinma
 Endi ko'zimga.
 O'tib ketdi bunday so'z
 Jon-u tanimdan.
 Ko'zlarimga to'lib yosh
 Ketdim yonidan.
 Ko'rincayman ko'ziga,
 Bo'pti, ketaman.
 Yolg'iz akam toshmehr,
 Bunda netaman?!
 Ha, ketaman bir o'zim,
 Bosh oqsa qayga.
 Balki sharga osilib
 Uchaman oyga.
 Balki minib G'irko'kni
 Jangga kiraman.
 Yog'och qilichim sermab,
 Yovni qiraman.
 Dushman bilan solishib,
 O'larman oxir.
 Nima qila olardim
 Akamsiz axir.
 Kelib qabrim boshiga
 Akam bosh egar.
 Kechir meni, uka, deb
 Balki yosh to'kar.
 Hech kim nobud bo'limgan
 Mening yoshimda...
 — Uka!
 Boqsam turardi
 Akam boshimda.
 Xayollarim har yoqqa
 Sochilib ketdi.

Xufton dilim charaqlab
 Ochilib ketdi.
 Akam bo'lsa yonimda
 Quvnab ketaman.
 Shunday akam turganda
 O'lib netaman?!

TURNALAR

Dovul turib dengizda
 Havo tamom buzildi,
 Kechga borib turnalar
 Safi bexos uzildi.
 Qolib ketdi bir turna
 Dosh berolmay jalaga.
 Qirrovlari yetmadi
 Bee'tibor galaga.
 Xavotirda onasi
 Safdan chiqar qayrilib.
 Qayoqqa ham borardi
 Dilbandidan ayrilib.
 Qushlar charchab-horigan,
 Tugab borar kuch-sabot.
 Tortmoqchiday domiga
 To'lqinlar sapchir bot-bot.
 Azoblardan qushchaning
 Ko'zlarida yosh qotdi.
 —Chidolmayman, onajon,
 Qanotlarim tosh qotdi.
 Netardi onayizor
 Yuragin o'rtar bu sas:
 —Yana biroz sabr qil,
 Sabr qil, bolam, birpas.
 Ko'p o'tmay ufq bo'zarib
 Jala ham tindi asta,
 Alg'ov-dalg'ovli borliq
 Tinchib qoldi birpasda.

Yotar dengiz yastanib,
 Na boshi, na cheki bor.
 Dengiz uzra turnalar
 Uchib borar bemador.
 Shu choq olisda yolg'iz
 Kema ko'zga chalindi.
 Shod qirrovlab turnacha
 Onasiga yalindi:
 — Uchaylik o'sha yoqqa,
 Tog'-qoyaga o'xshaydi.
 — Yo'q! yo'q! Bu — suzar orol,
 Qanotsizlar yashaydi.
 Ular haqda avlodlar
 Biror xush so'z aytmagan.
 Ularga yaqinlashgan
 Hech vaqt omon qaytmagan.
 Yo'q, qulqosiz turnacha
 Ilmayin ona so'zin,
 Uchib ketdi suzuvchi —
 Oroldan uzmay ko'zin.
 Ona turma qirrovi
 Ko'kni tutar bu damlar:
 — Ojizlarmiz,
 sizlarga
 Ins of bersin,
 odamlar!





Nurilla OSTONOV

(1955- yilda tug'ilgan)



Nurilla Ostonov 1955- yil 10- sentabrda Samarqand viloyati Samarqand tumanining Turkman qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, 1973- yilda ToshDU jurnalistika (kechki) fakultetiga o'qishga kirgan. 1981- yil universitetni bitirib, O'zteleradiokompaniyasining O'zbekiston radiosida ishlagan. 1987—1989- yillarda Sankt-Peterburg oliy siyosatshunoslik maktabining jurnalistika bo'limida o'qigan. 1991- yil O'zTAGning, keyinchalik O'zbekiston televideniyasining Samarqand viloyati bo'yicha muxbiri bo'lib ishlagan. 2003- yildan buyon Samarqand shahar hokimligi muassisligida „Samarqand“ gazetasining bosh muharriri vazifasida ishlab kelmoqda.

Nurilla Ostonovning „Yo'ldagi buloq“, „Yuragimning bezovta guli“, „Bahor raqsi“, „Qadim yo'llarda“, „Osmon to'la farishta“ kabi bir necha kitoblari bosilib chiqqan.

1991- yildan buyon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

BAHOR

Kuchli janub quyoshi
 Jilg'a qildi kir qorni.
 Daraxtlarda kurtaklar
 Kutib yotar bahorni.

Majnuntolning sochlari
 Suvga qarab sollandi.
 Jo'shqin soyning mavjlari
 Kun nurida tovlandi.

Har bir giyoh talpinar,
 Qo'shiq aytar har irmoq.
 Jajji izlarni olib,
 Chopqillaydi yo'l, so'qmoq.

HAMAL

Yondi ko'kning nayzasi,
 Undi yerning maysasi.
 Shamol keldi, yel keldi,
 Shovqin bilan sel keldi.

Cho'mildi dala-qirlar,
 Chuchmomalar qiqirlar.
 Qish qasriga qamal bu,
 Sog'intirgan hamal bu!

SOVG'A

Bir, ikki, uch moma,
 Bizga topil, chuchmoma!
 Chaqmoqning nayzasini,
 Adirning maysasini,
 Ismaloqning isini,
 Qizg'aldoqning qizini
 Bizga sovg'a qil, bahor,
 Bag'ri to'la gul, bahor!

QUYOSH KULGISI

So'lim bog'larga
 Zavqli yoz keldi,
 Bizni chorlagan
 Sho'x ovoz keldi.
 Tonglar g'uborin
 Shudringlar yuvdi,
 Ko'zlarim bog'da
 Kamalak quvdi.
 Tilimda qoldi
 Qovunlar toti,
 Erkalab o'tdi
 Shamol qanoti.
 Tutdim quyoshning
 Bog'ichlarini,
 Tuydim bolalik
 Sog'inchlarini.

BOLALIK

Eh, bolalik yillari
 Qoldi uzoqda.
 Qirg'oqqa sapchib oqqan
 Ul oqizoqda.
 Bolalik — bu eng ma'sum
 Navoli sozdir,
 Bolalik — bu g'oyibdan
 Kelgan ovozdir.
 Yo'llarida poyandoz
 Yashil maysalar
 Eh, bolalik olisda
 Mayin nay chalar.
 Chorlaydi qizg'aldoqqa
 To'lgan dalalar,
 Qulog'imga bolalik
 Aytar allalar!

BEGEMOTNING BOLASI

Yurgan edi pishqirib,
 Suv muzladi qish kirib,
 O'yib hovuz muzini,
 Suvga otdi o'zini.
 Dedim, qandoq bolasan,
 Chiq, shamollab qolasan!
 Meni ko'rib po'stinda
 Rosa kuldil ustimdan.
 Suvga boq, tiniq, dedi,
 Hozirdan chiniq, dedi.

BOLG'AVOY

Qarang, katta ko'chadan,
 Bolg'a o'tar yo'talib.
 Mixlar turar ta'zimda,
 Qalpog'ini ko'tarib.
 Bular buncha qo'rqlishar,
 Jigar-bag'ri sixlanib.
 Ko'rsam, turar to'rttasi,
 Zarang uzra mixlanib!





Kavsar TURDIYEVA

(1958- yilda tug'ilgan)



Kavsar Turdiyeva 1958- yil 6- avgustda Toshkent shahrida ziyyoli oilada tug'ilgan. 1975- yili Chilonzor tumanidagi 201- o'rtalik muktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirgan, so'ng Sankt-Peterburg davlat universitetini o'qib tugatgan. Hozir Toshkent pediatriya tibbiyot institutida kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Shoiraning „Varrak“, „O'ynayapman, o'ylayapman“, „Qush bo'lib uchgan ona“, „Raqamlar bo'ylab sayohat“ kabi to'plamlari bolalar qalbining beg'ubor kengliklarini ochib berishga, ularning nozik ruhiy qalb jarayonlarini ko'rsatishga qaratilgandir. Ammo ana shu jarayonda ma'naviy va axloqiy tarbiya bolalar shoirasining diqqat markazidan bir soniya ham nari ketmaydi. Filologiya fanlari nomzodi Kavsar Turdiyeva kino san'ati sohasida ham samarali ijod qilmoqda. Uning „Zumrasha“ hajviy kinojurnali uchun tayyorlagan „Ma'naviyatli bo'laylik“, „Sumalak va tilak“, „Yodlasam bo'lmasmidi?“ kabi asarlari yuqori baholangan. Kavsar Turdiyevaning multfilmlar, telefilmlar uchun yozgan qo'shiqlari ham ommalashib ketgan.

Uning „Raqamlar bo'ylab sayohat“ (2001), „Ona isi“, „Obod mahallam ko'chalari“, „Hayvonot bog'i“, „Salomat bo'ling“ (2003), „Botu nidosi“, „Obod mahallam bo'ylab“, „Toshkesarlar mamlakati“ (2004), R. Farhodiy to'plami tarjimalari (2005), „O'n yumush“, „Tozalik — go'zallik“ kabi kitoblari chop etilgan.

VATAN IQBOL KUTAR

I

G‘ayrat bo‘lib, shiddat bo‘lib,
 Asov hayot toshar.
 Daryo bo‘lib, ziyo bo‘lib,
 Shoshil tog‘lar osha.
 Jumboqlarga javob bo‘lib,
 Moziy hikmat aytar.
 Hikmat bo‘lib, qudrat bo‘lib,
 Uni sen ham qaytar.

N a q a r o t :

Menda, senda, bizda,
 Har bir o‘g‘il-qizda.
 Yagonadir Vatan,
 Asra uni har dam.
 Mendan, sizdan, bizdan,
 Barcha o‘g‘il-qizdan
 Vatan iqbol kutar,
 Bizga imkon tutar.

II

G‘uncha bo‘lib, kuchga to‘lib,
 O‘ynab, kulib yashna.
 Bilim sari, ilm sari,
 Intil bo‘lib tashna.
 Yurtning shonin, porloq nomin,
 Tug‘dek baland ilgin.
 Jahon bilsin, havas qilsin,
 Sen ham shuni bilgin.

(N a q a r o t)

III

Yillar ichra, yo‘llar ichra,
 G‘animatdir hayot.
 Ozod yurtni, obod yurtni,
 Bizdan olsin avlod.

Ajdodlarning porloq ruhi
 Najot so'zin aytar,
 Nidolarin, sadolarin
 Yo'riq qilib aytar.

(Naqarot)

USTOZLAR

Sizgadir yo'ldoshlar,
 Ezgulik, bardoshlar.
 Izingiz olqishlar e'zozlar,
 Daftarlar qatida,
 Mehrlar yodida,
 Nur bo'lib yashaysiz, ustozlar.
 Siz bergen odobdan,
 Go'yoki oftobdan,
 Bahorga aylanar ayozlar.
 Har sinf xonada,
 Mehribon onaday,
 Bizlarni qarshilar ustozlar.
 Ko'tarib qaddimiz,
 Yozdirib xatimiz,
 Qoralab ko'p daftar, qog'ozlar,
 Deb, mitti daholar,
 Bizlarni baholar,
 Har fursat baholar ustozlar.
 Ulg'ayar nihollar,
 Yechilar savollar,
 Sevinchlar topadi qiyoslar,
 O'tsa ham arazlar,
 Sizda yo'q g'arazlar.
 Sizda ko'p havaslar, ustozlar.
 Fan degan o'lkaza,
 Bilimni yelkaga,

Siz ortgach, qilamiz parvozlar,
 Har kichik sarhadda,
 Quvonib albatta,
 Bizlarga qaraysiz, ustozlar.
 Bu kunlar tush bo‘lib,
 Uchirma qush bo‘lib,
 Sog‘inchdan titrasa ovozlar,
 Mehrlar yo‘lkasi,
 Ma‘rifat o‘lkasi
 Sizlarni eslatar, ustozlar.

MENDAN AZIZ SHIPPAK


Suvga tushib shippagim
 Suzib ketdi birpasda.
 Topmay uning daragin,
 Bosh egib qaytdim asta.
 Bo‘ldi rosa to‘polon,
 Qiynalib ketdim yomon.
 Akam olib xipchinni,
 Qo‘rqitib ham qo‘ydilar.
 Dadam hech bir gapirmay,
 Qovoqlarin uydilar.
 Opam esa dedilar:
 „Noinsofga bir qarang —
 Xayf senga yangi kiyim,
 Yuraver oyoqyalang“.
 Hatto mehribon onam,
 Shippagingni top, dedi.
 Uni topmaguningcha,
 Ket, eshikni yop, dedi.
 Uydagilar mehri ham,
 Chiqqandayin chippakka.
 Juda keldi havasim,
 Menden aziz shippakka.

BO'LING HARFGA HURMATDA

Alisbeda nechta harf,
 O'yla, aqling qilib sarf!
 Go'yo ko'z-u burni bor,
 Har bir harfning o'rni bor.
 Har bir harf buyuk erur,
 Har biri juda zarur.
 Adashtirmagin zinhor,
 Savod senga bo'lsin yor.
 Bir harf o'zgarsa agar,
 „Ko'r“ to'satdan bo'lar „kar“.
 Adashtirsang „i“ ni bir,
 „Kar“ bo'lib qoladi „kir“.
 „B“ harfsiz gavjum „bozor“,
 Keltirar dilga „ozor“.
 Yugurgan chopqir „jayron“,
 Bir harf deb bo'lar „vayron“.
 Hatto sog'lom, kuchli „fil“,
 Harf o'zgarsa bo'lar „sil“.
 „Pul“ aylanadi „kul“ga,
 „Tol“ aylanadi „tul“ga.
 Hattoki shirin „bola“,
 „B“ harfsiz bo'lar „ola“.
 Shunday holga bo'ldim duch,
 Bitta harfdan hatto „kuch“,
 O'zgardi-yu, bo'ldi „puch“,
 „P“ qochdi-yu, qoldi „uch“.
 Qish yozdi bir so'zni „muz“,
 Bahor to'g'riladi „buz“.
 Qish yana yozdi „ayoz“,
 „A“siz „ayoz“ issiq „yoz“.
 Har bir harf shunaqa „zo'r“,
 Ishonmasang sinab ko'r.

Degin: sho'rva buncha „zo'r“,
 Bir harf bilan udir „sho'r“,
 Harfi o'zgarsa biroq,
 „Qovoq“ ham chinni „tovoq“.
 Bir harf deb butun „qishloq“,
 Bo'lib qoladi „pishloq“.
 „Kun“ aylanadi „tun“ga,
 Ishonmaysanmi bunga?
 Axir bo'lar „torga os“,
 „D“ o'zgarsa „dorga os“.
 Neni osamiz torga,
 Kimni osamiz dorga?
 „D“ harfi aytar shartta,
 — Savodsizni, albatta!
 Osmasak ham yozamiz,
 Kitob qilib bosamiz.
 Yalinmasin ham hatto,
 Boshqa qilmasin xato.
 Shunday ekan, azizlar,
 Savodli bo'ling sizlar!
 Va bo'linglar, albatta,
 Har bir harfga hurmatda.





Abdurahmon AKBAR

(1962- yilda tug'ilgan)



O'zim haqimda

Azim Toshkentning shundoqqina yonginasida Niyozbosh degan qishloq bor. Qariyb o'ttiz ming aholi istiqomat qilayotgan mana shu go'shada 1962- yilning 22- aprelida tavallud topganman.

1969—1979- yillarda qishloqdagi 23- o'rtalik maktabda o'qidim. 1975- yilning dekabr oyida Sherqo'zi tog'am meni „Yangiyo'l“ tuman gazetasi muharririyatiga yetaklab bordi. O'sha kezlarda ham gazeta qoshida „Orzu“ adabiy to'garagi hozirgidek faol ish olib borar edi. Ham shoir, ham muallim Obid Rasul rahbarlik qilgan to'garak mashg'ulotlariga qatnasha boshladim. „Oyijonim yopgan non“ nomli she'rim ilk bor 1976- yil 28- oktabr kuni „Yangiyo'l“ gazetasi sahifasida chop etildi.

Bolalar uchun yozgan va o'zimga ma'qul bo'lgan she'rlarim yigirmatadan ortgach, ustozim, O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy 1982- yilning noyabr oyida shaxsan o'zi „Yosh gvardiya“ (hozirgi „Yangi asr avlod“) nashriyotiga kitob holida chop etish uchun topshirdilar. O'sha mashqlarning bir nechta 1984- yili „Boychechak“ jamoa to'plamida e'lon qilindi.

1986- yilning kuzida yangi tashkil etilgan „Yulduzcha“ (bugungi Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi)da ish boshladim va hozirgacha shu dargohda muharrir vazifasida ishlab

kelyapman. Tohir Malik, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Muhammad Rahmon, Hamza Imonberdiyev singari ajoyib noshir va shoirlar bilan birga mehnat qildim. „Ehtiyotkor toshbaqa“ nomli to‘plamimning Usmon Nosir nomidagi mukofot bilan taqdirlanishida (1991), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinishimda (1995) shu ustoz akalarimning bevosita va bilvosita xizmatlari bor.

She’r va tarjimalarimning jamoa to‘plamlaridan joy olgani, shuningdek, maktab o‘quvchilarining o‘quv darsliklariga kiritilganligi menga ilhom bag‘ishladi. Orzularim o‘sha-o‘sha — aziz bolajonlarga shaklan va mazmunan rang-barang asarlar yozish, ularga zavq-u shavq, hayrat baxsh etishdir.

Chop etilgan kitoblarim: „Kichkintoy va paxtaoy“ (M. Qodirov bilan birgalikda, 1987), „So‘zlovchi yomg‘ir“ (I. Donish, D. Shokirovlar bilan birgalikda, 1990), „Ehtiyotkor toshbaqa“ (1991), „Yozning tug‘ilgan kuni“ (1992), „Kuylayotgan bog‘“ (1994), „O‘yinqaroq bulutcha“ (1996), „O‘rdakcham“, „Jonli savatcha“ (2005), „Uyquchining tushlari“ (2006).

SO'ROV

Yaproqlarning boshin silading,
 Daraxtlarga o'rgatding o'yin.
 Bulutlarni „yum-yum“ yig'latding,
 Buzib qo'yib nogahon „to'yin“,
 Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Goh uvlaysan, goh chiyillaysan,
 Seni kimdir quvlarimi bu payt?
 Kayfiyatning bilmay hayronman,
 Xursandmisan, xafamisan, ayt,
 Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Yelayapsan, jivirlar buloq,
 Kelayapsan, shivirlar yaproq,
 Nima bo'lar o'zing ko'rsatsang,
 Nahot yuzing shuncha badqovoq?
 Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Bir qarasam, yo'qqa o'xshaysan,
 Bir qarasam, o'xshaysan borga.
 Tanib qo'yay seni ham axir,
 Bir bor xo'p de, men qilgan zorga,
 Shamol, bitta yuzingni ko'rsat!

KITOBNI KO'P O'QIYDIGAN UKAM

Kitobni ko'p o'qiydigan ukam
 Nimagadir juda ham kamgap.
 Kitobni ko'p o'qiydigan ukam
 She'rlar yozar onamga atab.
 Kitobni ko'p o'qiydigan ukam
 O'yga tolar ba'zida uzun
 Va shivirlar: — Hali kelmabdi
 Suvlar suvgaga o'xshaydigan kun.
 Kitobni ko'p o'qiydigan ukam

Bir kun menga shundayin dedi:
 —Oq mo'ynali qalpog'ingiz ham
 Quyon edi, joni bor edi.
 — Bunaqangi jumboq gaplarni
 Qaydan o'ylab topasan? — desam,
 Bosh chayqar-da, „uf“ tortib qo'yar,
 Kitobni ko'p o'qiydigan ukam.

YOMG'IR

Tunlari kuladigan
 Gullar ekan yulduzlar.
 Ko'zga ko'rinas ekan
 Shu boisdan kunduzlar.
 Oftob bilan Oymoma
 Ota-yu ona ekan.
 Bolalarin boshida
 Doim parvona ekan.
 Bolalari kim dersiz
 Kun va Oyni sizlar ham.
 Menga ishonavering,
 Ular Bulutlar desam.
 Bulutlar ham bizlardek
 O'ynar, uxlар, tush ko'rар.
 Dengiz-u ummonlarda
 Cho'milmoqni xush ko'rар.
 Bas, suvdan chiqing, deya
 Koyimasa ham hech kim,
 Yuvar yuz-qo'llarini
 Ular goh chala-yarim.
 Bundan ranjib Oftobjon
 Egniga peshband tutar.
 Farzandlarin bir joyga
 To'planishlarin kutar.
 Bulutvoylar g'o'ldirab,
 Yo'talishsa ham „quv-quv“,

Ularning ust-boshidan
 Quyosh quyar tinmay suv.
 Ko'ngli to'lса-ku xo'p-xo'p,
 Yo'qsa: quyar tunda Oy.
 Natijada tevarak
 Bo'lib ketar ho'l va loy...
 Uydan chiqmay shu kezlar
 Derazadan bo'yaylmiz.
 Eng qizig'i, bu suvni
 Biz yomg'ir deb o'yaylmiz.

SHOIR DADAM HAQIDA SHE'RIY HIKOYALAR

1. DADAMNING QALBI

Armon uyasimish dadamning qalbi. Dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj. Yozgan uch-to'rt she'ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu, ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko'rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish...

2. DADAMNING FIKRI

Bazmga borsa bas, dadam har safar, uyg'a qaytar minib jahl otiga: — Onasi, ko'nglingga olma-yu ba'zan, hech qoyil qolmayman ayol zotiga. To'yni xo'p qizdirdi bugun ham biri, ajratolmay qoldim men mastmi, u mast. Qiliqlari degin biram beo'xshov, o'ynab o'ynamaydi, sakrab sakramas. Yoshi ham o'n beshda bo'lса keragov. Qayerdan bildingiz deysanmi buni? Uch rashuv o'tkazgan qay bir maktabda ko'rgandek bo'luvdim qaysi bir kuni. Bunaqa xonaki „san'atkor“ larda imon doim qahat, andisha qahat. Ularning ko'ziga boqib o'qiyman azaldan birgina „pul“ so'zin faqat. Yozib bo'larkanmi ko'zlarga yozuv? Dadam zo'r loschi-da, degan bir o'yda, „Lazgi“ga eshilib raqs tushayotgan ikki o'yinchini kuzatdim to'yda. O'yinin

kuzatdim orqa, oldidan, uzoqdan, yaqindan, xullasi, rosa. Ko'zlariga tikib sinchkov ko'zlarim, nihoyat, chiqardim shunday xulosa. „Pul“ degan yozuvni o'qimasam-da, biroz to'g'ri chiqdi dadamning so'zi. Odamga g'alati qararkan ular, boshqacha kularkan ularning ko'zi...

3. ARI

Devor buzdig dadam ikkimiz. Necha fasl yog'ib yomg'ir, qor, necha daf'a qolib qarovsiz, nurab, cho'kib qolgandi devor. O'sha, devor buzgan kunimiz havo salqin, g'oyat tund edi, Ustki paxsa qulagach, dadam:— O'g'lim, qara, arilar, — dedi. So'nayotgan gulxan cho'g'larin sochgandayin shamol har tomon, ini shikast topgan arilar uchishardi vizillab nolon. — Ehtiyot bo'l! — dedi-yu dadam, uyg'a chopdi to'xtatib ishin. Ammo sanchib ulgurgan edi tirsagimga bir ari nishin. Ko'kda qovoq uygan bulutlar shu payt sovuq tomchi tashlashdi. Nazarimda uysiz arilar xuddi mendek „yig'lay boshlashdi“. Goh devorni, goh inlarini timirskilab (ehtimol quchib), alamzada arilar oxir qaylargadir ketdilar uchib... Oson kechdi keyin ishimiz. Og'riqni ham unutdim tamom. Jazosini olgan aridek, „taslim“ bo'ldi devor batamom. Ish tugarkan kamzulin yechib, taskin bergen bo'ldilar dadam: — Talanganman sendekligimda bundan katta arilarga ham. Dadam yana allanelar deb, surar ekan inni nariga, meni jonim og'riy boshladi qo'lim chaqib o'lgan ariga...

4. SUPACHA

Azim tuti bo'lgan bu uyning ko'chaga qaragan betida, odamlar-la doim serqatnov yo'lakchaning shundoq chetida, bo'lar ekan mo'jaz supacha. Unga sholcha, ko'rpačha solib, ammajonim o'tirarkanlar salomlarga aliklar olib. Cho'kkalarkan dadam ham ba'zan, (ko'proq ishdan uyg'a qaytgan dam) — Bollaringning og'zi tegsin, — deb, tut tutarkan so'rashib ammam. Hayot hayot ekan-da qarang, ammamiz ham fursati yetib, o'tibdilar yorug' dunyodan urug'larin dilin yosh etib. Uchida ham, yettisida ham, qirqida ham,

hatto yilda, supachaga o'tirib dadam duolar o'qibdi diliida. Qaysi bir kun razm solsalar devor yoni emish tep-tekis. Odamlar ham sezmasmish ajab — supachadan qolmagan-mish iz. Bir necha kun faromush bo'lib, joy topolmay qo'yarga o'zin, tillaridan qo'ymadi dadam „fosiq“ so'zin, „supacha“ so'zin.

Fosiqlik ham asli g'am ekan. Tashrifi tez ekan bu g'amning. O'z bolasi buzib tashlabdi supachasin Oygul ammamning.

5. DADAMNING HAZILI

Mehmon kelib qolishin ta'kidlab dadam, jo'nab ketdi ishiga shoshib subhidam. Birozdan so'ng onam ham tushdilar yo'lga: — U-bu narsa olarman, ilinsa qo'lga. Barno dedi peshbandin egniga tutib: — Bu ahvolda mehmonni bo'lmaydi kutib. Hovliga bir qaranglar, uyga bir qarang. Alg'ov-dalg'ov hammayoq, hammayoq kir, chang.

Yulduzxon, sen ayvonni polin artib chiq. Obdastaga suv to'ldir, hozirla sochiq. O'tinlardan qalab qo'y, tandirga, Omon. Xamir oshsa, yopamiz hademayin non. Qo'ylaring-ga, Bahodir, qarab tur, qarab. Uyaltirib qo'ymasin basma-bas ma'rab...

Xullas, uyga qaytguncha onam va dadam, yumushlarni bitkazib, bo'ldik xotirjam. Bu orada o'n quloch yerni ham chopdik. Oshxonani oqlashga fursat, vaqt topdik. Katta uyga yozdik so'ng katta dasturxon. Biroq kelavermadi biz kutgan mehmon. Hayron edik bu holga, topolmasdik so'z. Quvontira olmasdi dasturxon ham ko'z. Uyga boshlab kiraman mehmonni shodon, deya chiqdi ko'chaga ikki bor Omon. Qah-qah otib, kulvorib dadamlar nogoh, hamma „sir“ dan bizlarni etdilar ogoh:

— Bilgim keldi judayam qodirsiz nega. Qolmas ekan sevindim, uyim beega. Yolg'onimni sirayam olmanglar og'ir. Rahmat, Yulduz — oy qizim, rahmat, Bahodir. Qani, oshga qaranglar, o'tirmanglar jim. Bugun „mehmon“ o'zimman, **BOLAJONLARIM**.



Dilshod RAJAB

(1964- yilda tug‘ilgan)



O‘zbek bolalar she’riyatining iste’dodli yoshlaridan biri Dilshod Rajab (Rajabov) 1964- yil Buxoro viloyati Shofirkon tumani Denov qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ildi. 1982- yil 4- o‘rta maktabni oltin medal bilan bitirib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga kirgan.

Dilshod Rajabning ilk she’ri 5- sinfda o‘qigan kezлari „Gulxan“ jurnalida chiqqan. Ayni paytgacha uning „Qorqiz sovg‘a keltirdi“ (1990), „Hazilkashlar davrasida“ (1991), „Otamning bog‘i“ (1996), „Daryo ko‘ngil“ (1997), „Jilvon o‘g‘loni“ (2001), „Alisbo“ (2001), „Sanoq“ (2002) to‘plamlari chop etilgan.

Dilshod Rajab badiiy ijodni ilm bilan birga olib borib, o‘tgan asrning 80- yillarida o‘zbek bolalar she’riyatida poetik mahorat masalasidan nomzodlik ishini yoqlagan.

Dilshod Rajab O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, filologiya fanlari nomzodi.

OSHQOVOQNING SHIKOYATI

O'ylamasdan bir gapni
 Aytaverar Mirsaid,
 Men bekorga pushtada
 Yotmayman-ku ishshayib,
 Xo'p mazali qilaman
 Odamlarning oshini,
 Nega menga o'xshatar
 Norbo'taning boshini.

QISHKI YURISH

Nima bizga qish-chilla,
 Chiniqqanmiz po'latday.
 Izg'irin qilichiga
 Qalqon bizning ko'kraklar.
 Yo'l olamiz mактабга
 Ayozdan qo'rqlmay, olg'a!
 G'ijirlaydi g'azabdan
 Qishning tishi — oq qorlar.

QARASH

Kungaboqar chindanam
 Menga juda yoqadi.
 U doim yorug'likka,
 Yuksaklikka boqadi.

Lekin hamma ham unga
 Shu ko'z bilan qaramas.
 Ba'zilar bor hayotda
 Fikri-zikri qorin, nafs.

Farqi yo'qdir ularga
 Qay tomonga boqishi.
 Ular uchun muhim
 Pistasini chaqishi.

TANDIRGA HAZIL

Sen borki, non — hayot bor,
 Jon tandirjon, o'lma san.
 Lekin, lekin bunchalar
 Og'zi ochiq bo'lmasang.

Kuyib-pishib qolasan,
 Qiynab shirin joningni,
 Uzib olib ketarlar,
 Og'zingdagi noningni.

QO'YNING SHIKOYATI

Echkivoy bilan yashash—
 Rosti, tegdi joninga.
 Bigizday shoxlarini
 Niqtab turar qornimga.

Yem-hashakning yaxshisin—
 Tanlab, avval u yeidi.
 Bir gap desam, shoxlarin—
 O'qtalib, „jim bo'l“, deydi.

Ne ham derdim, ko'naman,
 Buncha zolim bo'lmasa?!

Qiyin ekan yashamoq—
 Boshda shoxing bo'lmasa!

PIYOLANING HAZILI

Choynak, do'stim, ne uchun
 Burning doim osmonda?
 Haa, bilaman, og'zingga
 Quyib turar Qumg'onlar.
 Lekin menga kerilma,
 Jilmasdan shu o'rnimdan
 Ichganingni barini
 Tortvolaman burningdan.



Erpo'lat BAXT

(1971- yilda tug'ilgan)



„Quyoshning tabassumi“ nomli ilk kitobi iste'dodli shoir Erpo'lat Baxt (Po'lat Baxtiyorovich Ermatov)ning ,bolalar adabiyotiga tabassum bilan kirib kelishi bo'ldi go'yo.

*Yigit bo'lsa mard bo'lsin,
El uchun hamdard bo'lsin.
Qo'llarida zar emas
Tuprog'idan gard bo'lsin,*

deb yozgan edi shoir ilk kitobchasi debochasida.

Erpo'lat Baxt 1971- yilning 1- sentabrida Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi Qipchoq qishlog'ida dunyoga keldi. Otasi o'qituvchi bo'lgan. Onasi jamoa dalalarida ko'p yillar mehnat qilgan.

Erpo'lat Baxt 1989—1991- yillarda harbiy xizmatda bo'ldi. 1992—1998- yillarda ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida tahsil oldi.

1997- yil shoir hayotida unutilmas yil bo'ldi. Uning „Quyoshning tabassumi“ nomli ilk kitobi nashrdan chiqdi. 2000-yili „Istiqlol umidlari“ almanaxida yana bir turkum she'rlari e'lon qilindi.

Shoir 1999- yili „Shuhrat“ medali bilan taqdirlandi. Erpo'lat Baxt bolalar adabiyotini o'llmas asarlar bilan boyitishni hayotining bosh maqsadi deb biladi.

MOMOMNING KOVUSHI

Shukr, momom bag'rida,
 Yashayapmiz isinib.
 Keksayganda bizni deb
 Qoldi biroz qisinib.
 Har yakshanba bozorga,
 Jun sotgani ketadi.
 Axir jinday nafaqa
 Nimagayam yetadi?
 ...Qish kunlari ajoyib,
 Fayz oladi mahalla.
 O'ynamasdan qorbo'ron
 Aytgum ukamga alla.
 Momom ketgan bozorga,
 G'archa-g'urch qorni bosib.
 Kelib qolar hademay,
 Yelkaga to'rva osib.
 Onajonim tabiat,
 Tezroq haydagil qishni,
 Yirtilmasin yozgacha,
 Momojonim kovushi.

MO'RINING SHIKOYATI

Agar meni qiynasa,
 Pechkaning sho'x tutuni.
 Rahmim kelib gohida
 Ozod qilaman uni.
 — Erkinlikka chiqaqol,—
 Deyman u bechoraga
 U bo'lsa chiqar chog'i,
 Bo'yar meni qoraga.

MOYCHECHAKNING QALPOG'I

Erta ko'klam moychechak
 Qalpoq kiydi quyoshrang.
 Hayrat ichra do'stlari,
 Bo'lishdilar hang-u mang.
 Kibr-u havo band etdi,
 Moychechakning o'yini.
 Ko'z-ko'zladi qalpoq-la,
 Mittigina bo'yini.
 Uning maqtanchoqligi,
 Yoqmadi deyman chog'i,
 Moychechakdan arazlab,
 Uchib ketdi qalpog'i.

SUZISHNI O'RGANAY

To'lib oqqan anhorga,
 Tushib ketdi paqirim,
 Shosha-pisha yordamga,
 Jo'rabeckni chaqirdim.

Yeng shimarib dedi u:
 — Qotiramiz bu ishni
 Faqat shoshma, men oldin
 O'rganayin suzishni.

MAQTANCHOQ MUSHUK

Bitta sichqon ovlagani
 Jonni qiy nab yurmayman.
 Teshikdan chiqqanda ham
 Ortidan yugurmayman.
 Omborxona ichida
 Sanqishning yo'q keragi.
 Temir qopqon o'ljani,
 O'zi ushlab beradi.



Orif TO'XTASH

(1976- yilda tug'ilgan)



Orif To'xtash (To'xtashev) Abdumajid o'g'li 1976- yil 19-sentabrda Samarqand viloyati Ishtixon tumani „Zarband“ shirkat xo'jaligiga qarashli Beshbola qishlog'ida ziyoli oilada tug'ilgan. U o'zining ilk ijodiy mashqlarini 3—4- sinfda o'qib yurgan kezlarida boshlagan. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Ori pov uning ijodi bilan tanishib, bolalar gazetasi orqali unga „Bolakay shoir“ nomi bilan oq yo'l tiladi. 1988- yilda Do'rmonda o'tkazilgan ijodkorlarning V seminarida eng yosh ishtirokchi sifatida qatnashib, she'rlari yuqori baholandi.

Uning she'riy turkumlari „Har doim bo'lsin quyosh“ (1988), „Boychechak“ (1989), „Dovon oshgan avlodlar“ (1990), „Oltin belanchak“ (2001), „Zarband“ (2002), „Vatanim, deb seni, uyg'ondim“ (2003) va shu kabi she'riy bayozlardan o'r'in olgan. 1991- yilda „G'unchalar tabassumi“, 1995- yilda „Quyosh yo'li“ hamda 1998- yilda „Ko'ngilga tashrif“ deb nomlangan alohida she'riy to'plamlari chop qilingan.

Orif To'xtash 1993—1998- yillarda Samarqand davlat universitetida jurnalistika ixtisosligi bo'yicha tahsil oldi. 1997- yilda Respublika „Ulug'bek“ jamg'armasi mukofoti sovrindori bo'ldi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Orif To'xtash dastlab 1998- yil O'zbekiston Milliy Axborot agentligining nashri bo'lgan „Respublika“ gazetasida ish boshlagan. Keyinchalik, „Tasviriy oyina“ ijodiy uyushmasida referent, „Darakchi“ gazetasi muxbiri, „Ma'naviyat“ studiyasi muharriri, „O'zbekiston“ telekanali mas'ul kotibi, hozirgi kunda esa teleradiokanalning bo'lim boshlig'i lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

ONA-VATAN

Ozod vatan, hur Vatan,
Tuprog'i zar, dur Vatan.
Ko'zimizga to'tiyo
Aylasak arzir Vatan —

Serquyosh O'zbekiston,
Beqiyos O'zbekiston!

Jilvalanar jamoli,
Yurtlarning barkamoli.
Bir Vatanki, zargor yer,
Ham musaffo samoli —

Serquyosh O'zbekiston,
Beqiyos O'zbekiston!

Tenglar ichra tengi yo'q,
Eng muqaddas, eng buyuk!
Ko'pdir sarhadi kenglar,
Bunday bag'ri kengi yo'q —

Serquyosh O'zbekiston,
Beqiyos O'zbekiston!

Borar yo'li ziyoli,
Farovonlik shiori.
Bu o'ziga bek bo'lgan,
O'zbeklarning diyori —

Serquyosh O'zbekiston,
Beqiyos O'zbekiston!

KUZ FASLIDA

— Daraxtlarga
Qara, Nodir.
Nega bargin —
To'kayapti?
— Bu eskisi,
Bahor unga
Yangi ko'yvak —
Tikayapti!

XAVOTIR

Bir kun qo'ng'iz uyiga,
Chaqirdi qirqoyoqni.
Do'sti kelmasdan burun,
Supurdi hammayoqni.

Yerto'lanning to'ridan,
Mehmon uchun joy soldi.
Shu zahoti qirqoyoq,
Lapanglab kelib qoldi.

Kiravering, deb qo'ng'iz,
O'zi o'tirdi sekin.
Bir soat o'tsa hamki,
Undan darak yo'q lekin.

Mezbon ham hayron bo'lib,
Eshikni ochsa bundoq —
Qirqinch'i kalishini,
Yechar edi qirqoyoq.

MUNDARIJA

Bolalarga beraylik dunyoni	3
<i>Abdulla Avloniy</i>	25
Vatan	26
Bahor	26
Yoz	27
Kuz	28
<i>Hamza Hakimzoda Niyoziy</i>	29
Qalam	30
Bir kishining bor edi to'rt bolasi	30
Mevalar mojarosi	32
<i>G'ayratiy</i>	34
Qulinqchin	35
<i>Quddus Muhammadiy</i>	40
She'rim, ochil dasturxon	42
Bahor keldi	43
Qish ham chiroyli	44
<i>Hamid Olimjon</i>	46
Vatan	47
Lola	47
O'rik gullaganda	48
<i>Ilyos Muslim</i>	49
Do'stlak	50
Sening sovg'ang	50
Eshmatvoyning qilig'i	51
Befahm Eson	51
Odobli qizcha	52
Maktabim	52
Turnalar	53
<i>Sulton Jo'ra</i>	54
Tinish belgilalarining majlisi	56
Oy nechta	58
<i>Zafar Diyor</i>	60
Binafsha	62
Kapalak	62
To'p	63

Shukur Sa'dulla	64
Ayiq	66
Buzoq	66
Toychoq	66
Uloqcham	67
Mitti	67
Shuhrat	68
To'maris	69
Tolib Yo'ldosh	80
Non tanlama	82
Gapning joni	82
Uzumlar oilasi	83
Yerning tili	84
Asqad Muxtor	85
Hafta	87
Yakshanba	87
Dushanba	88
Seshanba	88
Chorshanba	89
Payshanba	90
Juma	91
Shanba	91
Hamidulla Yoqubov	93
Sho'rtan gazchisi	94
Hovlim	95
Oq chashma	96
Bir, ikki, uch deyman	97
Po'lat Mo'min	98
Papka bilan Siyohdon	100
Tish cho'tka, Poroshok va Atirovun ertagi	101
Obid Rasul	105
Kitob	106
Xayrixon va Maylixon	106
Pilla — tilla	107
Toshkent	107
Siz — mehribonim	108
Top, o'rtoq	108
Sinfdosh	108
Hunarmand	109
Tinchlik yashar	109

Do'stjon Matjon	110
Suflor	111
Ochkoni teng bo'lishar	111
Ko'chamda bor bir bola	112
Uxlamaydigan qizcha	113
Samokatim	113
Baliq ovida	114
Shart	114
Qudrat Hikmat	115
Buvimning deganlari	117
Suv	117
Uch o'rtoqning sovg'asi	118
Oyga poyga	119
Mix	121
Aziz Abdurazzoq	122
Oqqush	123
Kema	123
Dunyo	123
Na'matakning mehmoni	124
Yasangan xo'roz	124
Xolmurod Safarov	125
Qanotli mushuk	126
Anor	127
Sog'indim	127
Savollarga javoblar	128
Ernazar Ro'zimatov	129
Fasllar ulug'i	130
Vatan madadkor bo'lgay	132
Jo'ra Rahim	133
Bir butun oy, o'n ikki yulduz	134
Yo'ldosh Sulaymon	137
Qayrag'och	138
Kuz	139
Hey, Qo'qon shamoli	140
Quyoshdan erta turib	141
Yoqub Xo'jayev	142
Maratning sayohati	143
Topishmoq	144
„Aziz — keyin“	144

Oollobergan Po'latov	146
Buvim kelsa...	147
Gulasal	147
Boqiy yashang	147
Kichik rassom	147
Dugonalar	148
Orzu	148
Yordamchi	149
Mitti jo'jalar	149
Chevar bo'laman	150
Odobli qiz.....	150
Erkin Vohidov	151
Oyga uchsak	153
Shaftoli	153
O'rik	153
Olma	154
Yong'oq	154
Terak	154
Qarag'ay	155
Gilos	155
Majnuntol	155
Archa	156
Nashvati	156
Miraziz A'zam	157
„Bir cho'ntak Yong'oq“ turkumidan namunalar	
Yong'oq ulashaman	158
Puch yong'oq	158
To'q yong'oq	159
Tosh yong'oq	160
Kasal yong'oq	160
Gan	161
Yong'oqning umri	161
Laylak	162
Ona tilim	163
Safar Barnoyev	164
Ostonamiz — uyimiz	166
Dadamning qo'llari	166
Yomg'ir yog'di	167
Ayiqlpolvon	167

Sho'r danak	168
Tinchlik qo'shig'i	168
Minora	169
Bolalar ning ovozi	170
Tursunboy Adashboyev	171
Tuproq	173
Ona tilim	173
Qo'sh qaldirg'och	174
Beshta arra	174
Chumchuqlarga uyadir	175
Ovning gashti	175
Barchasi yodimda	176
Beshta sanoch	177
Maymunning shukronasi	178
Jasorat	179
Arqon qilib...	180
Sulton Jabbor	181
Rahmat menga tekkani	182
Shamol menga yoqadi	182
Tog' rayhoni	182
Shirin tush	183
Palagi toza	183
Polizda	183
Anor	184
Bog'imday	184
Ko'chatim	184
Hoy, ayyor!	185
Abdulla Oripov	186
Iqboli buyuksan	188
Dehqonbobo va o'n ikki bolakay qissasi	188
Sizga	191
Habib Rahmat	192
Dil so'zlari	193
Har dalang..	193
Men ham	194
Buloq	194
Kurash	195
Afrikalik yo'lbars	195

Qambar Ota	196
Laylakjon	197
Birovning dardi	197
Kenguruning bolasi	197
To'rt g'ildirak	198
Masxaraboz	198
Mehribonlik	198
O'zbekiston	199
Baxt qomusi	200
Vatan timsoli	200
Eh, maza	201
Chaqqonman	201
Safo Ochil	202
Ko'klam qo'shig'i	204
Oqshom	204
Qushlar qo'shig'i	205
Soyam bilan o'ynayman	206
Kungaboqar	207
Qayiq	207
Oxirgi so'zlar	207
Yarador qushcha	208
Xazonlarni supurmang	209
Ilon va tipratikan	210
Tuya va kuchuk	210
Odil Abdurahmon	211
Taroq	212
Jo'xori	212
Lola	212
Jag'-jag'	212
Quyoshni yumalatib	213
Non	213
O'zbek elim	214
Rauf Tolib	215
Orolim	216
Tabib ko'klam	216
G'alati ovchi	217
Varrak	218
Anvar Obidjon	219
Vatan	221

Fathillaning kurkasi	221
Obbo, kalamush-ey!.....	221
Uch yoshlilar	222
Karnay qo'shig'i	222
Chigirtka qo'shig'i	222
Tuzdonga yozilgan she'r	222
Partaga yozilgan she'r	223
Bezori	223
Handalak	223
Turp	224
Yirtqich	224
Kalish afsonasi	225
Masxaraboz bola	225
Rustam Nazar	226
O'rimdan so'ng	227
Vatan tuyg'usi	227
Yerdag'i quyosh	228
Gullagan olcha	229
Qaltis o'yin.....	230
Mahkamboy Umarov	231
Turnalar	232
Kapalaklar	232
Bizning elda	232
Kim bo'lasan?	233
Abusaid Ko'chimov	234
Mish-mishvoy	235
Umida Abduazimova	239
Kenguru	240
O'rgatarlar	240
Bir bola bor...	241
Qulqoq	242
Barnoning qo'g'irchog'i	243
Muhabbat	243
Hamza Imonberdiyev	245
Kirpitikan	247
Chanoqvoy	247
Bir so'z	248
Urushqoqlar	248
Vaqtning hajmi qancha?	249
Olamoshim	250

Qo'pollik	250
Turnalar	252
Nurilla Ostonov	254
Bahor	255
Hamal	255
Sovg'a	255
Quyosh kulgisi	256
Bolalik	256
Begemotning bolasi	257
Bolg'avoy	257
Kavasar Turdiyeva	258
Vatan iqbol kutar	259
Ustozlar	260
Mendan aziz shippak	261
Bo'ling harfga hurmatda	262
Abdurahmon Akbar	264
So'rov	266
Kitobni ko'p o'qiydigan ukam	266
Yomg'ir	267
Shoir dadam haqida she'riy hikoyalari	268
Dilshod Rajab	271
Oshqovoqning shikoyati	272
Qishki yurish	272
Qarash	272
Tandirga hazil	273
Qo'yining shikoyati	273
Piyolaning hazili	273
Erpo'lat Baxt	274
Momomning kovushi	275
Mo'rining shikoyati	275
Moychechakning qalpog'i	276
Suzishni o'rganay	276
Maqtanchoq mushuk	276
Orif To'xtash	277
Ona-Vatan	278
Kuz faslida	279
Xavotir	279

O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi, I jild, She'riyat./
T. Adashboyev, A. Akbar. — T.: „O'qituvchi“ NMIU,
2006. — 288 b.

I.Muallifdosh.

BBK 83.8

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

I

SHE'RIYAT

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:

**Tursunboy ADASHBOYEV
Abdurahmon AKBAR**

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2006

Muharrir *S. Xo'jaahmedov*

Badiiy muharrirlar: *T. Qanoatov, Sh. Xo'jayev*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchilar: *K. Hamidullayeva
S. Musajonova*

Musahhihlar: *M. Ibrohimova, Z. Sodiqova*

IB № 8841

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 27.08.2006. Bichimi 84x108/₃₂.
Kegli 10, 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b. t. 15,96. Nashr. t. 15,12. 3000 nuxsada bosildi. Buyurtma № 133.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent,
Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. Sharhnomalar № 12 — 123 — 06